4. Bandura, A. (1997). *Self-efficacy: The exercise of control*. New York: W. H. Freeman and Company.
5. Blatt, E. N. (2013). Exploring environmental identity and behavioral change in an environmental science course. *Cultural Studies of Science Education*, 8, 467-488.
6. Bregman, J., & Fisher, M. (1999). Environmental education: The Millennium challenge. In S. A. Ware (Ed.). *Science and environment education views from developing countries*. Secondary Education Series. World Bank, Education Advisory Service (ERIC Document Reproduction Services No ED 456025).



YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING AHAMIYATI

Jilqibaeva Jayna Xojagaliyeva
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Nukus shahar 25-sonli maktabning
tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tasviriy san'at o'qituvchisi so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerakligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, o'quvchi, bo'yoq, san'at, san'atkor, pedagogik texnologiya, rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va manaviyatining roli beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham o'z o'rnini bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Tasviriy san'at o'qituvchisi so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerak.

Tasviriy san'at o'qituvchisining o'zi qalam va bo'yoqlar bilan rangda ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan birga, bu sohadagi bilimlarini o'quvchilariga ham yetkaza olishi zarur. Shuning uchun ushbu qo'llanmada rangtasvir haqidagi nazariy va metodik ma'lumotlar keng va atroflicha yoritiladi. O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishishi xalqimizning tarixiy qadriyatlari, ma'naviy merosi xalq pedagogikasi an'analari qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta yo'l ochib berdi. Ayniqsa, asriy an'analarga ega bo'lgan.

Tasviriy san'at turlariga o'quvchi yoshlarni jalb etish kata tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Shu jihatdan ham yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishda jamiyatimiz pedagogika fani, xususan san'at pedagogikasining oldiga yangi vazifalar yukladi. Zero boshqa sohalar bilan hamohang tarzda ilm va san'at sohalarida ham tub o'zgarishlar davri kechmoqda. Bu o'zgarishlar yosh avlodda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishni ham taqozo etadi.

Tasviriy san'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. Tasviriy san'at esa o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar.

Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz. Kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy san'at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rangtasvir tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmuni ochib berishda rang muhim o'rin egallaydi.

Rangtasvir asarlari xarakteriga ko'ra monumental, dekorativ, mo'ljaz, dastgohli turlarga bo'linadi.

Monumental rangtasvir me'morchilik bilan bog'liq bo'lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo'llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi uchun bular



yaхlitlashtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi.

Mo'jaz san'at asarlari turli mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekiston hududida judaham qadim zamondan taraqqiy etib, qadimiy qo'lyozmalarga ishlangan. Chunonchi. Alisher Navoiyning «Xamsa» asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo'la oladi. Dastgohli rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo'lib, maxsus matolar, karton, yog'och, romkaga tortilgan mato-xolst va shu kabilarga ishlanadi. Dastgohli rangtasvir moybo'yoq, guash, suvbo'yoq, tempera bo'yoqlarida maxsus dastgoh (molbert) larga o'rnatilib ishlanadi.

Grafika – lotincha «grafo» so'zidan olingan bo'lib, «yozaman», «chizaman» degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko'mir, pastel, sangina, suvbo'yoq, guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlar, hajviy rasmlar va hakoza kiradi.

Haykaltaroshlik – tasviriy san'at turlaridan biri. U lotincha «skulpo» so'zidan olinib, qattiq materiallarga «qirqish, kesish, o'yish, taroshlash» orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi.

Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarini kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi. Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir.

Adabiyotlar

1. R.Xasanov «Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi» O'zR FA «Fan» nashriyoti. 2004 yil.
2. R.Xasanov. «Tasviriy san'at asoslari» T. 2009 yil



“OGOHI DEVONINING O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI”

Musaxonova Soliha Muhammadtoho qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Anotatsiya. Ushbu maqolada Ogoh tahallusi bilan ijod qilgan Hoji Buloq Samarqandiyning Ogoh devoni haqida ma’lumot berilgan. Ijodkor haqidagi ma’lumotlar imkon qadar to‘planib, shoir shaxsiga, uning mahoratiga 1777 yilda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxa asosida yondashildi. Hoji Buloq Samarqandiy yashagan davrlari ham o‘zbek adabiyoti tarixi taraqqiyotining muhim bosqichi hisoblanadi. Mazkur asar o‘zida turli mavzudagi g‘azal, qit‘a, masnaviy, ruboiylarni o‘z ichiga olgan. Misol uchun Din, axloq-odob, sevgi-muhabbat, Allohga bo‘lgan munajat, xasad, baxt kabi mavzulardagi g‘azal ruboiy, qit‘alardan iborat. Binobarin, bu asar matnini, uning tarkibidagi she’riy matnlar badiiyatini, poetik xususiyatlarini o‘rganish navoiyshunoslikning muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Bu birinchi navbatda “Ogoh devoni” asarining mazmun va g‘oyaviy mundarijasini teranroq anglash imkonini beradi.

Аннотация. В данной статье представлена информация об офисе Хаджи Булака Самарканди Огох, созданном под псевдонимом Огох. Информация о художнике была собрана максимально, а личность и способности поэта были рассмотрены на основе рукописи, скопированной в 1777 году.

Annotation. This article provides information about the office of Haji Bulak Samarkandi Ogoh, created under the pseudonym Ogoh. Information about the artist was collected as much as possible, and the personality and abilities of the poet were examined on the basis of a manuscript copied in 1777.

Kalit so‘zlar: Ogoh, devon, qasida, masnaviy, g‘azal, nasta’liq, janr, kolofon, poygir, hoshiya.

O‘zbek xalqining ko‘p ming yillik tarixi, boy ilmiy-ma’naviy merosi, adabiyot va san’ati haqidagi qimmatli ma’lumotlar qo‘lyozma manbalarda aks etgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin uning ilmiy-tarixiy va madaniy merosini tiklash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidan biriga aylandi. Bunday merosimizning kattagina qismini qo‘lyozma manbalar tashkil qiladi. O‘zbek adabiyoti tarixi XX asrning 50-yillaridan boshlab yangi bir qancha noma’lum asarlar bilan boyidi. Shu yillardan boshlab chet davlatlarning yirik qo‘lyozma markazlari va kutubxonalariga arxeografik ekspeditsiyalar uyushtirila boshlandi. Bu ekspeditsiyalarning asosiy maqsadi jahon qo‘lyozma fondlarida saqlanuvchi o‘zbek adabiyotiga oid nodir qo‘lyozmalarni o‘rganish, noyob kitoblardan nusxa ko‘chirish, ularning mikrofilm va faksimil nashrini olish edi. Ma’lumki, o‘tmishda yaratilgan Movarounnahr va Xurosonda yaratilgan madaniy merosimizning qancha-qanchasi bosqinchilik urushlari, o‘zaro nizo va janjallar, jaholat va fanatizm hamda turli falokatlar oqibatida nom-nishonsiz yo‘q bo‘lib ketgan edi. Qo‘lyozmalar instituti olimlarining ilmiy izlanishlari natijasida hali fanga ma’lum bo‘lmagan ilm-fan, adabiyot va san’at ayrim namunalari jahonning yirik qo‘lyozma xazinalari, davlat va ayrim fozil insonlarning shaxsiy kutubxonalarida saqlanayotganligi ma’lum bo‘ldi. Yevropaning eng boy qo‘lyozma xazinalari bo‘lmish London, Parij, Oksford, Kembrij, Sankt-Peterburg, Qozon hamda Turkiya, Eron, Afgoniston va Hindistonda kutubxona muzeylaridagi o‘zbek adabiyoti, fani va madaniyatiga oid barcha qo‘lyozmalar ko‘rib chiqilib, ular orasidan eng mo‘tabar asarlarining mikrofilmlari va faksimil nashrlari olinib, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo‘lyozma fondi xazinasiga olib kelindi.¹ Biz yoritmoqchi bo‘lgan “Devoni Ogoh” ham turkey tilde yozilgan devonlardan biri. Ushbu devon muallifi Hoji Buloq Samarqandiy bo‘lib, u Ogoh tahallusi bilan ijod qilgan. Hoji Buloq Samarqandiy haqlarida adabiyotlarda kam ma’lumot uchraydi. Ogoh devoni hozirgi kunda O‘zR FA Beruniy nomidagi qo‘lyozmalar institutida № 998/11 inventar raqami bilan saqlanadi. Kitob qalin ko‘k karton qog‘oz bilan muqovalangan. Kitobga yashil rangdagi muqova qoplab, uni to‘q qizil rangdagi tasma chiziqlar bilan bezalgan. Kitob 48 varaqdan iborat. Uni Kamol Shayh degan muqovasoz kitob holiga keltirgan. Mazkur devon 1777 yili (hijriy 1191) Fayzulloh Buxoriy tomonidan nasta’liq xatida ko‘chirilgan.² Qo‘lyozma ichi ko‘k, sariq

¹ H.Sulaymonov. Ma’naviy boyligimiz-Hindiston fondlarida. Adabiy meros. 1980.2(14)

² Собрание восточных рукописей академии наук республики Узбекистан. –Ташкент: Наврўз. 2017. 560 б

rangdagi hoshiya bilan bezatilgan. Qo‘lyozma matni qora siyohda yozilgan, she‘riy janrlarning har bir bandi qizil siyoh bilan ajratilgan. Muallif sharq adabiyotida an‘anaga aylangan poygir qo‘llash usulidan foydalangan. Ogoh devoni qo‘lyozmalar institutida 198 betlik kitob shaklida jamlangan. Asar dastlab Shavkat Buxoriyning devonlari bilan boshlangan. 1-betdan 131-betgacha bo‘lgan betlarni o‘z ichiga olgan. Undan so‘ng 3 bet qasidalar bilan to‘ldirilib, 135-betdan Ogoh devoniga 3 betlik kirish bilan boshlangan. 139-betdan esa, muallif basmaladan boshlab, g‘azal, masnaviylarini yozishga kirishadilar. 182 a betida Ogoh Samarqandiyning devonlari yakunlangan. Undan keyin 187-betigacha Xazrati Shams Tabriziyning qit‘a va bayozlari keltirilgan. 193-betgacha Mashrab, Xazrati Imlo, Xazrati Muhitdiynlarning bayozlarini o‘z ichiga olgan. 196-betgacha Payg‘ambarimiz sallolohu alayhi vasallamga bag‘ishlangan risolaga bag‘ishlangan. 196- betdan Fuzuliyning she‘rlari, Bedilning g‘azallari keltirilgan. 198-betda Ruboiylar bilan nihoyasiga yetgan.



Umuman olganda, Ogoh devoni o‘z davrida mashhur bo‘lgan, kitobxonlarning ko‘nglidan joy olgan devonlardan biri bo‘lgan. Bu kitobda berilgan ko‘plab janrlardan foydalanganlik shoirning nozik iste‘dod egasi va nuktafahm sohibi ekanligini yana bir karra ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. H. Sulaonov ma‘naviy boyligimiz Hindiston fondlarida Adabiy meros 1980. 2 (14)
2. Собрание восточных рукописей академии наук республики Узбекистан. –Тошкент: Наврўз. 2017. 560 б



МАКТАBLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI O‘TISHDA YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Obloqulov Abbos Muxtor o‘g‘li
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
41-son umumiy o‘rta talim maktabi
+998905012124

Annotatsiya: ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalar qo‘llash va ularning ahamiyati haqida bo‘lib, maqolada ba’zi metodlar tahlil etilgan.
Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, ta’lim, interaktiv metod, innovatsion texnologiya.

Hozirgi kunda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. bunday metodlarni qo‘llash ta’lim samaradorligi va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarning o‘qish motivlarini o‘stiradi. Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik yaratish, yangilikdir. demak, an’anaviy ta’limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta’limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi, ularningn ayrim asosiy belgilarini ko‘rib chiqamiz. Interfaol ta’lim usuli – har bir o.,qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. bunda har bir o.,quvchi o.,z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o‘zlashtiradi. Interfaol ta’lim texnologiyasi – har bir o‘qituvchi barcha o‘quvchilar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishni ta’minlaydi. bunda har bir o‘quvchi o‘z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi. Interaktiv usullarning barchasida ham o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati o‘rtasidagi hamkorlik, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faol harakatiko‘zda tutiladi. Masalan, biror bir mavzuni o‘rgatishda uni **modellashtirish** qismida o‘qituvchi o‘quvchilarga modelni namoyish qilish oldida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishi mumkin.

Ya’ni o‘quvchilar qo‘yilgan muammoni qanday tushunishlari va ko‘nikmani qanday egallashlari mumkinligi ulardan so‘ralib, ularning fkrleri umumlashtiriladi. bunda o‘quvchilar fkri mutlaqo tanqid qilinmaydi. **Amaliy boshqaruv** qismida o.,qituvchi “**Hamrohingga o‘rgat**” metodidan foydalanishi mumkin. bu metod darsni optimal tashkil etishga imkoniyat yaratib, o‘quvchilrning o‘z faoliyatini tanqidiy nazorat qilish va xatolarni bartaraf etishga o‘rgatadi. Tushunchalarni tekshirishda o‘qituvchi turli interaktiv metodlar (“Bumerang”, “Charxpalak”, “Aql charxi” va boshqalar)dan foydalanishi mumkin. Masalan, “charxpalak metodi”. O‘quvchilar guruhlariga bo‘linib, ularga topshiriqlar yozilgan varaqa tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqni bajarganlaridan keyin ularning ishlari guruhdagi boshqa o‘quvchilarga tarqatildi. Ular tegishli o‘zgartishlar kiritganlaridan keyin yana boshqa o‘quvchilarga beriladi va shu tarzda o‘quvchilarning har birining ishi guruhdagi barcha o‘quvchilar qo‘lidan o‘tadi va oxiri o‘ziga qaytadi. har birlari o‘zlari nuqtai nazaridan ishga o‘zgartirishlar kiritishlari mumkin. keyin o‘qituvchi to‘g‘ri javobni ko‘rsatadi. bu usulda o‘quvchilar ijodiy fkrlashga, o‘z fkrklarini erkin bayon etishga va o‘z kamchiliklarini bilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.“Aql charxi” usulida o‘quvchilarning mantiqiy fkrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutq ravonlashadi, tez va to‘g‘ri javob berish malakasi shakllanadi. Bu o‘yinda ikki yoki uchta o‘quvchidan iborat guruhchalar ishtirok etiladi. birinchi o‘quvchi mavzuga doir terminlardan birini aytadi. Ikkinchi o‘quvchi birinchi o‘quvchi aytgan termini qaytaradi vao‘zi ham bitta termin aytadi. Uchinchi o‘quvchi avvalgi ikkita termini qaytaradi va bitta termin qo‘shib aytadi. Yana birinchi o‘quvchiga navbat keladi, u ham avvalgi uchta termini qaytaradi va o‘zi bitta termin qo‘shib aytadi. Qaysi o‘quvchi adashib ketsa yoki aytilgan terminlardan qaytarib aytsa o‘yindan chiqadi. Shu tariqa o‘quvchilar guruhi davom etadi. bu o‘yinni tashkil etishda maqsad aniq bo‘lishi va o‘quvchilarning qaysi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga e’tibor qaratilishi muhim.Masalan: sport turlarini ayting: 1-o‘quvchi: futbol; 2-o‘quvchi: futbol– voleybol ; 3- o‘quvchi: futbol – voleybol – boks 4-o‘quvchi: : futbol – voleybol – boks–tennis; 5-o‘quvchi : futbol – voleybol – boks–



tennis – karate; 6-O‘quvchi: futbol – voleybol – boks–tennis – karate va boshqalar. O‘quvchi so‘zlarni ketma-ket aytishda xatoga yo‘l qo‘ysa o‘yindan chiqadi. Xuddi shu taxlitda “Sport turlari” va boshqa mavzularini o‘rganishda ham bu o‘yindan foydalanish mumkin. Ayniqsa bu o‘yin darslarni umumlashtirish va takrorlash darslarida qo‘l keladi. Jismoniy tarbiya darslari jarayonida o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. chunki motiv o‘quvchilarni ta‘lim jarayoniga qiziqtiradi, o‘quvchilarning darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interaktiv metodlar o‘qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Masalan, **“Baxtli tasodif” usuli.** “Baxtli tasodif” usuli orqali mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriqlarni nechog‘lik o‘rganilganligini aniqlash oson bo‘ladi. Buning uchun qog‘ozdan kartochkalar tayyorlanadi va har bir kartochkaga 2-3 tadan savollar qo‘yiladi, faqat bitta kartochkaga “Yutuq “5” baho” deb yoziladi. Shu yutuqli kartochka kimga tushsa “baxtli tasodif” sohibi hisoblanadi va bugungi darsda eng yuqori ballni oladi. Savolli kartochkalar olgan o‘quvchilar ham savollarga bergan javoblari asosida baholanadilar. Masalan, jismoniy tarbiya darsida “baxtli tasodif” o‘yini quyidagicha tashkil etilishi mumkin:

“Baxtli tasodif” o‘yini uchun tuzilgan kartochkalar: Baxtli tasodif – 1 Jismoniy tarbiya prinsiplari qaysilar? Jismoniy tarbiya sistemasining asosini nimalar tashkil qiladi? Baxtli tasodif – 2 Jismoniy tarbiyaning xarakterli belgilari? Voleybol qanday sport turi.? baxtli tasodif – 3 Jismoniy mashklar ta‘sirini aniqlaydigan omillar? basketbol qanday o‘ynaladi? baxtli tasodif – 4 Yutuq «5» baho. bunday usullar o‘quvchida bilimga ishtiyoq uyg‘otadi. O‘quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi. Xulosa qilib aytganda interaktiv usullar darsning qiziqarliligi va ta‘sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarni ta‘lim jarayonining faol subyektlariga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Д.Новиков «Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси» Ўқитувчи нашриёти 1975 й
2. П.Н. Казаков «футбол» Тошкент 1981. «Ўқитувчи» нашриёти



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDLANISHNING O'ZIGA XOS USULLARI

Ochilova Dilbar Samadovna,
Navoiy shahar 8-umumta'lim maktab
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

*Agar mendan "sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz,
farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman.
SH.M.Mirziyoyev*

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, AKT o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad - aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim - ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab «ko'nikmalar maktabi» bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi.

Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi - ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatleri ta'lim jarayoniga AKT'ni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. AKTdan foydalanilganda ta'limda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlar va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili va Rus tili darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, 1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovoqli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo'llanma bo'yicha ta'lim jarayonini differentsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Savodxonlikka o'qitish bo'yicha tematik rejalashtirishni ishlab chiqishda rejalashtirishga tegishli elektron mavzular va bo'limlarni kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ochilov M. Pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.
3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsiya texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2004.



ОРГАНИЗАЦИЯ ЗАНЯТИЙ РИСОВАНИЯ.УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС И ВИЗУАЛЬНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ

Одинаев Шомурод Шодиевич

Учитель изобразительного искусства и рисования
школа Но:30 Кызылтепинского района Навоийской области.

Основы методики преподавания любого предмета тройственны части: понятие, методическая система обучения и их последствия состоит из оценки. Различные формы организации образования в мире педагогической науки и практики есть. Каждый новый этап в развитии общества уникален для образования. При этом различают следующие формы обучения показаны: индивидуальный, индивидуально-групповой, класс-урок, лекция-семинар и внеклассная аудитория, вне школы и вне школы. Охват студентов, организация студенческой деятельности, коллектив и пропорции отдельных форм, степень самостоятельности и учебный процесс Есть три основных типа критериев, например характеристики лидерства делятся на:

1) физическое лицо; 2) аудитория; 3) лекция-семинар. Обучение рисованию в 8-9 классах. Возрастные особенности учащихся а также из жизненного и рабочего опыта они преследуют конкретную цель. Поэтому долг учителя

Он полон целей урока с учетом оптимальной структуры каждого урока следует попытаться найти подходящую структуру. Следующего урока Какое место его успех часто занимает среди уроков, извлеченных ранее знания и практические навыки студентов; зависит от объема и содержания объясняемых знаний. В этом случае учитель уровень мировоззрения студентов, учебник или научно-популярный и полагается на возможность самостоятельного изучения технической литературы.

Описывает различные типы уроков по педагогике и знания учителя. Анализируются различные формы этого. Например, уроки по следующим видам выделено:

- урок по изучению нового материала;
- уроки для укрепления знаний, навыков и компетенций;
- урок повторения-обобщения;

• смешанный или комбинированный курс. Самый распространенный тип уроков рисования - это смешанный или комбинированный курс. В этом случае учитель описывает тему а также практические работы студентов это важно. Обучение этих практиков закрепить знания, полученные из литературы и дома получать информацию, необходимую для выполнения своих обязанности помогает.



THE ROLE OF READING LESSONS IN THE FORMATION OF SPEECH IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Rakhimova Gulmekhra Bahridin kyzy,
An English teacher of the secondary school №37,
Navoi, Kyzyltepa

Annotation: This article discusses the role of reading in the development of speech in primary school students. The importance of speech development and aspects of the development of written and oral speech.

Keywords: Oral, written, multimedia, fairy tales, stories, books

One of the most important aspects of primary education is the development of students' oral speech. The development of students' speech is one of the most important aspects of preschool education. If children develop oral speech, it is especially cultural.

If developed, it will be an excellent light upon light. From the first days of admission to school, students will begin to work on oral and written speech. Speech aspects are taken into account in the process of reading and mother tongue lessons. In each subject, students' speech is taken into account, especially reading lessons are a key factor for speech development. Mother tongue and reading lessons are interrelated sciences. While reading lessons develop pronunciation and oral speech in students as they move through a variety of topics, important aspects of mother tongue science include the development of speech, written speech, and the formation of correct and error-free writing skills.

There are two types of speech: oral and written. Although they are inextricably linked, each has its own characteristics. In oral speech, sounds are perceived by the auditory organs when words are pronounced through speech. Therefore, in developing students' oral speech, we must first identify the causes of their speech deficiencies and find ways to overcome them. To speak beautifully, to be literate, to write correctly, to express their thoughts fluently and with a clear statement the student can successfully assimilate the knowledge. Everyone's speech is beautiful, perfect, their pronunciation is clear, fluent, their range of thinking is wide, and their comprehension is deep.

Through speech, human beings also express their inner feelings, and speech is not fully developed or formed in all people. Speech-conscious reading, teaching to speak and write, imparting age-appropriate knowledge of the language to students, increasing their vocabulary, increasing attention and interest in the speech of others, the book aims to awaken a love of reading.

Students need to work on words that are difficult to understand in reading lessons, do vocabulary work and write them in their notebooks, so that students can work on their speech, their speech will be enriched.

Speech is the process of speaking and its outcome. In fact, speech is one of the highest, most complex, spiritual tasks of man. In the process of human social work, it emerges as a means of communication between people. Man perceives objects and events in the external world through the senses and through speech. Word signaling, that is, speech, allows a person to perceive existence in general. Speech organs are the various parts of the human body that are involved in the production of speech sounds. Active speech organs include the tongue, lips, and soft palate, while passive speech organs include the teeth, hard palate, and nasal cavity. There are external and internal forms of speech, oral and written. External speech is primarily intended for communication purposes, so it is structured in a way that is understandable to the audience.

Learn the practical importance of melodic reading in the regulation of students' oral and written speech, in ensuring their balance, in determining the nature and specificity of the national language, in reflecting the laws of expression and pronunciation. It is necessary to follow the norms and criteria of literary language, to read, to find ways to improve reading methods and to put into practice the most convenient ones. The concept of literary language is a comprehensive, multifaceted phenomenon. In order to ensure the sustainable development of literary language, it is necessary to form and educate children's speech cultures from an early age. Primary school is the main mediator in upbringing and composition.

In connection with the implementation of language laws in education, the correct application of methods of teaching children to read - demonstration, ways to learn how to work with handouts - will be improved.

Consideration should be given to the specific development of students' cognitive activities, especially those related to their mental and physiological characteristics. It is necessary to pay attention to them, to be kind and always sweet. One of the main factors in achieving high results in primary school is to listen to the opinion of students, to pay attention to them, to encourage them.

References:

1. Methodical manuals for primary school
2. Primary education. 2007. Issue 9



TUWRA GÁP HÁM AVTOR GÁPIN BAYLANISTIRIWSHI FEYILLERDÍN QOLLANILIW ÓZGESHELIKLARI.

Rzamuratova Zlixa Quwatbaevna
Berdaq atındađı Qaraqalpaq Mámleketlik
Universiteti 2-kurs magistranti

Annotaciya. Bul maqalada qaraqalpaq tilinde tuwra gáp hám avtor gápın baylanıstırıwshı feyillerdín ózgeshelikleri ayırıqsha sóz etilgen.

Аннотация. В данной статье представить особенности глаголов, связывающих прямую речь и авторскую речь.

Annotation. The aim of the article is to present the peculiarities of the verbs which connect the direct speech and author's speech.

Gilt sózler: tuwra gáp, avtor gápi, kómekshi feyiller, kommunikativlik niyet, ózlestirilgen gáp.

Ключевые слова: прямая речь, авторская речь, вспомогательные глаголы, коммуникативное желание, косвенная речь.

Key words: direct speech, author's speech, auxiliary verbs, communicative willing, indirect speech.

Til – adamlar arasında qarım-qatnas jasaw, bir-biri menen baylanıs ornatıw imkanıyatın beretuđın eń tiykarǵı qural. Bunda biz sózler, sóz dizbekleri hám gápler arqalı óz pikirlerimizdi bayan etemiz hám bir-birimiz benen qarım-qatnas jasaymız. Kommunikativlik niyetimizdi ámelge asırıw procesinde tek ğana ózlerimizdín pikirimizdi bayanlamastan, ózgelerdín gáplerinen de paydalanamız. Basqanıń gápi hár túrli formada qollanıladı. Olardıń tiykarǵı tipleri 3 túrli: 1. Tuwra gáp; 2. Ortaq tuwra gáp; 3. Ózlestirilgen gáp.[1;294]. Demek, pikirimizdi bayanlawda basqanıń gápınen paydalansa, “tuwra gáp” hám “avtor gápi” dep atalatuđın terminlerge ayırıqsha diqqat awdarıwımız shárt. Yaǵnıy, óz pikirimizdi tastıyıqlaw yáki sáwbetlesimizge ele de túsiniklirek etip jetkerip beriw maqsetinde qollanılatuđın ózgeniń gápleri tuwra gáptiń wazıypasın atqarsa, sóylewshiniń gápi avtor gápi dep júritiledi.

Tuwra gápler qazaq tilinde “tól sóz”, qırǵız tilinde “tike sóz”, ózbek tilinde “kóchirma gap”, uyǵır tilinde “kóchirmá gap”, túrkmen tilinde “bashganıń sózu” dep ataladı.[2;235] Bul eki birlik ortasında tıǵız baylanıs bolıp, olardı bir-birinen ajratıp qaraw múmkin emes.

Basqa gápli konstrukciyalardıń bul eki komponenti sóylewshı yáki jazıwshınıń aldına qoyǵan maqsetine baylanıslı hár túrli orınlarda qollanılıwı múmkin. Yaǵnıy, tuwra gáp avtor gápınen aldın yáki keyin, ayırım jaǵdaylarda avtor gápiniń ortasında da qollanılıw jaǵdayları ushırasadı. Bizińshe, házirgi qaraqalpaq ádebiy tilindegi basqa gápli konstrukciyalarda kóbinese, tuwra gáptiń avtor gápınen aldın qollanılıw jaǵdayları ushırasadı. Lekin, jaylasıw ornı jaǵınan qaysı orında qollanılgan bolıwına qaramastan olar bir-biri menen tıǵız baylanıslı. Avtor gápın tuwra gápten ajratıp alsaq, gáptiń mazmunı tolıq saqlanbay qaladı. Tuwra gáp qanday mazmunda, qanday qurılısta bolıwına qaramastan avtor gápi menen baylanısta boladı.

Avtor gápiniń tuwra gáp penen baylanıswında feyiller áhmiyetli orın tutadı. Álbette, avtor gápinde halat feyilleri, ótken máhálde, imá-isharanı, hár túrli sezimlerdi ańlatıwshı feyiller qollanıladı.

Bunda tuwra gáp penen avtor gápın baylanıstırıwda –**de** feyili áhmiyetli orın iyeleydi. –**de** feyili tek ğana tuwra gáp hám avtor gápın baylanıstırıp qoymastan tuwra gápti basqa gáplerden shegaralap ajratıp turadı.

Al, endi balalarım, –**dep** juwmaqladı sózin – Sizlerdín maǵan hám anańızǵa bolǵan xızmetlerińizdi kórip, Madinadaǵı sol jigittiń biziń babalarımızǵa shatası joq pa eken degen oy keledi.

“...Dostoevsky “Quranǵa eliklew”den soń Pushkindi musılman emes dewge bolama?” –**dep** tańlangan. (T.Qayıpbergenov “Qálbimniń qamısı”)

Bunda –**dep** feyili tuwra gápti avtor gápi menen baylanıstırıp kelip, basqanıń gápi qaysı waqıt hám qanday jaǵdayda ayılǵanlıǵın bildirip tur.

–**de** kómekshi feyiliniń **degen, degen eken, deпти, deytuđın edi** sıyaqlı formaları tuwra gáptiń **ótken máhálde** ayılǵanlıǵın bildiredi.

1. Biziń xalıqta: “Qartayǵan adamlar-aqıllı balalar” **degen**-ám danalıq bar. 2. “Qorqıp jasaǵan jaqsı, biraq kimnen hám neden qorqıwdı biliw kerek” – **deydi** babalar. 3. Bir jola ullı Baxawaddin Naqshband bılay **degen eken**: “Jazabattıń ibtidasında (Báhárdiń baslarında) Mizdakhan mazarında bir keshe Muhammed Zaxid ismli dárwish penen otırǵan edim...”



(Т.Қайыпберенов “Қалбимни қамуси”) 4. “Мен жақинлаганимда арқанин уши қашип кете бери” **деген екен** баяғида бузав қуwiп јурген бир келиншек. (М.Низанов “Муҳаббат қосиғи”)

Булardan басқа да -де феyилини **desti, desedi, desip** сыйақли формалари туwра гáптин **birneshe adamlar tárepinen** айтылганлиғин билдирip қолланилади. Мисали: Birneshe adam “Janın ólimge tigtetuғın aqmaq bar ma házir Áne, aqmaq ólip atır”-**desti** avtobustaғı adamlar.

Sonda olar bir adamday dawis penen “Jamanlaғan soń bir jer bolmasa bir jerinen iletuғın bolıwımız kerek-dá”-**desti**. (Т.Қайыпберенов “Қалбимни қамуси”)

Geyde tuwra gápte, avtor gápi de bir bet tárepinen, yaғniy bir adam tárepinen aytılwı múmkin. Bul avtorđın aldın óziniń aytqan gápin qaytalaғan jaғdayında yamasa sóylewshiniń emocional-ekspressiv sezimlerin bildirgende, sóylewshi óz kommunikativ niyetine baylanisli qollanadı.

Máselen: 1.-Bul ásir saғan jáne ne berdi?-**dedim**. 2.-Zorға-zorға umıtıp úlgergen dástúrler qayta tiklense, alға ketiw me?-**dedim**. 3. “...sizlerdi pútkil álemnen biráz dárejede bólip taslaptı-ǵoy, nege olay?”-**deymen ózimshe**. (Т.Қайыпберенов “Қалбимни қамуси”)

Sonıń menen birge, tuwra gáp hám avtor gápin baylanıstırıwda emocional-ekspressiv sezimlerde ańlatıwshı feyiller de ayrıqsha áhmiyetke iye. Bul feyiller túrli qarım-qatnas tásirini nátiyjesinde gáp mazmunında insannıń ruwxıy halatın ańlatadı. Quwanıw, ókpelew, baqırıw, qıshqırıw sыйaқli feyiller arqalı adamnıń túrli halatların bildiredi. Insannıń ruwxıy halatın ańlatıwda quwanıw sezimin ańlatıwshı tómendegi misallardı keltirip ótsek: 1. -Onda kimdi aytayıq? –

dedi Shazada **kúlip**. 2.-Áy, ermek qılmasa,-**dedi** ol da **ırjıyıp**. (М.Низанов “Hawa kemesindegi ekew”) 3.“Tebetuғın traktori bar edi-buniń **dep dálkekeydi** jengeleri... Qoyshı, mina shayıńnıń sortı pás eken, úyge barıp ózim demlep ishemen,-dep turıp ketedi. (М.Низанов “Aqshagúl”).

Kewli túsip, qapa bolıw, ashıwlanıw mánilerin bildiriwshı feyiller de jiyi qollanıladı: 1. Bawırsaқ kómeklerde “men kepkir uslamadım” **dep ókpeleydi**. 2. Nurjan údemey qaldı. “Kewline tiyip aldım-aw” **dep qolaysızlandı**. (М.Низанов “Aqshagúl”). 3. -Apam qaytsın dep atır!-**dedim** ájapama **qıshqırıp**. 4.-Ótirikshi eken! – **dedim** men birazdan keyin **bultıyıp**. (М.Низанов “Hawa kemesindegi ekew”)

Insannıń hár túrli sezimlerin, atap aytqanda, qayǵırıw, táselle beriw, maqtanıw mánilerin ańlatıwshı feyiller sıpatında: 1. Gazetada házil shıqqan kúni baslıq shaqırdı. “Taǵı qayeri jaqpay qaldı eken” **dep** ayaq-qolım **dirildep**, áste esigin ashtım. 2. “Duz-nesip” **dep táselle aytadı** ata-anası. “Soń bir-birińizdi jaqsı kórip ketesiz” **dep aldarqatadı** jengeleri. 3. Bizin awıl jolǵa alıs-aw-**dedim nazırqanıp** (М.Низанов “Муҳаббат қосиғи”) “Et-etke, sorpa betke” **dep mardıyıp qoyadı** ata-anası sonda. 4. Keshir meni, kóz ashıp kórgen qostarım – **dep egitildi** ishinen. (М.Низанов “Aqshagúl”).

Ulıwmalastırıp aytqanda, tuwra gáp hám avtor gápi bir-biri menen kórinbes jipler arqalı baylanisip qollanılatuғın birlikler. Olardı bir-birinen ajratıp qollana almaymız. Olardı bir-biri menen baylanıstırıwshı feyiller basqa gápli konstrukciyalardı úyreniwde úlken áhmiyetke iye. Bunda feyillerdin hár túrli formada hám hár túrli mazmunda qollanılganlıғın kóriwimiz múmkin. Biz kórip ótken misallarda da ruwxıy halattı, ótken máhaldı, birneshe adamǵa tiyisli pikirdi yaќi tuwra gáp hám avtor gápinin bir betke tiyisliлигин ańlatıwshı hár qıylı feyillerdin qollanılganlıғın kórip shıqtıq.

Tuwra gáp hám avtor gápin baylanıstırıwshı feyillerdin basqa da ózgeshelikleri, bul konstrukciyanıń qospa gápler menen qatnası, olardıń dialog, monolog, naqıl-maqallarda qollanıw jaғdayları da ayrıqsha áhmiyetke iye. Bul aktual máselelerdin barlıǵı házirgi qaraqalpaq ádebiy tilinde ele de tereñirek úyreniwdi talap etedi.

Ádebiyatlar:

1. Хозирги ўзбек адабий тили Синтаксис. Тошкент «Ўқитувчи», 1965
2. Нурмаханова Ө. Турки тилдериниң салыстырмалы грамматикасы. Алматы. «Мектеп баспасы». 1971.
3. Махмудов Н., Nurmanov А. О‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent., «Ўқитувчи», 1995.
4. Házirgi qaraqalpaq tili. Sintaksis. Nókis., 1996.
5. Қайыпберенов Т. Қалбимниң қамусы. Нөкис. «Bilim», 2008.
6. Нызанов М. Жауа кемесиндеги екеу. Ақшағұл. Зийуар. Нөкис. «Qaraqalpaqstan», 2014.
7. Нызанов М. Таңламалы шығармалары VII том. Муҳаббат қосығы. Нөкис. «Bilim», 2018.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVODXONLIKNI OSHIRISH

Safoyev Mahkam Yo‘ldoshevich
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
28-sonli umumta‘lim maktabi
boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning yozish, eshitish va amallarni bajarish qobiliyatlarini yanada oshirish bo‘yicha fikrlar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: elementlar, harflar, sonorlar, tovush yozuvi.

Maktabda o‘qitish elementar o‘qish va yozishga o‘rgatishdan boshlanadi. “Alifbe”ga asoslangan holda qisqa muddatda o‘quvchilar o‘qish, yozishga o‘rgatiladi, so‘ng o‘qish va yozish ko‘nikmasi takomillashtiriladi, bora-bora malakaga aylantiriladi.

O‘qish va yozish malakasi nutqqa oid malaka. O‘qish va yozish malakasi nutq faoliyatining boshqa turlari bilan ham bog‘liq. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha marta takrorlanishi mumkin.

O‘zbek tili yozuvi - tovush yozuvi. Yozuvda o‘quvchi tovushni harfga, o‘qishda esa harfni tovushga aylantirishdek murakkab aqliy faoliyatni bajaradi. Bu faoliyat doimiy ravishda yuz berishini nazarda tutib, o‘qish va yozish parallel olib boriladi. O‘zbek tili yozuvi - fonematik yozuv. O‘zbek tili yozuvi uchun 1993-yil lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har tovushi uchun yozuv unga mos shakl qabul qilindi.

O‘qituvchi savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga tovushlar haqida ma‘lumot berishda o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Savod o‘rgatish analitik-sintetik tovush metodida olib boriladi. So‘z bo‘g‘inga ajratiladi, bo‘g‘indan kerakli - o‘rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o‘rganilgan harf bilan sintezlanadi.

Hozirgi o‘zbek tili unililar sistemasi: a) o, u, o‘, e, i, a. Savod o‘rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish unililardan boshlanadi. E - harfi so‘z va bo‘g‘in boshida o‘rta keng lablanmagan unli o‘rnida va undoshdan keyin yoziladi: Savod o‘rgatishda oldin so‘z boshida keladigan e, so‘ng undoshdan keyin keladigan e o‘rgatiladi. O harfi o‘zbekcha, umumturkiy so‘zlarda quyi keng, lablangan o tovushini ifodalaydi. Ruscha - internatsional so‘zlarda urg‘usiz bo‘g‘inda a tarzida (kalxoz), o‘ tovushi kabi (to‘nna), qisqa i tarzida (rektir) talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unilili so‘zlar savod o‘rgatish davridan so‘ng o‘quv jarayoniga kiritiladi.

O‘zbek tilida 24 undosh tovush bor. SHulardan 3 tasi harf birikmasi. 24 undosh tovush 23 undosh harf bilan belgilanadi. Undoshlarni o‘rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslanadi.

Alifbo davri sonor - ovozli (ovozdor) tovushlarni o‘rgatishdan boshlanadi. Lekin ng sonor undoshi n va g undoshi tovush harfi bilan tanishtirilgach o‘rgatiladi. Harf birikmalarini o‘rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda ular alifbe davrining oxirrog‘ida o‘rganiladi. J harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi. Savod o‘rgatish jarayonidayoq harfning 4 xil varianti (bosma, yozma, bosh va kichik)ning ishlatilishi o‘rgatiladi. O‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatish bo‘g‘in asosida olib boriladi. U kichik yoshdagi o‘quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» G‘.G‘. Oliy ta‘lim (me‘yoriy huquqiy va uslubiy xujjatlar to‘plami). - Toshkent: 2004.



ОНА ТИЛИ ТА’ЛИМИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН FOYDALANISH.

Sattarova Baxriniso Abduhamidovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 2-umumiy oʻrta taʼlim maktabi

Ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi

Meliyeva Lobar Murtozayevna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 2-umumiy oʻrta taʼlim maktabi

Ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi

Annotatsiya. Taʼlimdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yoʻllarini oʻrgatish, ularni taʼlim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir.

Kalit soʻzlar. “Nutq tovushlarining siri”, “Soʻz harfidan soʻz yasang”, “Tinish belgilari musobaqasi”, “Soʻzshunoslar anjumani”, “Zakovat” darslari, tasnif, ibora va tasviriy ifoda, gap, soʻz, Nutqiy faoliyat, ijtimoiy, iqtisodiy.

I. A. Karimov Respublika Oliy Majlisi IX sessiyasida soʻzlagan nutqlarida jamiyatimizning yangilanishi, taraqqiyoti va istiqiboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz samarasi - zamon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bogʻliqligini qayd etadi. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda ona tilini oʻqitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish talaba faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi. Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining oʻz oʻrni, oʻz vazifasi bor. Yoshlar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega boʻlishlari, oʻz fikrini aniq ifodalashga, zarur boʻlgan soʻz va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qoʻllay bilishlari davr talabidir. Buning uchun ona tili oʻqituvchisi oʻz ixtisosligini puxta bilishi, ilgʻor pedagogik texnologiya hamda zamonaviy oʻquv-texnik vositalaridan yaxshi xabardor boʻlishi lozim. Shundagina taʼlim samarasi ham, oʻqitish darajasi ham yuqori boʻladi. Ona tilidan dars beruvchi oʻqituvchi haqiqiy ijodkor boʻlishi, taʼlim jarayonida oʻquvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yoʻnaltirilgan faoliyatini ragʻbatlantirishi, oʻz fikri, gʻoyalarini oʻzgalarga yetkaza bilish koʻnikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Shuningdek, u yoshlarning axloqiy-maʼnaviy tarbiyasi bilan shugʻullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy anʼanalimizga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuygʻusi kabi zaruriy xislatlarni singdira bilishi lozim. Oʻquv mashgʻulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, oʻquvchilarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni kunda oʻqituvchilik faoliyatining bosh mezonini deb qaralmoqda. Ona tili taʼlimida musobaqa darslarini oʻtkazishdan maqsad oʻquvchining til darsida olgan bilimlarini sinab koʻrish, oʻzaro munozara — muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana bilish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqib olish malakasini baholashdan iboratdir. Musobaqa darslari oʻquvchilarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy mushohada yuritishga odatlantiradi, zarur va foydali koʻnikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Samarali dars shakllaridan biri boʻlgan musobaqa darsi til mashgʻulotlarining qiziqarli oʻtishi va oʻquvchilarning faol ishtirokini taʼminlovchi vositadir. Musobaqa darslari uchun mavzular: “Nutq tovushlarining siri”, “Soʻz harfidan soʻz yasang”, “Tinish belgilari musobaqasi”, “Soʻzshunoslar anjumani”, “Zakovat” darslari... v.h. Bahs-munozara darslari musobaqa darslarida yechib ulgurilmagan, biror toʻxtamga kelinmagan masalalarni oydinlashtirish, toʻgʻri, aniq hukm va muxtasar xulosalar chiqarish bilan farqlanadi. Bahs-munozara oʻquvchilardan hushyorlikni talab etadi. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning toʻgʻri yoki notoʻgʻriligi haqida oʻylashga va oʻz fikrini mantiqiy va izchil isbotlashga oʻrgatadi. Oʻzaro tortishuv va bahs oqibatida eng toʻgʻri va maʼqul yechimga kelinadi. Oʻquvchi bahs-munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinglaydi, oʻz “men”ini anglab yetadi, oʻz dunyoqarashi, ilmiy-ijodiy tafakkuri koʻlami, haq yoki nohaq ekanligi toʻgʻrisida, oʻzi mustaqil xulosa chiqaradi. Oʻz fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalarni ishga solish, ijodiy fikrlash, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishga oʻrgatadi. Bahs-munozara darsini samarali oʻtkazish uchun oʻquvchilar muhokama qilinadigan matn yoki mavzu boʻyicha keng tushunchaga ega boʻlishlari, uni yaxshi oʻqib, oʻrganib chiqqan boʻlishlari darkor. Mazkur darslarda, oʻquvchi — ishlovchi, fikrlovchi, izlanuvchidan tashqari, nazorat qiluvchi vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun oʻqituvchi oʻquvchilardan bahs — munozara darsining



quyidagi talablarini benuqson bajarishini talab qilishi lozim: — bahs-suhbatda faol ishtirok etish; — soʻzlovchi fikrini diqqat bilan tinglash; — oʻz fikrini shoshmasdan, batafsil ifodalash; — munozara davomida suhbatdoshiga nisbatan hurmat saqlash; — nutq odobi va madaniyatiga rioya qilish; — mavzudan chetga chiqmaslik; — oʻz fikrini isbotlashda aniq, ishonarli dalillar topish; — bahslashayotganlarning haq ekanligi bilinsa, uni tan ola bilish... v.h. Bahs-munozara darslari tavsiya qilinayotgan talablar asosida tashkil qilinsa, dars samarasi oshadi, talabada nutqiy madaniyat shakllanadi. Ona tili metodikasida ilgʻor pedagogik texnologiyaga asoslangan dars turlari til taʼlimi samaradorligini oshiribgina qolmay, uning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Dars mashgʻulotlarini rang-barang zamonaviy texnik vositalar ishtirokida tashkil qila olgan oʻqituvchi qisqa vaqtda oʻquvchilarning egallagan bilimi, doʻstlariga munosabati, muomala madaniyati, fikr doirasi, soʻz boyligi, nutqiy salohiyati haqida aniq tasavvurga ega boʻladi. Ilgʻor texnologiyaga asoslangan darslar oʻquvchi va oʻqituvchi oʻrtasida teng, doʻstona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. Oʻquvchi darsda oʻzini erkin his qiladi, mashgʻulotlarga qiziqishi, soʻz sanʼati bilan shugʻullanishga, ijodga ragʻbati ortadi. Ilgʻor metodist oʻqituvchilarimiz dars samaradorligini oshirishning yangi-yangi vasitalarini oʻylab topmoqdalar. Ularni zamonaviy oʻquv texnika vositalariga tayanib, dars jarayoniga tatbiq etish usullarini ishlab chiqmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Ziyodova T.U. “Ona tilidan rangli proyeksion slaydlar komplekti” 1- qism. — Samarqand, 2001.
2. Mahmudov N., Nurmonov A., Ahmedov A., Solixoʻjayeva. “Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi”. — T.: “Fan”, 1992.
3. www.ziyouz.com



ТА'ЛИМ USLUBLARI HAQIDA TUSHUNCHA.

Sheraliyeva Farida Muxammadurovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarbiya fani o'qituvchisi

O'roqboyeva Sevara Xolmirzayevna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ta'lim jarayonida o'quvchilar muayyan bilimlar, ko'nikma va malakalarni egallaydilar, o'quv materialining bitta mazmunini o'zi ta'limning turli vositalari yordamida, turli usullari bilan o'zlashtirilishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi oldida muvaffaqiyatliroq va samaraliroq o'qitish va o'qishga yordam beradigan yo'llarni tanlash mas'uliyati turadi.

Kalit so'zlar. Tafakkur, diqqat, xotira, malaka, ko'nikma, anatomik-fiziologik xususiyatlar, abstrakt formalari, uslub, Ta'lim, metod.

O‘quvchilarga bilim berishda samarali qo‘llansa bo‘ladigan interfaol uslublar, didaktik o‘yinlar, o‘quvchilarga mos metodlar, ta‘limiy mashqlardan kiritilgan. Bu o‘yin mashqlaridan darslarda ta‘limiy musobaqa tarzida ham foydalansa bo‘ladi va ular 25-35 o‘quvchiga mo‘ljallangan. Bevosita, o‘zim ish faoliyatimda yaratgan innovatsion g‘oyalardan ham namunalar keltirganman. O‘quvchilarga darslarda singdirilgan kompetensiyaviy yondashuvlar, ular hayotida, albatta, asqotadi degan umiddaman. Xullas, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bilim sifatini oshirishda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim sifat samaradorligini oshirishda bu maqola yaxshi xizmat qila oladi, deb o‘ylayman. Zero, bugungi kunda o‘qituvchining qilayotgan mehnati, albatta, ertaga o‘z samarasini beradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonuni va “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ” yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo‘nalishlarini belgilab berdi. “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ” da ta‘limni tubdan isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib berildi. Unda “ Uzluksiz ta‘lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma‘naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratadi ”, deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, dasturda : “ Ta‘lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv – uslubiy majmualarini yaratish va o‘quv – tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta‘minlash ” umumiy o‘rta ta‘limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi. Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogic texnologiyalar ta‘lim jarayonining unumdorligini oshiradi. Bugungi davr axborot uzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog‘idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi. Multimedialardan va animatsiyalardan keng foydalanish o‘quvchilarni darslarga bo‘lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi.

O‘quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko‘lamida puxta singdirib borishimiz kerak. Bunda biz o‘qitishda yangi pedtexnologiyalardan, innovatsion g‘oyalardan, interfaol uslublar va kreativ yondashuvlardan o‘rinli ravishda o‘z vaqtida foydalana bilishimiz lozim. O‘quvchilar biz yaratgan innovatsiyalar orqali yetarli bilim egallaydi, deb o‘ylayman. Men o‘z ish faoliyatim davomida ko‘pgina innovatsion g‘oyalardan, turli xil didaktik o‘yin mashqlardan keng ko‘lamda foydalanaman. Oddiygina yaratgan o‘yin mashqimiz ham o‘quvchi uchun juda qiziqarli va esda qolarli bo‘ladi. Men o‘qish darslarida ayniqsa, “Yosh aktyorlar”, “Quvnoq quyunchalar”, “Bu meniki”, “Charxpalak”, “Zanjir”, “Davom ettir”, “Maqollar zanjiri”, “Sinkveyn” metodi, “Venn diagrammasi”, “Zig-zag” texnologiyasi, “Topib o‘qi” kabi usul va ta‘limiy mashqlardan ko‘p foydalanaman. Bu albatta, ko‘pincha kreativ fikrlashdan kelib chiqadi.

Matematika darslarini o‘quvchilar juda yaxshi ko‘radilar. Bu darsga men juda puxta tayyorgarlik ko‘raman. Chunki o‘quvchilar bilimi juda yaxshi, shuning uchun ular mendan yangi narsalar so‘raydilar, mantiqiy mashqlar berishni iltimos qiladilar. Bunda men ko‘pincha “Kim birinchi”, “Mohir hisobchi”, “Atamani top”, “Tez javob”, “Mo‘jizalar maydoni”, “Baliqchalar tutish”, “O‘zim tekshiraman”, “BBB”, “Ortiqchasini top” kabi metod va o‘yin usullaridan juda ko‘p foydalanaman. Bularni davom ettirsak juda ko‘p, bu o‘qituvchining dars o‘tish nahoratiga bog‘liq.

Ona tili darslarida esa “Qoidani top”, “Karvon”, “Quruvchilar”, “Kim zukko, kim tezkor”, “Noto‘g‘ri jumla”, “Hikoya”, “Boshqotirma”, “Tushunchalar tahlili”, “So‘z ichida so‘z”, “Quvnoq alifbo”, “Rasmi diktant”, “Boshqotirma”, “Ha yoki yo‘q”, “So‘z yozish”, “Baliq skleti” kabi didaktik o‘yin va ta‘limiy mashqlarlardan keng foydalanaman. Biz boshlang‘ich



sinf o‘quvchilariga, albatta, biror yangiliklar yaratib bilim berib borsak, natijasi yaxshi bo‘ladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati doirasida aniq belgilanadi. Bu ta’limni tashkil etishning aniq texnologiyasini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish, ta’lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning vazifasiga aylandi. O‘quvchilar buni juda qiziqib bajaradilar va ularning yodida mavzu uzoq saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o‘yinlar, interfaol uslublar, ta’limiy mashqlar, yangi-yangi metodlar barchasi o‘quvchini yangi mavzuni puxta o‘zlashtirishga va ta’lim sifatini oshishiga xizmat qiladi. Biz pedagog muallimlarning ham maqsadimiz shudir. O‘quvchilar qanchalik kreativ fikrlab, mustaqil bajara olsalar biz maqsadga erishgan bo‘lamiz. O‘quv jarayonida motivatsiyadan foydalanish va rag‘batlar berish ham, albatta, innovatsion yondashuvda juda qo‘l keladi. Har bir o‘qituvchi darslarga innovatsion yondashib, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o‘tsa bu o‘z natijasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2018-yil, 9-son, 8-bet.
2. “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, T.G‘afforova, Toshkent-2016.
3. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2017-yil, 7-soni, 20-bet.
4. “Mahoratli pedagog” jurnali, 2019-yil, 5-son, 26-bet.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PIRLS TADQIQOTLARINING AHAMIYATI

Abdiraxmonova Feruza Qahramonovna

Navoiy viloyati Nurota tumani
22-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilimini baholashda xalqaro tajribalardan foydalanib, 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishga qaratilgan PIRLS dasturining xususiyatlari ochib berilgan.

Tayanch tushunchalar: xalqaro baholash dasturi, PISA, PIRLS, TALIS, TIMSS, ilmiy-tadqiqot muassasalari, xalqaro tadqiqot, o‘qish savodxonligi.

*“Yangi O‘zbekiston–maktab ostonasidan,
ta‘lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”.*
Sh. Mirziyoyev.

Bugungi kunda O‘zbekistonni jahonga yuz tutishida va barcha sohalar bo‘yicha rivojlanishida oldinda borayotgan davlatlar bilan raqobatbardosh bo‘la olishidagi asosiy talab - yoshlarga berilayotgan bilimning sifati bilan belgilanmoqda. Bugungi mamlakatimizda ta‘lim sifatini baholashda yangicha monitoring qilish xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanmoqda. Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta‘lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

- O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish yo‘llari atroflicha belgilab berildi. Jumladan, unda mamlakatimizning 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) -o‘quvchilarning ta‘lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur reytingida jahonning 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, kelgusida mamlakatimiz ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha quyidagi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi ko‘zda tutildi:

- PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) - boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matni o‘qish va tushunish darajasini baholash;

- TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) - 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

- PISA (The Programme for International Student Assessment) - 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

- TALIS (The Teaching and Learning International Survey) - umumiy o‘rta ta‘lim maktablari rahbarlari va o‘qituvchilari bilan so‘rovnomma o‘tkazish orqali maktabda o‘qitish va ta‘lim olish jarayonlari samaradorligini baholash.

PIRLS - boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matni o‘qish va tushunish darajasini baholash ta‘rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma‘no hosil qila olish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matni o‘qish va tushunish darajasini baholashga asoslangan ta‘lim tarbiya jarayonida dars maqsadlari o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatiga asoslangan holda belgilanadi, bu esa ta‘lim-tarbiya jarayonida yuqori natijaga erishishni kafolatlaydi, o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi va o‘quv harakatlarini aniq baholash imkoniyatini yaratadi.

XXI asrga xos xalqaro baholash dasturlari asosida o‘quvchilar bilimini baholash, o‘qitish va ta‘lim olishning zamonaviy usullaridan maqsadli foydalangan holda ularni yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarini ta‘minlashga xizmat qiladi. O‘quvchilarni fikrlash chegarasidan tashqariga chiqishga, ijodiy, samarali va odobli fikrlashga undaydi. Binobarin, mazkur muammolarning har birini qamrab oluvchi mavzular, ko‘rsatmalar, sinf xona muhiti, baholash



mexanizmi va texnik qo'llanmalardan foydalanish kabi masalalarda turli xil yondashuvlarga asoslanilgan holda kafolatlangan natijani ta'minlash, ko'zlangan maqsadga erishishni nazarda tutadi.

O'quvchilar bilimni baholashda PIRLS tadqiqotlarining topshiriqlaridan foydalanish (-Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash metodik qo'llanmasi) va unda belgilangan baholash mezonlariga amal qilish ularda:

- o'qish savodxonligining maqsadiga erishishda badiiy tajriba orttirish va axborot olish va undan foydalanish;
- ko'p qirrali, murakkab vazifalarni amalga oshirishga o'rganish; -har bir muammo xususida chuqur fikrlash va o'z bilimni oshirib borishni boshqara olish;
- o'z tengdoshlari, o'qituvchilar va mutaxassislar bilan chuqur mulohazani talab etuvchi muhim vazifalarni bajarishda hamkorlik qila olish;
- qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish va yangi fikrlar yaratishda texnologiyalardan foydalana olish kabi kompetensiyalarni shakllanishiga ko'maklashadi.

Matnni tushunish jarayonida quyidagilarga erishiladi:

Matnni o'qish asosida diqqatni jamlash va aniq ma'lumotlarni to'plash;

Xulosa chiqara olish;

G'oya va axborotlarni tahlil qilish va uyg'unlashtirish;

Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish kabilar.

Natijada o'quvchilarda: matnni to'liq tushunish, matn elementlarini baholash, g'oyalar va axborotlarni tahlil qilish, muloqot qilish, ijodiylik va qiziquvchanlik, tanqidiy fikrlash va tizimli fikrlash, axborot va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, shaxslararo va hamkorlik, muammolarni aniqlash, shaklga solish va yechimini topish, o'z-o'zini yo'naltirish, ijtimoiy mas'uliyat kabi hayotiy ko'nikmalar shakllana boradi. Boshlang'ich ta'limda o'qish fani o'z oldiga bir qator maqsadlarni qo'yadi. Unda ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligi ko'zda tutiladi.

O'quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va qusur haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa o'quvchilar og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojida muhim omil vazifasini ado etadi.

O'quvchilar turli davr va mamlakatlarda yaratilgan, turlicha dunyoqarash va e'tiqodlarni aks ettirgan, badiiy asarlarning eng yuksak namunalari bilan tanishib boradilar. Shular asosida ularda olam va odamlarning rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning, butun bashariyatning bir butunligi haqidagi tasavvur va qarashlari shakllanib, kengayib, mustahkamlanib boradi. Eng muhimi, u olam va odamga tegishli bo'lgan barcha hodisalarga emosional (hissiy) munosabat bildiradi oladigan darajaga ko'tariladi, qarashlar, dunyoqarashlar, nuqtai nazarlar xilma-xilligini kuzatish imkoniga ega bo'ladi.

O'qish fani bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining majburiy ta'lim bitiruvchilari PIRLS asosida: o'qish fanining estetik, tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyati, so'zning ifoda imkoniyatlari, so'z orqali inson his tuyg'ulari hamda tabiat manzaralarining tasvirlanishi, xalq og'zaki ijodi, bolalar adabiyoti, o'zbek va jahon bolalar adabiyoti namunalari, adabiy tur va janrlar haqida umumiy bilimga ega bo'lish; o'rganilgan asarlarga mustaqil ravishda baho berish; o'rganilgan adabiy-nazariy tushunchalarning qo'llanilishiga doir test topshiriqlarini bajarish; turli manbalar (darslik va o'quv qo'llanmalar, lug'at, bolalar adabiyotlari)dan foydalanib, adabiy mazmundagi axborotlarni izlash va foydalanish; o'rganilgan xalq og'zaki ijodi, bolalar adabiyoti, jahon bolalar adabiyoti namunalaridan tegishli xulosalar chiqarish, ibrat olish, yaxshi insoniy fazilatlarni o'ziga singdirish, o'rganilgan maqol, she'riy satrlar va boshqa badiiy asarlardan kundalik og'zaki so'zlashuvlarda o'rinli foydalanish, asar va uning qahramonlariga yozma va og'zaki tavsif berish, badiiy ijod namunalari (nasriy, she'riy)ni ifodali o'qish, ularning mazmunini tushunish, anglash va idrok etish. Badiiy matn yoki uning parchasini ifodali yod aytish, qayta hikoyalash, o'zgalarga tushuntirib berish, munosabat bildirish va baholay olish, og'zaki va yozma nutqni boyitish, rivojlantirish, tushunarli va ravon, og'zaki hamda yozma nutqqa ega bo'lish; o'quvchilarga adabiy ta'lim (o'qish) adabiy o'qishlar tarzida o'rgatiladi. Bolaning o'qish texnikasini egallashi uchun, avvalo, uning savodxonlik darajasi shakllantiriladi, og'zaki va yozma nutqi rivojlantiriladi, tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etish o'rgatiladi. Dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o'qitilib, o'quvchidagi



ko'nikma, malaka aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich – o'qish tezligi, ya'ni bir daqiqada nechta so'zni ravon o'qiy olishi belgilanadi. Bolaning matn mazmunini to'liq uqib olishi, qayta hikoyalashi, shuningdek, o'zgaralar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtiroki ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqiyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2020-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 5ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi“ 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi“ 2019-yil 29-aprelda PF-5217 sonli Farmoni.

4. A.B.Panjiyev, A.A.Ismoilov, J.R. Narziyev, X.P. Ahmedov, G.O. Tog'ayeva. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi.(qo'llanma)-T.:2019.

5. www.edu.uz



ТА’ЛИМ ЖАРAYONIDA ILG’OR PEDAGOGIK VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Gulnora Xalilovna

Navoiy viloyati Karmana tumani
13- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash umumiy o‘rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Didaktik o‘yinlar, interfaol metodlar.

Didaktik o‘yinlar: Boshlang‘ich ta’limda didaktik o‘yinlar vositasida darslarni olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko‘mak beradi.

Yangi dars boshlanishida yoki o‘tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o‘yinlardan foydalanib, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Boshlang‘ich ta’limda didaktik o‘yinlarning ahamiyati beqiyosdir. O‘yin boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida, ma’lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar - o‘qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan usuldir. O‘yin vositasida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatdabo‘lishga o‘rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi.

Quyidagi didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayoniga qiziqishini yanada oshiradi:

- “O‘zim tekshiraman”;
- ”Topag‘on”;
- “Bo‘lishi mumkin emas”;
- “Doiraviy misollar”;
- “Davom ettir”;
- ”Safar”;
- ”Sirlison”;
- ”Zanjir”;
- “O‘yin topishmoq”;
- ”Tezjavob”;
- ”Rebus”;
- ”Quruvchi”;
- ”Nimayo‘qolibqoldi?”;
- ”Kunvatun”;
- “Qarmoq” va boshq.

Interfaol metodlar: Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir.

“Zinama-zina”: Maqsad: ushbu o‘yinni o‘tkazishdan maqsad o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish. Qo‘llanishi: “Zinama-zina” o‘yini o‘tkazish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarni rangli kartochkalar yordamida teng sonli kichik guruhlariga ajratadi. Har bir kichik guruh uchun sardorlar tayyorlanadi. Sardorlar o‘yin savollarini olib, o‘quvchilarga birma-bir berib boradi. Agar guruh 6 ta o‘quvchidan tashkil topgan boisa, har bir o‘quvchi 5 ta savolga javob berishi lozim.

- Savollar yonida to‘g‘ri javob yozilganligi sababli guruh sardorlari o‘quvchilarning javoblarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘quvchilar har bir to‘g‘ri javob uchun bir ball dan to‘plab jami 5 ballgacha jamlashi mumkin. Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarning to‘plagan baliga qarab qayta guruhlaydi.

- Har bir guruhga o‘zlarining iqtidoriga qarab turli xildagi topshiriqlar beriladi.

O‘quvchilar bu topshiriqlarni bajarib boigandan so‘ng o‘zaro savol-javob o‘tkazadilar, har bir guruh o‘z topshiriqlarini ko‘rgazmali qurollar yordamida ko‘rsatib beradi. Topshiriqni mukammal bajargan kichik guruhlar rag‘batlantiriladi va g‘oliblar aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Abdullayeva, M.Toshpo‘latova, N.Muhitdinova. “O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma”
2. WWW.ziyonet.uz.



КИТОВ – ТАРБИҲА О‘СНОГ‘И.

Abdullayeva Ra'no Amrullayevna
Buxoro viloyati Vobkent tuman
17-maktab kutubxonachisi.

Annotatsiya: ushbu maqolada kitobning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, kitobxonlik madaniyati haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kitob, ma’naviyat, burch, bilim, madaniyat, oila, maktab.

Kitob – bilim manbai. U insonni har qanday qabih ishdan, qabih niyatdan asrashi mumkin. Shuning uchun ham kitob insonga eng yaxshi do‘st, dardkash va sirdosh hisoblanadi. Kitob o‘z do‘stining dilini og‘ritmaydi. Kitobning suhbatidan inson faqatgina foyda topadi. Bunday fayzli foydani boshqa hech nimadan, hech kimdan topib bo‘lmaydi. Kitob o‘qigan odam o‘tmishdan boxabar bo‘ladi va kelajakka teran nigoh bilan qaraydi.

“Kitob-ilm manbai”, - deydi dono xalqimiz. Ayniqsa, yosh avlodni ma’naviy sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashda, tafakkur xazinasini boyitishda kitob mutolaasining o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham, azal-azaldan ilm manbai, ma’naviyat xazinasini sanalgan kitobga munosabat inson ma’naviyatini ko‘rsatadigan muhim omillardan biri hisoblangan. Agar, xalqimizning uzoq o‘mishiga nazar tashlasak, buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz ham yuksak ma’naviyatli inson sifatida kitobni juda qadrlaganliklariga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Tarixda o‘tgan ko‘p hukmdorlar zabt etilgan yurtning ma’naviy boyligi bo‘lgan kitoblarni yoqib yuborib, moddiy boyluklarini to‘plab, o‘z yurtiga olib ketgan bo‘lsalar, Sohibqiron Amir Temur bobomiz, aksincha, qaysi yurtda bo‘lmasin, xalqning ma’naviy boyligi bo‘lgan kitob va qo‘lyozmalarni to‘plab, o‘z yurtlariga jo‘natganlar. Ulug‘ bobokalonimiz mamlakatda kitob va qo‘lyozmalarga boy kutubxonalar qancha ko‘p bo‘lsa, ilm-fan va madaniyat shuncha tez rivojlanadi, deb hisoblaganlar.

Maktab o‘quvchisining kitob o‘qishga, ilm o‘rganishga bo‘lgan mehri o‘qituvchisiga, o‘z otanaga, Ona yurtiga mehr-muhabbatning asosidir. Kitob boladagi ma’naviy bo‘shliqni to‘ldiradi. Ustoz, ota-ona, Vatan, o‘rtoq do‘st, birodarlarga mehr-muhabbatli qiladi. Bola kitob o‘qish orqali-komil inson minorasini o‘zi bino qiladi. O‘quvchi o‘zi o‘qib-o‘rganib qurgan mustahkam minorani hech qanday tashqi salbiy oqim-ta’sirlar buzub kirolmaydi.

Kitob haqida har qancha gapirish, uning sifatlarini soatlab maqtash mumkin. Sababi, eng yaqin do‘st, sirdosh, eng zarur hamroh bo‘lgan kitob, insoniyat tarixida kashf etilgan ixtirolarning eng buyugi va eng qadrlisi, zamonlar o‘tsada, o‘z o‘rnini hech kimga bo‘shatib bermagan mo‘jizadir. Buyuk olimlar kitob, kitobxonlik haqida fikr bildirar ekanlar, adabiyotlar bilan oshno qalbga hech qachon yomonlik in qurmasligini ta’kidlashadi. Milliy o‘zlikni anglash, yoshlarimizda yuksak ma’naviyatni shakllantirish, ularni ezgu fazilatlar sohibi etib tarbiyalashda kitobning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Ko‘p kitob o‘qigan kishining bilim saviyasi yuqori, muomala madaniyati yuksak, yetuk inson sifatida hayotda o‘z o‘rnini topa oladi. Biroq, bugungi kunda kitobga, kitob o‘qishga bo‘lgan ehtiyoj va intilish, ayniqsa, Yoshlar orasida tobora kamayib bormoqda. Bu esa juda achinarlidir. Qanchadan – qancha kitoblar, kitob jovonlari va do‘konlarda shunchaki ko‘rgazma sifatida turibdi. Tabiiy savol tug‘iladi. Nega shunday? Nima uchun kitob o‘qimay qo‘yyapmiz? Ming afsuski, kitob o‘qish o‘rniga qimmatli vaqtini bekorchi ko‘ngilochar o‘yinlarga sarflaydigan insonlar ham oramizda oz emas. Undaylar fikrlashda, o‘zini tutishda ham ma’naviyati yuksak emasliklarini namoyon etib qo‘yishadi. Texnika asri davrida yashayapmiz, kundan-kunga texnik vositalar taraqqiylashib, ularga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Xususan, qo‘l telefonlari, turli internet tizimini bunga misol qilishimiz mumkin. To‘g‘ri yurtimizda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Chunki millatimiz sha’nini, milliy g‘ururimizni yuksaltiruvchi bu – Yoshlar. Shu bois, yoshlarimiz ongiga kitobga mehr uyg‘otmog‘imiz darkor. O‘quvchilarni kitob bilan ishlashga odatlantirish ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Kitobxonlik yoshlarning ma’naviy boyligini oshiradi, ularni mehnat va ijodiy yo‘lga boshlaydi. Kitob hayotning ulug‘vorligini anglab olishga, u haqida mustaqil fikr yuritishga yordam beradi.

Kitob o‘qigan oilada ham yaxshi tarbiya, ham baraka ham bo‘ladi. Oilada birinchi otaning o‘rni, uning hurmatini joyiga qo‘yish, onani e’zozlash, katta aka-opalar, ukalarga e’tiborli bo‘lish degan tansiq odatlar bevosita kitob orqali mustahkamlanadi. Kitobni bola xijjalab, sabr bilan



o‘qish jarayonida, har bir so‘zni yurakdan his qilib hazm qiladi. Bu donolar ta’kidlaganidek, toshga o‘yilgan naqsh singaridir. Kitob ilm olishga tashnalikni oshiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, hozirgi globallashuv sharoitida kitobning ahamiyatini yanada oshirish, mutolaa madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb talabidir. Chunki, kitob o‘ziga xos ruhiy – estetik jozibasi, ta’sir kuchini saqlab qolmoqda va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Shunday ekan kitob o‘qishdan aslo to‘xtamang. Kitob – ma’naviyati sarchashmasi. Hozir kitobdan olgan barcha yaxshi fazilatlarni bir umr qalbimizda saqlab qolaylik. Zero, kitob insonni doimo yaxshilikka yetaklaydi. Inson ichki olamini hech narsa kitobchalik benazir boyita olmaydi. Ruhiyatimizni hech narsa kitobchalik, o‘qish-o‘rganish, mehnatchalik muvozanatga to‘g‘ri yo‘lga sola olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” T: Ma’naviyat 2008.
2. “Kutubxonashunoslik” Toshkent, “Ilm ziyo” 2014
3. www.ziyonet.uz



JISMONIY TARBIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI.

Abdulloyev Elyor Erkinovich

Buxoro viloyati Vobkent tuman 11-maktab
jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi.

Annotatsiya: ushbu maqolada umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini to‘g‘ri tashkil etishda pedagogning o‘rni haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, Universiada, umid nihollari, sport, jismoniy mashq.

Umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalari erishgan yutuqlardan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bugungi kunda taraqqiyot yo‘lidan ildam qadamlar bilan borayotgan mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, unga ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot kommunikativ texnologiyalarini joriy etish, ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

O‘zbekistonda “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada”, sport musobaqalarining o‘tkazilib borilishi haqidagi videoroliklar namoyishi o‘quvchi yoshlarda sportga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ushbu siyosatning asosiy tamoyillaridan biri ta’limning uzluksizligi va izchilligini ta’minlashdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida e’tirof etilishining sabablaridan biri ham ana shundadir. Jismoniy tarbiya vositalari bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikni taqozo qiladi. Shundagina ular ahamiyatini saqlab qoladi. Ko‘p yillik jismoniy tarbiya jarayonida jismoniy mashqlar, tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari va gigiyenik omillardan jismoniy tarbiyaning vositasi sifatida foydalaniladi. Jismoniy mashqlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi bo‘lib, u tarixan yengil atletika, gimnastika, sport o‘yinlari va turizm tarzida guruhlariga ajralilib, tarbiya jarayonining vositasi sifatida foydalanib kelinadi.

Jismoniy mashq - jismoniy tarbiya qonuniyatlari talablariga javob beruvchi, ongli ravishda bajariladigan ixtiyoriy harakat faoliyatlarining turli turkumi tushuniladi. Bunday harakat faoliyatlari yengil atletika, gimnastika, sport o‘yinlari va turizm mashqlari sifatida tarixan tizimlashtirilgan. Jismoniy tarbiyaning natija berishiga barcha vositalar tizimidan foydalanish bilan erishiladi. Biroq vositalarning har qaysi guruhga ahamiyati bir xil emas: tarbiya va o‘qitish vazifalarini yechishda eng katta salmoq jismoniy mashqlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Bu esa bir qator sabablar bilan hal etiladi:

- Jismoniy mashq harakatlar tizimi sifatida insonning tuyg‘usi va fikrini, uning tevarakatdagi voqealikka munosabatini ifodalaydi.

- Jismoniy mashq- bu jismoniy tarbiya sohasida ijtimoiy - tarixiy tajribani topshirish usullaridan biri.

- Jismoniy mashq nafaqat organizmni morfo-funksional holatiga ta’sir o‘tkazadi, balki ularni bajaruvchi shaxsga ham.

- Jismoniy mashq harakatlari insonning sog‘lomlashtiruvchi ehtiyojlarini ham qondira olishi mumkin.

Tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari.

Inson atrof-muhit bilan bir-biriga munosabatda bo‘ladi. unga ta’sir ko‘rsatadi va unga moslashadi. Ana shunda muhitda organizmning mushtarakligi namoyon bo‘ladi. Muntazam ravishda quyoshning nur sochishi o‘zgaruvchanligi, suv va havoning harorati, yog‘ingarchilik va havoning ionizatsiyasi va harakati. atmosfera bosimi. organizmni fiziologik va ruhiy reaksiyalarga keltiradigan muhim bioximik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi: jismoniy mashqlarni samaradorligi va insonning mehnatga layoqatligini, salomatligi va ishchanlik qobiliyatini ta’minlaydi. Jismoniy tarbiya jarayonida tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchidan foydalanish yo‘llarini o‘qituvchi o‘quvchilarga to‘g‘ri yetkazib berishi zarur.

Jismoniy tarbiya darsining samarasi ko‘pincha o‘qituvchining tuzgan rejasini hayotiyligi, shug‘ullanuvchilar faoliyatini tashkillash uchun tanlagan metod va uslublari, mavjud jihozlar va sport anjomlaridan, texnik vositalardan, sport inshootlaridan effektli foydalana olish, temperatura, iqlim sharoiti, o‘quvchilarning tayyorgarligi, ularning yoshi, individual xususiyatlarini hisobga olib effektli foydalana olish bilan bog‘liq. Qanday qilib o‘quvchilarga bilim berish, ko‘nikma



va malaka hosil qilish, ya'ni turli harakatlarga o'rgatish kerak. Bu o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir. O'rgatish usullari turli – tuman bo'lib, ulardan kerakligini tanlab olish va uni unumli qo'llash, o'qituvchining pedagogik san'atiga bog'liq. Shuning uchun o'rgatish samaradorligi o'qituvchining to'g'ri uslublarni tanlash va ishlata bilishiga bog'liq. Demak, jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o'tkazishni samarali uslublarini ilmiy ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotlar asosida isbotlab berish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmonxujaev T.S. Raximov M «Maktabda jismoniy tarbiya mashgulotlarini milliylashtirish T.1994-yil



О‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDA MILLIY URF-ODATLARNING TUTGAN O‘RNI.

Amanlikova Sayyora Musurmonovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar

2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

kimyo fani o‘qituvchisi

Asomova Fazilat Paxritdinovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar

2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

biologiya fani o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Milliy qadriyat- bu millatimiz barpo etilgandan to hozirgi kungacha bo‘lgan barcha urf-odatlarimiz, marosim va an‘analarimiz davom etib kelayotgan hunarmandchiligimiz, san‘at asarlarimiz, yozma manbalar-u yodgorliklarimiz, milliy inshootlarimiz, boy merosimizdir.

Kalit so‘zlar. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, insonparvarlik g‘oyasi, tolerantlik, madaniy boyliklar, An‘ana, mustaqillik ravnaqi, ma’naviy boyligi, an‘ana, Milliy qadriyat.

Har bir millatning ma’naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadryatlarning birligidan tashkil topadi. Ma’naviy meros o‘tmishning yutug‘i uni to‘la, odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodlarning vazifasidir. O‘z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik madaniyatsizlikdir. Ularni boyitib, yuksak darajaga ko‘tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun katta ziyondir. Ma’naviyati yuksak darajada rivojlangan insongina mustaqillik ravnaqi uchun kurashda o‘zida kuch va qudrat topa oladi. An‘ana-o‘ziga xos ijtimoiy hodisa bo‘lib, kishilarning ongida hayotida o‘z o‘rnini topgan, avloddan avlodga o‘tadigan, takrorlanadigan hayotning barcha sohalarida qabul qilingan tartib va qoidalar silsilasidir. Urf-odat - kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi, xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko‘nikmalari, urf-odat va marosimlar yig‘indisidan iborat. Masalan kichiklarning kattalarga salom berishi. Asrlar davomida xalqning ma’naviy ehtiyoji, talabi asosida yaratilgan qadriyat-larida olg‘a surilgan ilg‘or g‘oyalarni o‘z ongida yaxlit shakllantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, oilaning, xalqning, jamiyat-ning ma’naviy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan shaxs ma’naviy mada-niyatli hisoblanadi. Milliy va umuminsoniy ma’naviyat va qadriyatlardan to‘la bahramand bo‘lmagan, ona tilini bilmagan, jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga ongli ravishda hissa qo‘shmagan inson ma’naviy qashshoqdir. Ma’naviy qashshoqlik esa xalqni, millatni, umuman jamiyatni tanazzulga olib boradi. Ma’naviy madaniyat manbalarini o‘rganish, ularda olg‘a surilgan g‘oyalarga amal qilish, ularni kelgusi avlodlar ongiga sig‘dirish har bir jamiyat a’zosining vijdon oldidagi, Vatan oldidagi burchidir. Mustaqil respublikamiz istiqbolini belgilovchi har bir fuqaroning o‘z burchi va majburiyati mohiyatida ma’naviyat va axloqiylikni qayta tiklash; - o‘zbek xalqi asrlar mobaynida yaratilgan madaniy boyliklarni, noyob tarixiy obidalarni avaylab saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish tadbirlarini ko‘rish; - qadimiy va zamonaviy xalq qadriyatlarini, adabiyot va san‘atni bilish hamda rivojlantirish; - o‘zbek tilini taraqqiy ettirish, Respublikada yashovchi boshqa xalqlar madaniyatiga, tiliga hurmat bilan munosabatda bo‘lish; hurfikrlilik, vijdon va din erkinligi (tolerantlik)ni qaror toptirish; -ma’naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish; oilani milliy qadriyatlar asosida mustahkamlash; -ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning mazmuni va mohiyatini chuqur o‘rganishga erishish kabi shartlarni amalga oshirish lozim. Umumiy ta’lim oldiga qo‘yilgan muhim maqsad – umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta’lim-tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g‘oyasini kuchaytirish, xalqchillashtirish, uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarda ma’naviy madaniyatni shakllantirishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida qat’iy belgilab qo‘yilganidek, «...ta’limda umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustivorligi» ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan bir. Har bir taraqqiy etgan, madaniyatli xalqning o‘z tili, urf- odati, adabiyoti, asoriatlari, an‘anaviy moddiy va ma’naviy boyliklari bo‘ladi. O‘zbek xalqi ham dunyodagi eng qadimiy madaniy xalqlardan biri sifatida mana shunday merosga ega. Bu bilan biz haqli ravishda faxrlansak arziydi. Buning uchun o‘sha qadimiy madaniyatni, urf- odatni bilishimiz, saqlashimiz va keyingi avlodlarga ham yetkazishimiz insoniy



burchimizdir. Shuni unutmash kerakki, ming-ming yillar davomida shakllangan urfodat, marosim, adabiyot, san'at biz bilan qadimdan yonma- yon hayot kechirib kelayotgan qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik va ozarbayjon xalqlarining bevosita ishtiroki, hamrohligida yaratilgan, taraqqiy topgan. Hatto jahonning ko'plab boshqa xalqlari vakillarining ham bu qadimiy madaniyat-ning shakllanishida muayyan hissalar bor. Har bir xalq ana shu udumlar, urf- odat, o'tmishga chuqur tomir otib ketgan o'q ildizlari bilan jahon mada niyatida o'ziga xos o'rin tutadi. Inson bolasi yoshligidan yaxshi va yomon odatlarning qaysisiga ko'nikib, o'rga-nib qolgan bo'lsa, bu udum uni bir umr tark etmaydi. Shuning uchun ham xalqimizda, «beshikda tekkan –kafanda ketar » yoki «dard ketar – odat qolar», «illat ketar-odati ketmas» degan maqollar bor, yoki tavallud topgan bolaning qulog'iga ota- bobolarimiz birinchi navbatda azon aytirganlar. Azon aytilganda bolaning qulog'i ochiladi. Odamlarning eshitish, tinglash qobiliyati ish boshlaydi. Ismi ilk bor chaqaloqning o'z qulog'iga aytib singdirilgan. So'ng uning chillasi – kichik chilla va katta chilla o'tkaziladi, bolaning onasidan bo'lak uning yoniga, hech kim kiritilmaydi. Katta chillasi, qirq kun o'tganidan keyin bolani beshikka belash marosimi bo'lib o'tadi. Yangi dunyoga kelgan bolani yomon ko'zdan, ins- jinsdan asrash, uni gigiyenik himoya qilish uchun shunday qilinadi. Chilla kunlari ona va bola yaxshi parvarish qilinadi. “Sut bilan kirgan jon bilan chiqar” deydilar. Abu Ali ibn Sino go'dak bola chillasi, uning enagasi parvarishi to'g'risida ming yil burun bugun ham ibrat bo'ladigan risolalar yozib ketganlar. Tavallud topgan bola bosh farzand bo'lsa, bozordan borib beshik sotib olinadi. Ikkinchi yo navbatdagi farzand bo'ladigan bo'lsa, opa-akasining beshigiga belanadi. Umumiy ta'lim oldiga qo'yilgan muhim maqsad- umuminsoniy va miliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g'oyasini kuchaytirish, xalqchillashtirish, uning uzviyligi, izchiligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonunida qayd qilinganidek, “...ta'limda umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustivorligi” ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biridir. Jamiyat rivojlanib borgan sari insonlar, xalqlar millatlar o'rtasidagi ma'naviyat munosabat va aloqalar rivojlanib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. R.Mavlonova” Tarbiyaviy ishlar metodikasi”
2. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq”
3. www.ziyouz.com



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QUVCHILARINING AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Ashirova Nilufar
Sharipova Zamira

Urganch shahar 18-maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari
Telefon: +998912776535
zsharipova1985@umil.uz

Annotatsiya: Axborot texnologiyalari ta‘limning universal vositasi hisoblanib, nafaqat o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, axborot texnologiya, kompetensiya, axborot manbalari, multimedia ilovalari, dastur, electron resurslar.

Boshlang‘ich ta‘limni modernizatsiyalash, o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik va multimediali texnologiyalardan unumli foydalanish, kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e‘tiborni qaratgan holda, boshlang‘ich ta‘limning sifat-samaradorligini tubdan yaxshilash xalq ta‘limi faoliyatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalari bolalarni qiziqarli olamga olib kirishda o‘qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda bolalar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar.

Boshlang‘ich ta‘lim uzluksiz ta‘limning poydevori hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta‘minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi.

Boshlang‘ich sinflardan o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish o‘qituvchidan katta kuch talab qiladi. Chunki kichik maktab yoshidagi bolalarda ma‘lumotlarni izlash va topish, tahlil qilish, asosiylarini ajratish, ulardan foydalanish, uzatish, ma‘lumotlarni xavfsizligini ta‘minlash ko‘nikmalari hali shakllanmagan bo‘ladi. Shunga ko‘ra, o‘qituvchi davlat tomonidan qo‘yilgan talablar asosida, mavjud axborot manbalaridan ya‘niten televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuterdan foydalana olish, media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta‘minlash va foydalanishda mediamadaniyatga rioya qilish, ma‘lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish, kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar ya‘ni oddiy tabriknomalarni yoza olish, anketalarni to‘ldirish, o‘zi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qayd eta olish kabilarni ishlay olish kompetensiyalarini shakllantiradi. [1, 42-bet]

Ta‘lim jarayonining tarkibini, mazmunini yangilash zamonaviy axborot texnologiyalarni qo‘llash imkonini beradi. Buning uchun boshlang‘ich ta‘lim xonalari kompyuter jamlanmasi, DVD pleer, televizor, radio va shu kabi texnik vositalar bilan jihozlangan bo‘lishi va ular orqali bolalarning komil inson qilib tarbiyalashga erishish mumkin.

Boshlang‘ich ta‘limda kompyuter texnikasidan oqilona foydalanish ta‘limning yangicha usullarini unumli foydalanish, tuzilishi va mazmun jihatdan yaxlit lashtirishga, o‘quvchi faoliyatini uyushtirishga, mustaqil fikrlashga yo‘llash uchun qulay sharoit yaratadi.

Shuningdek, darslarda samarali natijalarga erishish nafaqat kompyuter texnikasi, balki ommaviy axborot vositalari materiallaridan foydalanish ham samarali natijalarga beradi. Bola har bir tele ko‘rsatuvda albatta uni ezgulikka yo‘llovchi bir jihatni ko‘radi va unga rioya qilishni o‘rganadi.

Bunga har xil tarbiyaviy dasturlar, kichik maktab yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan multafilmlar, teatrlashtirilgan ertaklar, kinofilmlar va rolli o‘yinli dasturlarni misol sifatida kiritish o‘rinlidir. Shuning uchun bolalarning fikrlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan darslarda o‘yinlar, ular tomosha qilgan dasturlar asosida tashkil etilsa, ularning ta‘sir darajasi va tarbiyaviy ahamiyati yanada oshadi.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining foydalanishlari uchun respublika multimedia markazi, respublika ta‘lim markazi va respublikadagi dasturiy mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar bilan hamkorlikda “Ertaklar olami”, “Aqlingizni sinab ko‘ring”, “Qiziqarli o‘yinlar” “Boshqotirmalar” kabi elektron resurslar ishlab chiqilgan. Ulardan mashg‘ulot



jarayonida foydalanishning samarasi juda katta. Ayniqsa, 1-4 sinflar uchun yaratilgan 7 nomdagi multimediali ilovalardan boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari samarali foydalanishmoqda. Metodik qo'llanma va multimediali ilovalarda keltirilgan materiallar darsga tayyorgarlik ko'rish, darsni tashkil qilish va o'quvchilarning bilimini tekshirishda o'qituvchilarga yaqindan yordam beradi, axborot bilan ishlash kompetentsiyalarini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Misol uchun, 2-sinfda "Kvadrat" mavzusini o'rgatayotganda multimediali ilovadan foydalanish o'qituvchiga mavzuni ochishda katta yordam beradi. Avvalo, multimediali ilovaning 1-qismida Quyuvoy kvadrat haqida tushunarli va lo'nda qilib ma'lumot beradi, chizib ham ko'rsatadi. 2-qismida 100 ichida qo'shish va ayirishga doir 9 ta misollar berilgan bo'lib, yon tarafida javoblar ham ko'rsatilgan. Faqat misolni to'g'ri javobini topib to'g'ri chiziq bilan tutashtirish, noto'g'ri javob berilganda esa yana bir bor o'ylab ko'rish kerakligi aytilganda o'quvchini qiziqtirib qo'yadi va to'g'ri ishlashga harakat qiladi. 3-qismda mavzuni mustahkamlash uchun 5 ta test savollari berilgan bo'lib, u orqali o'quvchilarning darsni qanday o'zlashtirganliklarini aniqlash mumkin bo'ladi. [2, 53-bet]

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida axborot texnologiyalardan foydalanish bolalar dunyo qarashini oshishida, axloqiy va ma'naviy fazilatlarini shakllanishida, ruhan va aqlan sog'lom voyaga yetishishlarida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari. Toshkent, 2017.
2. Abdurahmonova N, O'rinboyeva L. 2-sinf Matematika. – T.: "Yangi yo'l", 2018.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI JIHATLARI

Atadjanova Aybibi Beknazarovna
Urganch shahri 18-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998 91 4365509

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagogik jarayon, o'qitish uslubi, ijodiy fikrlash, axborot texnologiya, texnik vositalar, individual rivojlanish.

Axborot –kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad –aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir. Maqolada AKT dan samarali foydalanish usullari haqida ham gap boradi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida maktab fanlarini o'qitishda AKTdan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan axborot texnologiyalari ta'limning universal vositasi hisoblanib, nafaqat o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi. Axborot –kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad –aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim –ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'limda boshlang'ich sinf “ko'nikma maktabi” bo'lib keladi. Ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni hosil qilish uchun asosiy ta'lim bosqichi hisoblanadi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tuzimida bolaning birinchi tajribasi – ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatlarini ta'lim jarayoniga AKTni joriy etilishi bilan rivojlanayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

O'z faoliyatimizda ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini joriy etib, ulardan foydalanib va o'quv jarayonida AKTdan foydalanish bo'yicha ma'lum tajribalarni to'plab bormoqdamiz. Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajribam an'anaviy dars doirasida AKTni didaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan hollarda o'quv jarayonini individuallashtirish va differentsiyalash uchun cheklanmagan imkoniyatlar paydo bo'lishini ko'rsatdi. O'quv jarayonida uni muvaffaqiyat bilan bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy jarayonlar sifatida fikrlashni, tasavvurni rivojlanishga yo'naltirilgan katta o'zgarishlar sodir bo'ladi; o'quvchilarni idrok etish faoliyatini samarali tashkil qilishni taminlaydi. Buni qanchalik samarali ekanlini hozirgi kundagi 1-4-sinflar uchun ishlab chiqilgan elektron dasrlıklar misolida tushunish mumkin.

1-sinfda ona tili darslaridan elektron o'quv qo'llanmadan foydalaninish o'quvchida o'tillayotgan materiallarning ko'z oldida namoyon bo'lishni

ta'minlar ekan, undagi so'zni tovushlarini, harflarini tahlil qilish, so'zning bo'g'inlarini tuzilishi, turli xil qiziqarli ko'rgazmalar va ovozi materiallar orqali tushuntirilish oquvchiga ham o'qituvchiga ham o'rganish va o'rgatishda yengillik tug'diradi.

Matematika darslarida ham turli xil o'yinli masalalar dasturini ishlab chiqilganligi, darslar qiziqarli va bu jarayonda o'quvchi faolligini oshirmoqda. Maslalarini yechishdagi ustunlik tomoni shundaki, tushunib olish murakkab bo'lgan masalalarni tushunturish davomida masala animatsion slaydlarni qayta takrorlab qo'yish imkoni mavjud, qisqa afzallik tomonlari juda ko'p.

Boshlang'ich sinflarda o'tillayotgan ko'plab mavzular bo'yicha juda qiziqarli va o'quvchi tushinib olish oson bo'lishi qiziqarli materiallar berilgan. Biz o'zlarimiz ham o'quvchilar uchun turli xil animatsiyalar yaratib, yangiliklar qilib dars samaradorligini oshirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Boshlang'ich ta'lim” jurnali, 2019-yil, 3-son, 8-bet.
2. “Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”.
3. “Mahoratli pedagog” jurnali, 2020-yil, 4-son, 24-bet.
4. O'z ish tajribamdan.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDN FOYDALANISH

Avazova Norgul Raximovna

Urganch shahridagi

18-son umumiy o'rta ta'lim maktabining

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998 93 7426667

Annotatsiya: Bu maqolada o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish ko'zda tutiladi. Avvalam bor biz o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishimiz lozim. Bunda biz ko'proq xalq og'zaki nutqidan foydalanamiz.

Kalit so'zlar: kitob o'qish, samarali o'qish va axborot texnologiyasi, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash.

Nutq insonning asosiy muloqot vositalaridan biridir. Nutqning tashqi va ichki, og'zaki va yozma turlari bor. Shulardan og'zaki nutq haqida fikr yuritsak. O'quvchilarning og'zaki nutqi ravon bo'lsa, u o'z fikrlarini aniq va lo'nda qilib yetkazib bera oladi. Bu borada ularning so'z boyligini, lug'atini boyitish lozimdir. Bolaning so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, u shunchalik ravon gapiradigan bo'ladi. Xalq og'zaki ijodidan foydalanish o'quvchilarning o'g'zaki nutqini o'stirishda muhim omilligi haqida ham fikr yuritiladi. Barcha fanlarni o'qitish orqali o'quvchilarning nutq madaniyati, nutq ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarga e'tibor beriladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishdagi yana bir muhim omillardan biri bu xalq og'zaki ijodidir. Xalq og'zaki ijodi xalqimizning ma'naviy mulkidir. Xalq og'zaki ijodidan xalqimizning orzu-umidlarini aks ettiruvchi qo'shiqlar, o'tmish voqealaridan hikoya qiluvchi ertaklar, ibratli masallar, xalq donoligini ifoda etuvchi maqollar, izlanishga, topqirlikka undaydigan topishmoqlar, nutqni o'stirishda yordam beradigan tez aytishlar, latifalar joy olgan. Shu jumladan birinchi va ikkinchi sinf o'qish kitoblarida "Ertaklar yaxshilikka yetaklar", 3-sinf o'qish kitobida esa "Xalq og'zaki ijodi" kabi bo'limlar berilgan. Ularga kiritilgan ertaklar o'quvchilarni odob-axloqqa o'rgatish, ma'naviy jihatdan rivojlanishi bilan ahamiyatlidir. Masalan, "Zumrad va Qimmat", "Ur to'qmoq" kabi ertaklardagi obrazlar, Zumrad va Qimmat, dehqon va boy obrazlari o'quvchilar ongida yaxshidan quvonish va yomondan nafratlanish, undan yiroqlashish kerakligi haqida tasavvur hosil qiladi. Darslarda o'quvchilar ertak bilan tanishgandan so'ng, ularga ikkita jadval tuzishni taklif qilaman.

Birinchi yaxshi fazilatlar: mehribon, saxiy, yoqimli, shirinso'z, mehnatkash, go'zal, chiroyli, e'tiborli, kamtar kabilarni topadilar va yozadilar.

Ikkinchisi, uning aksi yomon, xunuk, qo'pol, yolg'onchi, ayyor, xasis, qizg'anchiq, qizg'anchiq, odobsiz kabi so'zlarni aytadilar va yozadilar. Bu ikkalasining farqini solishtirib biladilar. Yaxshi fazilatlarini o'zlarida mujassam qilishga harakat qiladilar. Qolaversa xalq og'zaki ijodidan nafaqat o'qish darslarida, balki ona tili, matematika, tabiatshunoslik, rus tili, odobnoma, xullas barcha fanlarda o'rinli foydalansak foydadan holi bo'lmaydi. Bu bilan dars mobaynida o'quvchilar faolligi oshishi bilan birga ularning og'zaki nutqi ham rivojlanadi.

Masalan, matematika darslarida matematik maqollar, matematik topishmoqlar, ez aytishlardan keng foydalanamiz. Matematik maqollar:

Sanamay sakkiz dema. Yetti o'lnab bir kes.

Yigit kishiga yetmish xil hunar ham oz. Birni kessang, mingni ek.

Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda kabi maqollardan foydalanamiz.

Matematik topishmoqlar:

To'rt tomonim bor mening, Yana to'rttala burchak.

Viqoringa qarab bil, Nomim mening ... (to'rtburchak)

Kelib ketar bir yilda, To'rt og'ayni har xilda. (fasllar)

Ikki yaproq bir tanda, Kezar u go'zal chamanda. (kapalak)

Shoxda turar 5 ta qush,

Kelib qo'ndi 4 ta qush,

Qani topgin Nodira,



Qushlar bo'ldi nechta? (9 ta)

Bunday topishmoqlar o'quvchilar zehnini o'tkir qilish bilan birga, fikrlashga undaydi. Ularni o'z fikrini mustaqil bayon qilishga, og'zaki nutqini o'sishiga yordam beradi. Ba'zan o'quvchilar o'zlari ham mustaqil ravishda anashunday qiziqarli matematik topishmoqlar tuzib keladilar. Bu esa ularning ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlanishiga olib keladi.

Shu jumladan tez aytishlar ham o'quvchilarni tezkor, hozirjavob va epchil, chaqqon bo'lishga chorlaydi. Tez aytishlar:

Bir tup tut, to'rt tup turp.

Boqi beshta buzoq boqdi.

Tohir tog'a tunov kuni tog'da to'rtta tulki tutdi.

Nutq bu-fikrni ifodalovchi vositasi bo'lib, u orqali inson o'z fikrini, qarashlarini bayon etadi. Shunday ekan biz tarbiyalayotgan o'g'il-qizlar o'z fikrlarini ravon, aniq va tushunarli bayon qila olsinlar. O'quvchilar nutqini o'stirishga maktab yoshidanoq alohida ahamiyat beraylik. Zero, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi ularning ma'naviy yetuklik belgisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang'ich ta'lim. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqini o'stirish. 2013-y
2. "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metodik jurnali 6/2015 O'quvchining og'zaki va yozma nutqi 7-8 b
3. Boshlang'ich ta'lim. 2015 iyun.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI LUG‘ATUSTIDA ISHLASHGA O‘RGATISH

Axmedova Mehribon Erkinboyevna
Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi
7-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: +998943143181

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z boyligini boyishi, lug‘at ustida ishlashga o‘rgatish, buning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Lug‘at tarkibi, so‘z boyligi, ravon nutq, sodda so‘z, ibora, nutq madaniyati.

Komil insonni voyaga yetkazish uchun boshlang‘ich ta’lim, shubxasiz, mustahkam poydevor rolini o‘ynaydi. Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifaning asosiy qismi o‘qish darslarida amalga oshiriladi. Ona tili va o‘qish darslarida olib boriladigan barcha mashg‘ulotlarning yetakchi o‘rni nutq o‘stirish bo‘lib, u savod o‘rgatish, chiroyli yozish ko‘nikmalarini shakllantirish va o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish, avvalo, ularning lug‘atini boyitish bilan bog‘liqdir. So‘z boyligini oshirishda, lug‘at ustida ishlash katta amaliy ahamiyatga ega. O‘rqnalayotgan matn yuzasidan lug‘at ishi o‘tkazish jarayonida o‘quvchilar tilning lug‘at tarkibiga xos bo‘lgan eskirgan so‘zlar, yangi paydo bo‘lgan, kasb-hunarga oid so‘zlar, shevaga xos so‘zlar, badiiy uslubga xos so‘zlar bilan amaliy jihatdan tanishib boradilar. Tilimizda mavjud bo‘lgan behisob so‘zlarni yodda saqlab qolishda hamda ularni nutqda to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llay olishda tilning lug‘at tarkibini muayyam qatlamlar yoki guruhlarga ajratib o‘rganish ya’ni eskirgan so‘z, yangi paydo bo‘lgan so‘z, kasb – hunarga oid so‘z, shevaga xos so‘z kabi tushunchalar haqida ilk nazariy ma’lumotlar bilan tanishtirish juda muhim sanaladi.

So‘z tilning ma’no bildiradigan asosiy birligidir. so‘z va so‘z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘z va iboralarning yig‘indisi lug‘at tarkibi yoki leksik deyiladi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan mazmunga mos so‘z va so‘z birikmalarining ma’lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug‘ati qancha boy va rivojlangan bo‘lsa, uning nuqta ham shunchalik boy bo‘ladi; o‘z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug‘at boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning muhim sharti hisoblanadi. O‘quvchi lug‘atining boyishi, birinchi navbatda, uni o‘rab olgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, o‘qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan muloqatlari asosiy manba vazifasini bajaradi. Bola tabiat va insonlar bilan munosabatda bo‘lishi natijasida so‘z, ibora, tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so‘zlarni o‘rganadi, ularni o‘z so‘zlariga aylantiradi. Badiiy asarlar o‘quvchilar lug‘atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba hisoblanadi. O‘qish darslarida badiiy asarlar bilan tanishish, tahlil qilish jarayonida tabiatdagi o‘zgarishlar, qushlar, jonivorlar, hayvonot olami, dov-daraxtlar, maysa-giyohlar bilan bog‘liq tushunchalari shakllantirilsa, ma’naviyat, yaxshilik va yomonlik, do‘stlik mavzularidagi asarlarni o‘rganish orqali insoniy munosabatlar, axloq-odob yuzasidan muayyan xulosalarga keladi. Matnni o‘qish jarayonida so‘zning ma’nosi tushuntirilmaydi. Agar unga zarurat sezilsa, o‘quvchilar diqqatimatn mazmunidan yaxshi tushuniladi.

Boshlang‘ich ta’limda lug‘at ustida ishlashning umumiy yo‘l-yo‘riqlari, yo‘nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo‘lmaydi. Lug‘at ustida ishlash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni o‘rganishda, asosan, ona tili va o‘qish darslarida dars-lik materiallarini o‘rgatish bilan bog‘liq holda olib boriladi. Ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash o‘quvchilar nutqini o‘stirishga, savodxonligini shakllantirishga, so‘z boyligini boyitishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda 1-sinfdan boshlanadi va butun o‘quv jarayonida davom ettiriladi. Maktabda nutq o‘stirishning muhim vazifalaridan bin lug‘at ustida ishlashni yaxshilash, tartibgasolish, uning asosiy yo‘nalishlarini ajratish va asoslash, o‘quvchilarning lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug‘at ustida ishlash metodikasi to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:



O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlamini, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlash-tirish. Ona tilning lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8—10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4—6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagi-larni oladi: 1) o'quvchi puxtda o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilning lug'at tarkibini o'rgatib borish ularning so'z boyligini oshiradi, nutq madaniyatini yuksaltiradi, milliy tilimizning buyuk qudratini, sehri va jozibasini to'la xis etgan insonlar bo'lib etishishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev. "Ona tili o'qitish metodikasi" "Nosir" T.:2009
2. G'oyibnazar Ernazarov "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" "Ilm Ziyoyi" T.: 2013



MENTAL ARIFMETIKANING BOLAJONLARIMIZ UCHUN FOYDALI TOMONLARI

Azimova Habiba Eshniyozovna,
Zarafshon shahar 2-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolamda hozirgi kunda o'rganilayotgan mental arifmetikaning bolajonlar uchun foydali tomonlari va ahamiyati haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Aql, idrok, arifmetika, mental, foyda, muvaffaqiyat.

$522+145+398-573+847=?$ Ushbu matematik amalni bir necha soniyada yodda yecha olasizmi? Sizning farzandingiz uddalaydi. Sizning hayotdagi omadimiz ko'p holda bizning aql-idrokimizga bog'liq. Mental arifmetika bu san'at va aql-idrokni rivojlantiruvchi dasturdir. O'zbekistonda ilk bora "Mental arifmetika" dasturi bolalar uchun taqdim etildi. Ushbu dastur yordamida bolalar nafaqat o'qishida muvaffaqiyatga erishadilar, balki hayot motivasiyasi(ichki turtki) ga ega bo'lib, maqsadga intiluvchan bo'ladi.

Ushbu dasturni o'rgangan o'quvchilar bir qancha davlatlarda yuqori natijalarni ko'rsatmoqdalar. Mutaxassislar 4 yoshdan 16 yoshgacha bolalar uchun yo'naltirilgan aql mashqi dasturini qo'llaydi. O'qish davomiyligi kursning tezligi va bolaning qobiliyatiga qarab 2 yildan 3 yilgacha davom etishi mumkin. Sonning kvadrat va kub darajasini hisoblash dasturning so'ngi bosqichidir. Tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday yoshdagi bolalar darslarni tezda qabul qilib, ishtiyoq bilan bajaradilar. Qoidaga ko'ra, uy vazifasi mutlaqo oz vaqt oladi.

Mental arifmetika- bu yuqori sifatli dastur bo'lib, matematik amalni miyada kalkulyatordan ham tezroq hisoblashni o'rgatadi. Bu maktab yoshidagi bolalarda

matematika darslarida amallar ustida ishlashda, yuqori sinflarda atematika darslarida kvadratlar darajasi mavzularida qiynalmay misollarni tezda bajaradilar. Mental arifmetika dasturi farzandingizga quyidagi malakalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- Diqqatni jamlash;
- Tasviriy xotira;
- Ijodiy fikrlash;
- Tinglash va kuzatuvchanlik;
- Tasavvur qilish;
- Mantiq;
- Analitik fikrlash.

Ushbu dastur bo'yicha ta'lim olayotgan bolalar nafaqat matematikadan, balki boshqa fan sohalarida ham muvaffaqiyatga erisha oladilar. Bu yerda ular o'ziga ishonuvchanlikka va qiyinchilikni eng olishga ega bo'ladilar. Hozirgi paytda, atrofda chalg'ituvchi omillar ko'p bo'lganligi sababli, bolalar ustuvor yo'nalish tanlash va o'qishga qiziqishi qiyin bo'lib bormoqda. Aynan shu muammoda mental arifmetika ota-onaga yordam beradi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mental arifmetika bo'yicha kurslar.
2. Internet tarmoqlaridan.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI IFODALI O'QISHGA O'RGATISH USULLARI

Bekchanova Sayyora Baxtiyorovna
Gapparova Munira Umarbekovna
Urganch shahri 18-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchilari
Telefon: +998 97 4537628

Annotatsiya: “Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatish usullari” mavzusidagi maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ifodali o'qishga o'rgatishning afzalliklari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kitob o'qish, ifodali o'qish texnologiyasi, tanqidiy fikrlash.

Bizga ma'lumki, ko'pincha o'quvchilar o'qiganlarida tinish belgilariga yaxshi e'tibor bermaydilar. Buning natijasida o'quvchilar so'zlarni aralastirib o'qib ketaveradilar. Shuning uchun har bir so'zga, gapga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qishni o'rgatishimiz lozim. Asarni o'qiganda tushunib, ongli idrok qilib o'qish lozim. Adabiy til me'yorlariga rioya qilib o'qish ham ifodali o'qishda muhim omil hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda ifodali o'qish ongli o'qishning negizida shakllanadi. Uni tashkil etishda asosiy vositalar bular: nafas, ovoz va nutq a'zolarining me'yoriy harakatini to'g'ri anglash, adabiy til me'yorlarini egallash muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham ifodali o'qishga o'rgatishda nazariy va amaliy bilimlar birgalikdagi olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda ifodali o'qish ongli o'qishning negizida shakllanib boradi. O'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishda eng avvalo maqsadni to'g'ri belgilab olish lozim. Ular quyidagilar:

- 1) Adabiy til me'yorlariga rioya qilish.
- 2) Nutqning ravon va tushunarli, aniq bo'lishi.
- 3) Har bir o'qigan asarimizni tinglovchiga ta'sirchan va mantiqli yetkazish.
- 4) Ona tilimizni ulug'ligini his qilish.
- 5) So'z qudratini to'g'ri anglash.

Shu yuqoridagilarga amal qilgan holda ish olib borsak ifodali o'qish me'yorida bo'ladi. Boshlang'ich sinf darsliklarida asosan nasriy asarlar katta o'rin tutadi. Ulardagi asarlar, hikoyalar bari mazmunana xilma-xil, rang-barangdir. Ularni ifodali o'qish jarayonlari ham turlicha kechadi. Hikoyani ifodali o'qishda yana to'xtam ya'ni pauza, ohang ya'ni diksiya ayniqsa, muhim hisoblanadi. So'roq, buyruq va darak gaplarning ohanglari asar g'oyasini ochishda muhim o'rin egallaydi. Asarni o'qiganda uning qahramonlarini xatti-harakatini, xarakterini his qilish lozim. Shunda u yanada jonli chiqadi.

sinflarda asarni ifodali o'qishga o'rgatishda o'qituvchining o'zi namuna sifatida o'ib beradi. Bu ko'pincha 1-2-sinflarda to'g'ri keladi. O'quvchi o'qituvchining ifodali o'qishidan o'ziga andaza oladi. U ham shunday ma'noli, ifodali va mazmunli o'qishga harakat qiladi. Uchinchi va to'rtinchi sinflarda esa sinfdagi eng ifodali o'qiydigan o'quvchilarga o'qitiladi. Kim ifodali, jonli, mazmunli, qoidalarga rioya qilib o'qisa rag'bat oladi. Shunday qilib ualrdan keyin yana guruhlardan galdagi o'quvchilar chiqadi va o'qiydi. Shu tariqa o'quvchilar yaxshi o'qishga harakat qilishadi. Bu o'quvchilarni ifodali o'qish bilan birgalikda hamjihatlikda do'stona ishlashga ham o'rgatadi. Qolaversa, bu usulni qo'llashda guruhlardan o'quvchilarni taklif qilib, rollarga bo'lib o'qishni ham yo'lga qo'ysa bo'ladi. Har qanday bola bilimdon bo'lishga intiladi

Qachonki u mustaqil ko'p kitob o'qisa. O'qigan asarini o'zi tushunib, idrok qilib gapirib bera olsa, demak bu o'quvchi asarni to'la tushungan bo'ladi. Ko'pgina o'quvchilar juda qobiliyatli bo'ladi. Ular har qanday topshiriqni tez bajara oladilar. Lekin ba'zi o'quvchilar ravon va mazmunli o'qishga qiynaladilar. Bunday paytlarda bu o'quvchilar bilan darsdan keyin individual shug'ullanishni tavsiya qilaman.

O'quvchilarning individual-psixologik farqlarini hisobga olgan har bir o'qituvchi dars davomida, albatta, tarqatma materiallardan foydalanishga harakat qiladi.

Bu ishlarning barchasi o'quvchilarni mustaqil, ravon va mazmunli, ifodali o'qishga qaratilgandir. O'quvchilar qanchalik ko'p kitob o'qisa shunchalik nutqi ravonlashib, o'z ona tilimizda to'g'ri va ravon o'qiydigan bo'ladi. O'quvchi badiiy kitob o'qiganda, albatta, yoshiga



mos kitobni, mos asarni tanlay bilishi kerak. Bola o‘qigan asarini o‘z o‘rtog‘iga so‘zlab bersagina xulosalar qila oladi.

Xullas, boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatish ularda o‘z ona tilimizga bo‘lgan mehr-muhabbatni yanada oshiradi. Qolaversa, ona tilimizning naqadar go‘zalligi, nafosati va kuch-qudrati qanchalik yuksakligini anglash bilan bir qatorda o‘quvchilarni tarbiyalashda muhim omildir. O‘quvchilar asarlarni ifodali o‘qish bilan birga ularning ijodiy qirralari va tushunchalari ham kengayib boradi. Har bir o‘quvchining taqdiri biz uchun juda muhim. Shunday ekan o‘quvchilarga har tomonlama bilim va tarbiya berish bizning oily burchimiz va maqsadimizdir. Kelajak avlod har tomonlama barkamol bo‘lsa, bu bizning eng katta yutug‘imizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali,2018-yil, 4-soni.
2. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali,2016-yil, 10-soni.
3. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini nutqini o‘stirish” metodikasi,2018-yil.
4. O‘z ish tajribamdan



ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА УЗЛУКСИЗ МА'НАВИЙ ТАРБИЯНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ INNOVATION YO'LLARI

Badalova Jamila Jamolovna,

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar
o'qitish metodikasi ma'naviyat asoslari yo'nalishi 1-bosqich magistranti
Telefon: +998997152302
Badalovajamila88@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ta'lim tizimining o'rni batafsil yoritilgan. Respublikamiz ta'lim tizimida bo'layotgan o'zgarish va islohotlar haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, uzluksiz ta'lim, tarbiya, ma'naviy tarbiya.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'tgan yillarda kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va mazmunini yangilashni ta'minlash maqsadida uning huquqiy bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi, iqtidorli yoshlarning xalqaro va respublika olimpiadalari hamda tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlarida ularni manzilli qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator tizimli chora-tadbirlar ko'rildi.

Darhaqiqat, uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya insonga borliqni anglash sir asrorlarini tushunish, tinimsiz rivojlanayotgan dunyoga moslashish, dunyoqarashini shakllantirish, nihoyat, jamiyatni insonparvarlantirishga hissa qo'shish imkonini yaratadi. Har qanday davlatning qudrati va rivojlanish darajasini aynan ta'lim tizimi aniqlab beradi. Davlatning ushbu tizimga munosabati, uning kelajagini belgilaydi.

O'zbekiston talim tizimida uzviylik va uzluksizlik masalalarini yuqori darajada ko'rib chiqilishi yo'lga qo'yilgan bo'lib, tarkibiy qismlarining funksiyalari aniq belgilangan va o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni tizimli bajarilishini ta'minlashni talab etmoqda. Odatda, davlat talablarni bajarilishini statistik tizim orqali baholanib boriladi. Bunday statistik qarash va baholash o'zining qator ustunliklari bilan ajralib tursada, dinamik tizimlarda ro'y berishi mumkin bo'lgan ba'zi holatlarga e'tibor bilan qarash imkonini beramaydi.

Shu bilan birga, uzluksiz ta'lim kasb-hunar kollejlari amaliy ko'nikma va bilimlarni berishda, oliy ta'limning sifati ta'minlanayotganini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ushbu kollejlarda malakali mutaxassislarini tayyorlash mumkin. Bu jarayonga oliy ta'lim muassasalari mutaxassislik fanlari o'qituvchilarini jalb etish bilan ikki ta'lim turi o'rtasidagi integratsiyani jadallashtirish mumkin. Shu bilan qatorda, oliy ta'limning zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradigan ikki bosqichli tizimi – bakalavr va magistratura yaratilishi ta'lim tizimida yuksak malakali kadrlar yaratish imkoniyatini berdi. Undan tashqari amaldagi oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimining kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning mantiqiy davomi sifatida tubdan isloh qilishning obyektiv zarurati bugungi kunda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning samarali usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish hisoblanadi.



Konsepsiyaning maqsadi – yosh avlodda mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko‘nikma va fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iborat.

Konsepsiya to‘rtta bosqichni qamrab oladi:

birinchi bosqich: oilalarda (homila davri, bola tug‘ilgandan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

ikkinchi bosqich: maktabgacha ta‘lim 3–6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;

uchinchi bosqich: umumiy o‘rta ta‘lim (7 (6) –10 yoshgacha boshlang‘ich sinf, 11–17 (18) yosh);

to‘rtinchi bosqich: ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va OTM tizimidagi yoshlar.

Yetuk kadrlarni tayyorlashda oliy ta‘lim tizimining o‘rni beqiyos ahamiyatga ega ekanligi uzluksiz ta‘limning bu bo‘g‘iniga qaratilayotgan e‘tibordan ham bilib olishimiz mumkin. Buni quyidagi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar miqyosida ham ko‘rishimiz mumkin:

2011-2012 O‘quv yilidan boshlab barcha oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilariga qat‘iy talab qo‘yildi:

-birinchidan, ular zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini;

-ikkinchidan, xorijiy tillar, ayniqsa, ingliz tilini mukammal bilishi kerak. Bu jihatdan o‘quv dasturlari har bir ta‘lim yo‘nalishining o‘ziga hosligidan kelib chiqqan holda qayta ko‘rib chiqilib takomillashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar dunyoning barcha davlatlarida baholanmoqda. Ko‘plab xorijiy davlatning nufuzli shaxslari bizning ta‘lim tizimimiz to‘g‘risida ijobiy fikrlarni bildirishmoqda.

Xususan, Dortmund texnika universiteti professori Gabriele Mentges takidlaganidek, “Mamlakatingizda iqtidorli o‘qituvchi va talabalarni davlat tomonidan keng miqyosda qo‘llab quvvatlash tizimi samarali yo‘lga qo‘yilgan. Imtiyozli stipendiyalar va mukofotlar joriy etilgan, ko‘rik tanlovlarni muntazam o‘tkazish yaxshi an‘anaga aylangan.

Ayni chog‘da O‘zbekistonlik yoshlar xalqaro olimpiadalar, san‘at va madaniyat ko‘rgazmalarida hamisha yuqori saviyada qatnashib kelmoqdalar. Ularning hammasi mamlakat raxbarining ta‘lim-tarbiya sohasiga qaratayotgan yuksak e‘tibori, bu borada amalga oshirilayotgan izchil islohatlar va kompleks chora tadbirlar samarasidir”. Shunday iliq fikrlarni Rene Tollemer, Xalqaro tibbiyot akademiyasi ekspertizasi a‘zosi, Tuluza universiteti professori (Fransiya), Lyuza Serdeyra, universiteti prorektori (Portugaliya), Dayen Adachi, Vashington universiteti vitseprezidenti yordamchisi (AQSh). Ushbu iliq fikrlarning bildirilishi bizning ta‘lim tizimimiz Jahon Hamjamiyati tomonidan tan olinganligini isbotlaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, yurtimizda buyuk ajdodlarimizga munosib izdosh bo‘lish uchun yoshlarimizga barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Buning uchun davlat boshqaruvi tomonidan, zaruriy ta‘lim yo‘nalishlarini va ular bo‘yicha bilim oladigan mutaxasislarga bo‘lgan ehtiyojni belgilash yangi o‘quv-uslubiy asoslarni yaratish hamda boshqa tashkiliy ishlarni amalga oshirish lozim.

Ta‘lim tizimida uzluksiz ma‘naviy tarbiyani amalga oshirish borasidagi muammolar va uning yechimiga qaratilgan nazariy fikrlardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni bildiramiz:

Birinchidan, homilador ayollar uchun har bir mahallada fitness klub –sog‘lomlashtirish markazlari tashkillashtirish va buni Xotin-qizlar qo‘mitasi nazoratga olishi lozim, zero sog‘lom onadan sog‘lom bola tug‘iladi.

Ikkinchidan, bola tug‘ilgandan so‘ng uni bog‘chaga olib boramiz, qanday bog‘cha u shunaqa bo‘lishi kerak, o‘zbek xalq qahramonlari timsolidagi o‘yichoqlar bolalarimiz uchun berilishi kerak qanaqadir ko‘kragi chiqib turgan barbilar emas, qanaqadir shoxdor otlar emas, boychiborlar bo‘lsin.

Uchinchidan, oliy ta‘limda talaba o‘z yo‘nalishi bo‘yicha amaliyotni keng o‘tashi uchun imkoniyat yaratish lozim, nega tibbiyot sohasi kasalxonada kasal bilan ishlaydiyu iqtisodchi bankka borib mijoz bilan ishlaymaydi, shu sohaga ko‘proq e‘tibor qaratish lozim, ma‘lum muddatda talabaga berilayotgan amaliyot uchun vaqt o‘zini oqlamaydi.



PRINCIPLES OF COOPERATION IN ENGLISH CLASSES

Bakiyeva Durdona Bakhtiyorovna,
The master degree of TashSPU after named Nizami

Annotation: In this article the author pays attention to the role and principles of cooperation in English classes.

Keywords: Cooperative, principle, educational approach.

Cooperative learning is an educational approach which aims to organize classroom activities into academic and social learning experiences. There is much more to cooperative learning than merely arranging students into groups, and it has been described as “structuring positive interdependence. Students must work in groups to complete tasks collectively toward academic goals. Unlike individual learning, which can be competitive in nature, students learning cooperatively can capitalize on one another’s resources and skills (asking one another for information, evaluating one another’s ideas, monitoring one another’s work, etc.). Furthermore, the teacher’s role changes from giving information to facilitating students’ learning. Everyone succeeds when the group succeeds. Ross and Smyth (1995) describe successful cooperative learning tasks as intellectually demanding, creative, open-ended, and involve higher order thinking tasks. Cooperative learning has also been linked to increased levels of student satisfaction.

Five essential elements are identified for the successful incorporation of cooperative learning in the classroom:

- Positive independence
- individual and group accountability
- promotive interaction (face to face)
- teaching the students the required interpersonal and small group skills
- group processing.

According to Johnson and Johnson’s meta-analyses, students in cooperative learning settings compared to those in individualistic or competitive learning settings, achieve more, reason better, gain higher self-esteem, like classmates and the learning tasks more and have more perceived social support.

Formal cooperative learning is structured, facilitated, and monitored by the educator over time and is used to achieve group goals in task work (e.g. completing a unit). Any course material or assignment can be adapted to this type of learning, and groups can vary from 2-6 people with discussions lasting from a few minutes up to an entire period. Types of formal cooperative learning strategies include:

1. The jigsaw technique
2. Assignments that involve group-solving problem and decision making
3. Laboratory or experiment assignments
4. Peer review work (e.g. editing writing assignments).

Having experience and developing skill with this type of learning often facilitates informal and base learning. Jigsaw activities are wonderful because the student assumes the role of the teacher on a given topic and is in charge of teaching the topic to a classmate. The idea is that if students can teach something, they have already learned the material.

Informal cooperative learning incorporates group learning with passive teaching by drawing attention to material through small groups throughout the lesson or by discussion at the end of a lesson, and typically involves groups of two (e.g. turn-to-your-partner discussions). These groups are often temporary and can change from lesson to lesson (very much unlike formal learning where 2 students may be lab partners throughout the entire semester contributing to one another’s knowledge of science).

Discussions typically have four components that include formulating a response to questions asked by the educator, sharing responses to the questions asked with a partner, listening to a partner’s responses to the same question, and creating a new well-developed answer. This type of learning enables the student to process, consolidate, and retain more information.

In group-based cooperative learning, these peer groups gather together over the long term (e.g. over the course of a year, or several years such as in high school or post-secondary studies) to



develop and contribute to one another's knowledge mastery on a topic by regularly discussing material, encouraging one another, and supporting the academic and personal success of group members.

Base group learning (e.g., a long-term study group) is effective for learning complex subject matter over the course or semester and establishes caring, supportive peer relationships, which in turn motivates and strengthens the student's commitment to the group's education while increasing self-esteem and self-worth.

Base group approaches also make the students accountable to educating their peer group in the event that a member was absent for a lesson. This is effective both for individual learning, as well as social support.

There are many reasons why competitors tend to achieve less than they would if they were working cooperatively. And there have also been many studies claiming cooperative learning is more effective than competitive learning and individualistic efforts. But studies also show that competition and individualistic efforts can be constructive and should be encouraged when they are appropriately structured.

1. Conditions for Constructive Competition

1. Winning is relatively unimportant
2. All participants have a reasonable chance to win.
3. There are clear and specific rules, procedures, and criteria for winning.

2. Conditions for Constructive Individualistic Efforts

1. Cooperation is too costly, difficult or cumbersome because of the unavailability of skilled potential cooperators or the unavailability of the resources need for cooperation to take place.
2. The goal is perceived as important, relevant, and worthwhile
3. Participants expect to be successful in achieving their goals.
4. The directions for completing the tasks are clear and specific, so participants do not need further clarification on how to proceed and how to evaluate their work.
5. What is accomplished will be used subsequently in a cooperative effort.

Used literature:

1. Ross, J., & Smythe, E. (1995). Differentiating cooperative learning to meet the needs of gifted learners: A case for transformational leadership. *Journal for the Education of the Gifted*, 19, 63-82.

2. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Holubec, E. J. (1994). *The nuts and bolts of cooperative learning*. ^ eMinnesota Minnesota: Interaction Book Company.

3. Johnson, D.W. (2009). "An Educational Psychology Success Story: Social Interdependence Theory and Cooperative Learning". *Educational Researcher*. 38 (5):365-379. doi:10.3102/0013189x09339057. S2CID 54187981.

4. Gilles, R.M., & Adrian, F. (2003). *Cooperative Learning: The social and intellectual Outcomes of Learning in Groups*. London: Farmer Press.

5. May, M. and Doob, L. (1937). *Cooperation and Competition*. New York: Social Sciences Research Council

6. Sharan, Y (2010). "Cooperative Learning for Academic and Social Gains: valued pedagogy, problematic practice". *European Journal of Education*. 45 (2): 300–313. doi:10.1111/j.1465-3435.2010.01430.x.

7. Johnson, D., Johnson, R. (1975). *Learning together and alone, cooperation, competition, and individualization*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

8. Johnson, D., Johnson, R. (1994). *Learning together and alone, cooperative, competitive, and individualistic learning*. Needham Heights, MA: Prentice-Hall.



SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSIDA OILADA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH MAZMUNI.

Berdiyarova Matluba Rabimkulovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 2-umumiy o'rtta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi.

Primqulova Nodira Axadqulovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 2-umumiy o'rtta ta'lim maktabi
O'zbek tili fani o'qituvchisi.

Annotatsiya. Sharqona tarbiya ming yillar mobaynida islomiy axloq qoidalari asosida tarkib topib borgani tarixdan ma'lum. Qur'oni Karim oyatlari, Payg'ambar alayhissalom hadislari, ulamo va hukamolarimizning kitoblari tarbiyamizning manbayi bo'lib xizmat qilgan.

Kalit so'zlar. Aqliy tarbiya, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya, vijdoniy-nafsoniy tarbiya, diniy-ruhiy tarbiya, Qur'oni Karim oyatlari, Payg'ambar alayhissalom hadislari, ulamo, biologik omil, ijtimoiy omil, Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, etika.

Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan. Islomiy tarbiya bolani yetti jihatdan tarbiyalashni maslahat beradi. Bular: sog'liq va badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya, vijdoniy-nafsoniy tarbiya, diniy-ruhiy tarbiyadir. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam „Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, tarbiyasini, odobini ham yaxshilanglar!“ deganlar. Shu bilan birga, „Hech bir ota o'z farzandiga xulq-odobdan yaxshiroq meros qoldirolmaydi“ deb, tarbiyada ota-onaning rolini belgilab o'tganlar. Islomiy (sharqona) tarbiya barcha mo'min-u musulmonlarni nihoyatda xush xulqli, shirin so'zli, oliyanob bo'lishga da'vat etadi. Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvori shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir etadi: biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta'sir etadi. O'rtta Osiyo mutafakkirlaridan Farobiy, Abu Ali Ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berib kelganlar. Farobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: «munosib inson» bo'lishi uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yashirishga olib boradigan yullar deydi. Abu Ali ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda yoritib berishga yordam beradi. U ayniqsa oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa oila baxtli bo'ladi degan fikrni ilgari suradi. Bola shaxsining rivojlanishiga, kamol topishiga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda, ota-onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarni takrorlanishini tushunmoq kerak. Har bir bolaga ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochning, ko'zning, terisining rangi, buyi-basti va boshqalar) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. Bularning barchasi jismoniy xususiyatlarga kiradi. Bulardan tashqari oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tug'ma utadi. Bu esa fiziologik xususiyat hisoblanadi. Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan yana biri bu muhitdir. Muhit deganda kishiga stixiyali ta'sir etadigan tashqi voqealar komplekti tushuniladi. Bunga tabiiy muhit ijtimoiy muhit, oila muhiti kiradi. SHular bilan birga miromuhit – oila sharoiti ham katta ta'sir kuchiga ega. CHunki bola ko'z ochib otaonasini, qarindosh urug'ini ko'radi. Bola kamolotida ijtimoiy muhit muhim bo'lib hisoblanadi. CHunki bu yerda ishlab chiqish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar alohida ta'sir qiladi. Bu xil munosabat natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi. Inson kamolotida ijtimoiy muhitning ta'siri turli tarixiy davrda turlicha bo'ladi turli sotsial guruhlarga ham turlicha ta'sir etadi. SHunday ekan, hozirgi zamon muhitga, uning inson bo'lib rivojlanishidagi ta'sirining roliga alohida e'tibor beradi. Tarbiya muhit kabi inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Uning farqli tomoni va xususiyati shundaki, tarbiya aniq maqsadni ko'zlab, sistemali ravishda insonda ijobiy fazilatlarini tarkib toptirish yo'lida tarbiyachining rahbarligida amalga oshirib boriladi. Ota-bobolarimiz do'stlikni yuqori darajada qadrlashgan. Do'sti yo'q odamni qurigan daraxtga, jisman mavjud bo'lsa ham qalbini o'lik murdaga o'xshatishgan. Do'sti ko'p odamni hurmat qilishgan. Do'st orttirish uchun mehnat qilish, birovlarining yukini



ko'tarib mushkulini oson qilish kerakligini uqtirishgan. Rivoyat. Ulug' shoir Alisher Navoiyning Paxlavon Muhammad degan shogirdi ham do'sti bor ekan. SHoir uni juda yaxshi ko'rar, shogirdi bo'lsa ham qarddon, sirdosh do'sti, deb bilar ekan. Kunlardan bir kuni Pahlavon Muhammad kichik bir gunoh qilib qo'yib, shu tufayli Sulton Husaynning qattiq g'azabiga uchrabdi. Voqea bunday bo'libdi: Sulton Husayn g'azab otiga minib turgan bir paytda Pahlavon Muhammadning gunoh ish qilib qo'rganini yetkazishibdi, Husayn Boyqaro: - Pahlavonning soqol-mo'ylovini qirib tashlanglar, so'ng kaltadum libos kiydirib, ko'cha-ko'yda sazoyi qilinglar,- deb buyruq beribdi. Pahlavonning bunday jazoga giriftor bo'lganini Alisher Navoiyga aytishibdi. Navoiy, agar bu jazo amalga oshirilsa, Pahlavon Muhammadning izzat-nafsi kamsitilib, u bunga chiday olmasligini anglab, uni bunday sharmandalikdan qutqazish harakatiga tushibdi. Tezlikda Husayn Boyqaro huzuriga yetib borib: - Sultoni bokaram, ma'lumingizki, men va Pahlavon Muhammad yoshligimizdan bir xil kiyinamiz, birga soqol-mo'ylov qo'yib, do'st-birodar bo'lib yuramiz. U boshqa kiyinib, men boshqa kiyib yursam, o'rtadagi ahd buzilib, gapimiz tuzsiz, o'zimiz subutsiz bo'lib qolamiz. Buyursangiz, mening soqol-mo'ylovlarimni qirsinlar, menga ham huddi Pahlavon Muhammadga berilgandek kalta libos kiygizilib, do'stim bilan birga sazoyi qilsinlar,- debdi. Navoiyning shogirdi hamda do'stiga bo'lgan sadoqatini, mehr-oqibatini ko'rgan Husayn Boyqaro g'azabidan tushib qolganini o'zi ham bilmay qolibdi-da: - Pahlavonning gunohidan o'tdim, jazo qoldiril-sin, - deb farmon beribdi. Biz tarixda katta njobiy fazilatlar bilan kom qozongan ulug' bobolarimizdan hamisha ibrat olib yashaymiz. Oklada, maktabda, ko'cha-kuyda, mahallada, davralarda yoshlarimizni do'st orttirishga chaqiramiz. Yeshlikda bog'langan do'stlik iplari mustahkam bo'ladi, uni g'iybat, tuhmat shamollari uza olmaydi. Do'sting bilan bir umrga bog'lanib qolsang, kayfiyating yaxshi bo'lsa, uni baham ko'rgani, diqqat bo'lsang uni yozgani do'stingnikiga borasan, mehmon bo'lasan yoki do'sting ham shunday holatlarda senikiga keladi, ko'nglini yozadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. J.O.Tolibova. Pedagogik texnologiyalar – do'stona muhit yaratish omili. - T.: 2005.
2. Y.Rasulova,D.Maqsudova « Tarbiyaviy ishlar metodikasi »
3. www.ziyouz.com



PECULIARITIES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE TO GROWN-UPS

Fayziyeva Aziza Shokirovna,
English teacher of the SSS №11, Navoi

Abstract: This article discusses about the features of teaching a foreign language to grown-ups learners. The necessary pedagogical conditions are determined for productive study of a foreign language by grown-ups identifying the aspects of solving this issue.

Key words: foreign language, grown-up students, linguistic experience, motivation, pedagogical conditions, approach.

Nowadays the globalization of society a large number of grown-ups feel the need to learn a foreign language in order to become a participant in international activities and communication in the expansion of international relations and cooperation with other countries in the field of politics, economy and culture. Despite this, many grown-ups have some difficulties of learning a foreign language. Knowing and taking into account some of the features of teaching a foreign language to grown-up students will help to optimize the learning process and make the best use of teaching methods. According to psychologists logical memory improves with the age but short-term memory got worse. A favorable factor is compensates for individual shortcomings with the interconnectedness and coordination of functions [4]. For example, accumulated experience and well-developed logical thinking will help to fill up the amount of short-term memory.

Linguistic experience can demonstrate both of negative and positive effects on the period of effectiveness of learning. Lack of knowledge in the native language can be difficult of making understanding and assimilation for grammatical and lexical constructions.

In contrast, a high level of knowledge of the mother tongue can inhibit to the study of a foreign language, since the grown-up students need to express their own thoughts about rich life experience which contradicts the possibilities in a foreign language and causes numerous errors. Even though this practice proves that linguistic experience in learning one foreign language helps in successful learning second foreign languages.

Moreover, motivation plays an important role in grown-up's learning, which encourages a person to act and mobilize his internal energy and directs his actions. While working with grown-up audience, our attention should require to the personality of each student and taking into account his social role. To create suitable comfortable conditions for increasing students' speech is required an activity of a striving for natural and informal communication, which is characterized by responsiveness, participation and direct attention to the interlocutor. The tone should be interesting and trusting. In addition, to create the emotional comfort of students in interpersonal relationships, one person should take into account not only the level of language proficiency but also group members' age. It is necessary to evaluate the results of students to correct their mistakes and reward for successes and efforts. Following A.V. Ballastov it is possible to identify several pedagogical conditions for the effective teaching of grown-ups a foreign language. According to many scientists, the main differences between grown-up students are follows as: [1]

1. A grown-up student is an independent and self-governing person including educational experience who has his own life experience.
2. Each grown-up student has his own specific motivation to learn a foreign language, which is most often associated with his professional activity.
3. A grown-up learner directly tries to put theoretical knowledge into practice in everyday and professional life.
4. A grown-up student has rather high requirements for the quality of training and its results.

Based on all of the mentioned above, the main pedagogical principles in teaching a grown-up group of students the principle of joint activities and the practical orientation of training are to individualization and into reliance on experience. The teacher's role in organizing training is to providing advice about knowledge and the necessary of quality.

Many psychologists identify eight important features in grown-up learning.

1. The grown-up learners must act a motivation to learn. Their studies will be effective only if they have new strong desire skills about master. Motivation cannot be imposed but can be



stimulated from the outside.

2. A grown-up student will only study about importance and necessity of practical use what they consider.

3. A grown-up learners learn in the process. If they have the opportunity to put their knowledge into practice, consolidating and repeating them regularly the new knowledge will last longer than with “passive” training.

4. While we are teaching grown-ups it is necessary to use realistic problems from practical life and look for a specific solution.

5. Previous life experience has a great impact on a grown-up learner. How a student depends on his previous life experience perceives new knowledge directly.

6. A grown-up students need an informal atmosphere, having an unpleasant memories associated with school activities.

7. When teaching a grown-up group of students, it is necessary to remember the use of different teaching methods. Learning will be more effective if new knowledge is perceived by several senses, for example; by sight and by hearing. Audio recordings, visual aids and videos contribute to a better assimilation of knowledge. And the discussion method of training helps student to consolidate the knowledge better, increasing, applying and attracting the attention.

8. Grown-up learners should be directed but not “evaluated.” Many of their abilities are critical of themselves so competition can negatively affect them because the fear of public condemnation [3].

Interpersonal interaction is one of the most important conditions for effective and successful grown-up learning of a foreign language. Taking into account the psychological characteristics of interpersonal interaction improves the learning process and leads the most effective grown-up learning. I believe that for successful grown-up learning of a foreign language is necessary constant interaction of the student and teacher at all stages of the educational process from planning to results. G.A. Kitaigorodskaja notes that the need is “to create those situational variations in which the student himself is forced to activate his creative abilities, mobilize his attention and whip up his memory under the influence of the emotional experience of events” [2].

For grown-up students I usually use role-playing games, modeling real life situations in the urgent application of new knowledge skills and abilities. It’s important in connection with them. In addition, as I said before, grown-ups have more motivation to study than children and adolescents, so the teacher needs to support and manage it in order to achieve the planned result. For better memorization of new words, I usually use visual images and associations. Instead of assessing the knowledge of students by the teacher the most effective way is to evaluate the results by the student himself and then discuss them with the teacher. Thus, we are talking about desire to develop a “competency-based” approach, which implies the formation and creation of opinions, relationships and development of various competencies. All these goals correspond to the expectations of a grown-up student.

References:

1. Ballastov A.V. The practical application of information technology in adult education for professionally oriented foreign language communication in a non-linguistic university. Bulletin of TPU. 2012. No 4. S. 74-79.

2. Kitaigorodskaja G. A. Optimal organization of the educational process during intensive teaching of foreign languages of adults / G.A. Kitaigorodskaja Psychology and methodology of teaching foreign languages. M. 1978.

3. Kozlova O. V. Integrative technology of teaching adults a foreign language / O. V.Kozlova // Modern high technology. - 2005. No 8. S. 135-137.

4. Nemov R.S. Psychology: textbook for adults. Executive ped. textbook. institutions: in 3 books. 4th ed. / R. S. Nemov. M: Humanity ed. Center VLADOS. 2003. 688 p.



TARBIYA FANINI O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSIDAN FOYDALANISH

Hakimova Nasiba Totliboyevna
Navoiy viloyati Karmana tumani
30- maktab tarbiya fani o'qituvchisi
+99893 318 30 80

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida tarbiya darslarida ilmiy bilimlarni berish bilan birga ajdodlar merosi, sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi qarashlarini yosh avlod qalbiga singdirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, Vatan, axloq, odob, ta'lim, ma'naviyat, ma'rifat

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Umumta'lim maktablarida tarbiya fanini o'qitish dolzarb masalalardan biridir. Tarbiya darslarida ajdodlarimiz merosi, mutafakkirlarimiz o'g'itlarini o'quvchilar qalbi va ongiga singdirish muhim ahamiyatga ega.

Barcha zamonlar donishmandlari yoshlar tarbiyasi haqida bosh qotirib kelishgan. Abu Nasr Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U "Insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l — ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir", deya ta'kidlaydi. Olim, o'z navbatida, ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Shuning uchun ushbu g'oyalardan jamiyatning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlashda, ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashda foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'lumki, ulug' mutafakkir Abu Ali ibn Sino merosida ilm va axloq uyg'unligi masalasi alohida o'rin tutadi. Allomaning "Tadbiri manzil" risolasida tarbiya masalasi ko'proq tahlil etilgan. Xususan, "Tadbiri manzil"da inson tayyor shaxsiy sifat, odat va ko'nikmalar bilan tug'ilmasligi qayd etiladi. Bunday xususiyatlar odamning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy va o'zgalari tajribasi, avvalgi ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiya o'zgalarning ta'siri ostida shakllanadi. Shaxs kamolotida ijobiy fazilat va odatlarni qaror toptirish qanchalik qiyin va mushkul bo'lsa, ma'naviy qiyofaga yopishib olgan salbiy jihat va odatlardan xalos bo'lish shunchalik murakkabdir.

Alixonto'ra Sog'uniy tarbiya xususida shunday yozadi: "Yolg'iz insonga emas, barcha jonlik mavjudotlarda ta'lim-tarbiya ta'siri ko'z oldimizda ko'rilib, buning natijalari butun dunyoga tarqalib turmoqda. O'qitish-o'rgatish buyon tursin, suhbat o'zi ham, suhbatdoshlarga o't bilan suvdek tez o'tadi. Shuning uchun ham har kimga, suhbat yo'ldoshlariga qarab baho beriladi".

Navoiy inson qadr-qimmatini uning mol-mulki, zeb-ziynati, mansabi yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatleri, undan elga qanchalik naf tegishi bilan belgilanishini ko'p marta takrorlagan. Shoir she'rlaridan birida:

Tut bargichalik qimmatini yo'qmi?

Ipak qurtichalik himmatini yo'qmi?

- deya insonni o'ylashga, o'ylaganda ham o'z hayotidan kelib chiqib xulosa qilishga chorlaydi. Shu ikki satrda insonning dunyoga kelishidan tortib, bu yorug' olamda yashashining tub mohiyati ochib berilgan.

Shoirning quyidagi so'zlari ham tahsinga sazovor: "Kishilarning so'z bilan naf yetkazish qo'lidan kelmasa, loaqal ko'nglidagi andishasi yaxshi bo'lishi kerak. Ko'ngli odamlarning xursandligidan xursand bo'lishi lozim. Kimning xalq g'amidan g'ami bo'lmasa, haqiqiy odam bo'lsang, uni odam dema".

Bu fikrlarning tub negizida tarbiya yotganligini anglab olish qiyin emas.

Zero, Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, "Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari sharqona tarbiyaning noyob qo'llanmasi sifatida bugungi kunda ham o'zining qadri va ahamiyatini yo'qotgan emas. Biz "Tarbiya" fanining nazariy asoslarini ishlab chiqishda mana shunday bebaho asarlardan samarali foydalanishimiz zarur".



Demak, anglashiladiki, biz “Tarbiya” fanini o‘qitishda uzoq-yaqin o‘tmishimizda yashab o‘tgan ulug‘ zotlar merosidan, qolaversa, umuminsoniy qadriyatlardan unumli foydalanishimiz kerak bo‘ladi. Ana shular asosida yaratilgan yangi fan farzandlarimiz tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz. Barkamol avlodni tarbiyalash orqali esa oldimizga qo‘ygan ulkan maqsadga erishamiz — mamlakatimizda uchinchi Uyg‘onish ko‘z ochadi.

Nafaqat bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog‘ati ham shak-shubhasiz ta‘lim va tarbiya tufaylidir. Hayot olamida, shubhasiz, tarbiya singari insoniyatga ta‘sirli narsa yo‘qdir. Shu sababdan qadimdan mashhur donishmandlar tarbiya to‘g‘risida qimmatli fikrlarni yozib qoldirganlar.

Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmiy va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan bunday nodir asarlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo‘lib yetishishlariga undagan.

Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat “Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e‘tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o‘xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar”, deydi.

Darhaqiqat, nafaqat bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog‘ati ham shak-shubhasiz ta‘lim va tarbiya tufaylidir.

Alloma nazdida bolalar tarbiyasini barvaqt boshlagan ma‘qul: “Bola tana bo‘g‘inlari barqaror bo‘lgan, uning tili to‘g‘ri, ravon gapirish va quloqlari tinglash va o‘zgalar so‘zlarini qabul qilish hamda o‘rganilayotgan narsaga (tabiiy) moyillik paytdan boshlab uni ilmlar va axloq-odob (asoslari)ga o‘rgatib borish lozim”.

Yuqoridagilardan shu narsa ma‘lum bo‘lmoqdaki, hamma vaqt tarbiyada butun ish nafaqat ota-onalarga, balki go‘zal axloq va ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan ustoz-muallimlarning sa‘y-harakatiga ham bevosita bog‘liq. Bunda ishni tashkil qilish shakllarinigina emas, ayni paytda, ishlashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish shartlarini bilish ham muhimdir.

Ta‘lim va tarbiyaning o‘rtasida ochiq-oydin farq bor. Ta‘lim tarbiyaning bir juz‘idir. Tarbiya esa ta‘limni o‘z ichiga oladi, aksincha emas. Demak, tarbiya o‘z-o‘zidan ta‘limga nisbatan komil va keng qamrovlidir. Islomiy tarbiyaning ma‘nosi esa jamiyatda har taraflama komil inson shaxsiyatini barpo qilish va albatta, bu tarbiya ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarni o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi. PF-4947 sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2017-yil 7-fevral.

2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 23-avgust kuni “Yoshlarni Vatandarparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchi mavqeini oshirish masalasi”ga bag‘ishlangan videoselekttdagi ma‘ruzasi. 2019-yil 27-avgust №19750-xh

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida «tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-sonli qarori.

4. A.Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq», «O‘qituvchi» nashriyoti., T.1993 yil.

5. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri» «A.Qodiriy» nashriyoti. T. 1993 yil.

6. A.Navoiy, Asarlar. O‘n besh tomlik. Uchinchi nashr. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1977, 29-30-betlar

7. <http://www.edunet.uz> – maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti.



PIRLS TADQIQOTLQRIDA MATN VA TOPSHIRIQLAR BILAN ISHLASH

Hosilova Xurshida Saydulloyevna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

26-umumiy o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolamda hozirgi kunda xalqaro tadqiqotlardan PIRLS ni boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida matn va topshiriqlar bilan ishlashda qo'llaniladigan tavsiyalar haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'qish, matn, tushunish, idrok etish, ko'nikma.

O'qish savodxonligi-jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Ushbu nuqtai nazar o'quvchilarning o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga toboro ko'proq e'tibor qaratiladigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

PIRLS, odatda, 4-sinf o'quvchilarining keng qamrovli to'rtta tushunish jarayonini baholaydi. Bular: diqqatni jamlash va aniq axborotni talqin qilish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish, uyg'unlashtirish, konspekt va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir.

O'quvchilar matndan ma'no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o'quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko'pgina hollarda muallif matnni o'quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi.

O'quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g'oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg'unlashtirishda konkret yoki umumiy ma'nolarga e'tibor berishlari yoki tavsilotlarni umumiy mavzular va g'oyalar bilan bog'lashlari mumkin. To'liq javob berish uchun o'quvchidan barcha matnni yoki hech bo'lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

Matnni baholash va tanqidiy taxlil qilish quidagilarni o'z ichiga oladi:

- Matnda berilgan ma'lumotning aniq va to'liqligini baholash;
- Tasvirlangan voqeani haqiqatan sodir etilishi ehtimolini baholash;
- Matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini bahalash;

PIRLS tadqiqotida tushunib o'qishni baholashga yo'naltirilgan topshiriqlar quyidagi foizlarda taqsimlanadi:

- Aniq ko'rinishda berilgan ma'lumotni topish 20%;
- To'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish 30%;
- G'oyalar va axborotni umumlashtirish, talqin qilish va uyg'unlashtirish 30% O'qish savodxonligi o'quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi va baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash: Toshkent-2019
2. WWW.ziyonet.uz.



YOSH AVLODNI HAYOTGA TAYYORLASHDA TEXNOLOGIYA FANINING AHAMIYATI.

Ibragimova Kamola Rahimovna
Toshkent shahar Shayxontohur tumani
41-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya. O'sib kelayotgan yosh avlodni kelajak hayotga tarbiyalash, kasb – hunarga o'rgatish ishlarni amalga oshirish – muhim ijtimoiy-siyosiy va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan umummilliy masaladir.

Kalit so'zi: g'oya, qiziqish, ijodkorlik, harakat, natija.

Xalqimizda “Bola boshidan” degan ajoyib naql bor. Bu bolalarni eng kichik yoshidan boshlab mehnat qilishga, kattalarni hurmat qilishga, bilim olishga o'rgatish zarurligini ifodalaydi. Shu sababli ham yosh avlodni halol mehnat qilishga, turli kasb-hunarni egallashga o'rgatib borish xalqimizning muqaddas an'anasidir. Zero har qanday davlat va jamiyatning taraqqiyoti hamda kelajagi bilimli va tarbiyali yoshlar qolidadir. Yoshlarga ta'lim berish bilan birga ularning ongiga milliylikni singdirish, xalqimizning boy ma'naviy qadriyatlarini asosida tarbiya berish, ularda axloqiy tushunchalarni shakllantirish, o'quvchilarni qiziqishlari asosida kasb tanlashlari – bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

“Ta'lim to'g'risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi qonunlardan ko'zlangan asosiy maqsad – ta'lim-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, jahon andozalari talablariga javob beradigan mutaxassis-kadrlarni tayyorlashdan iborat. Yosh avlodga zamonaviy texnologiyalar asosini o'rgatish, ularni ishlab chiqarish sohalariga tayyorlash texnologiya fani o'qituvchilarining asosiy vazifasidir.

Shu qatorda Ibn Sino: “o'quvchida axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy, aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi”. Komil Xorazmiyning fikricha, “ ilm-hunar, ilmu-ma'rifat inson ahloqiy kamoloti, ijtimoiy ma'naviy hayotning rivoji uchun xizmat qilishi kerak”.

Ma'lumki, texnologiya darslari maktabda eng uzoq vaqt o'tiladigan o'quv fanlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Texnologiya fani o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar majmuidir.

Axborot oqimi keskin ortgan davrda mustaqil fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, har qanday yangilikni o'rganishga erkin kirisha oladigan shaxsni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi va bu borada ta'limda yangi texnologiyalarning qo'llanishi, interaktiv usullardan keng foydalanish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Sharq mutafakkirlari” 2016-yil T. “Sharq”
2. Sharipov Sh.S. va boshqalar. Mehnat ta'limi 2012-240 b
3. Qo'ysinov O.A., Tohirov O'.O., Mamatov D.N, Aripova D.F. Mehnat ta'limi. 5-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.. “POYTAXT-PRINT” MCHJ, 2016.-176 b



CHALLENGES ENCOUNTERED BY TEACHERS IN MANAGING INCLUSIVE CLASSROOMS IN UZBEKISTAN.

Plieva Ruslana Vladimirovna,
Teacher of the Department “Preschool Education”,
Gulistan State University

Abstract: The purpose of the study in which this paper is derived was to identify challenges encountered by teachers in managing inclusive classrooms in Uzbekistan. The literature review shed light on the various aspects of inclusive education from the classroom to the outside environment to the teachers involved in inclusive education. However, the literature indicates that with proper training and resources, inclusion can be a practical and effective learning environment. It can be concluded that mainstream teachers generally lacked confidence as they attempted to include students with disabilities into classes. The study recommends that The Ministry of Education should consider increasing the availability of special needs courses, workshops and conference for teachers in primary schools who are working with students with disabilities.

Keywords: Inclusion, Classroom, Inclusive Education, Special Education, Mainstream

ПРОБЛЕМЫ ВОЗНИКАЮЩИЕ С ПРЕПОДАВАТЕЛЯМИ ПРИ УПРАВЛЕНИИ ИНКЛЮЗИВНЫМИ КЛАССАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ.

Плиева Руслана Владимировна,
преподаватель кафедры “Дошкольное образование”
Гулистанского государственного университета

Аннотация: Целью исследования, в рамках которого была подготовлена данная статья, было выявление проблем, с которыми сталкиваются учителя при управлении инклюзивными классами в Узбекистане. Обзор литературы осветил различные аспекты инклюзивного образования - от класса до внешней среды и учителей, занимающихся инклюзивным образованием. Однако в литературе указывается, что при наличии надлежащей подготовки и ресурсов инклюзия может стать практической и эффективной средой обучения. Можно сделать вывод о том, что основным учителям, как правило, не хватало уверенности, когда они пытались включить в занятия учащихся с ограниченными возможностями. В исследовании рекомендуется, чтобы Министерство образования рассмотрело вопрос об увеличении доступности курсов, семинаров и конференций для учителей начальных школ, работающих с учащимися с ограниченными возможностями.

Ключевые Слова: Инклюзия, класс, инклюзивное образование, специальное образование, главное направление

ЎЗБЕКИСТОНДА ИНКЛЮЗИВ СИНФЛАРНИ БОШҚАРИШДА ЎҚИТУВЧИЛАРДА ЮЗАГА КЕЛАДИГАН МУАММОЛАР.

Плиева Руслана Владимировна,
“Мактабгача таълим” кафедраси ўқитувчиси
Гулистон Давлат Университети

Аннотация. Тадқиқотнинг мақсади, унинг доирасида ушбу мақола тайёрлаш бўлиб, Ўзбекистонда инклюзив синфларни бошқаришда ўқитувчилар олдида турган муаммоларни аниқлашдан иборат эди. Адабиётларда инклюзив таълимнинг турли жиҳатлари - синфдан бошлаб, то ташқи муҳитгача ва инклюзив таълим билан шуғулланувчи ўқитувчиларгача ёритиб берилган. Бирок, адабиётлар шуни кўрсатадики, тўғри ўқитиш ва мавжуд ресурслар билан амалий ва самарали таълим муҳитини яратиш мумкин экан. Бундан шундай хулоса қилиш мумкинки, ўқитувчилар, одатда, ногирон ўқувчиларни дарсларга жалб қилишга ҳаракат қилганларида ўзларида ишонч етишмаган. Тадқиқот халқ таълими вазирлигига ногирон ўқувчилар билан ишлайдиган бошланғич синф ўқитувчилари учун курс, семинар ва анжуманларни оширишни тавсия қилади.



Калит сўзлар: инклюзия, синф, инклюзив таълим, махсус таълим, асосий йўналиш

Введение

Несмотря на многочисленные усилия, предпринятые для успешного внедрения инклюзивного образования в начальных школах Узбекистана, учителя по-прежнему сталкиваются со многими проблемами при реализации этой программы. Многие учителя испытывают трудности с внедрением инклюзивного образования по разным причинам. Инклюзивное образование-это попытка предоставить особые услуги исключительным детям в наименее ограничительной среде (Ainscow and Caesar, 2006). Это говорит о том, что исключительный ребенок будет помещен к нормальным сверстникам и получит специальные услуги, обучаясь в обычных классах, а не в специальных классах (Kirk, Gallagher, Anastasiow, Coleman, 2006). Эта позиция должна помочь ребенку максимально взаимодействовать со своими нормальными сверстниками. Существует множество факторов, которые привели к переходу на учет исключительных детей. Некоторые из них включают наблюдение, что многие дети были неправильно классифицированы как умственно отсталые, когда они не были умственно отсталыми, что многие специальные классы показали мало полезных результатов и что эти классы обычно понимались как классы для проблемных детей, а не коррекционные центры (Kirk et al, 2006).

Согласно Ландсбергу (Landsberg, 2011), инклюзия-это развитие инклюзивных сообществ и систем образования. Она основана на системах ценностей, которые поощряют и отмечают различия и разнообразие, обусловленные полом, национальностью, расой, языком, социально-экономическим происхождением, культурным происхождением, уровнем академических достижений и инвалидности. Ainscow (2002) согласен с Burden (2000), когда он описывает инклюзию как процесс, в котором школы, общины, местные органы власти и правительство стремятся уменьшить барьеры на пути участия и обучения для всех граждан. Для Бута (2000) инклюзия выходит за рамки школы и связана с уменьшением отчуждения от культуры. Это означает ценить и относиться с уважением ко всем в школе и обществе, что требует веры в каждого человека, что он способен внести свой вклад в общество.

Компетенции учителей

Компетентность учителя является центральной чертой преподавания и обучения. Они становятся более критичными, когда мы думаем о включении. В этой связи Сварт и Петтифер (Swart and Pettifer, 2007) считают педагогов ключевой силой в определении качества инклюзии. Поэтому нет никаких сомнений в том, что они могут, если им будет оказана поддержка, управлять инклюзивными классами. Педагоги как ключевые фигуры в успешной реализации политики инклюзивного образования, их компетенции в этой области имеют первостепенное значение. Кроме того, в статье "Готовность учителей к инклюзивному образованию" Хэй, Смит и Паулсен (2001) подчеркивают, что эффективная реализация программы зависит от высокого качества профессиональной подготовки учителей всех уровней для оснащения их и обновления их знаний в работе со смешанными группами способностей. Это подтверждается Винтером (Winter, 2006), когда он указывает, что учителя, которые готовы продолжать развивать свои навыки, должны быть обучены целому ряду вопросов, чтобы их вклад мог быть ценным. Он также рекомендует, чтобы преподаватели, в частности, обладали компетенцией в области коммуникативных навыков и междисциплинарной работы, некоторыми необходимыми знаниями об общих недостатках, управлении поведением, последствиях бедности и социальной депривации и навыками выявления всего вышеперечисленного с помощью процессов оценки.

Обсуждение

Учителя сошлись во мнении, что они испытывают некоторые трудности при попытке внедрить инклюзивное образование. Swart & Pertipher (2007) говорят, что в настоящее время большинство учителей сталкиваются с трудной задачей в своих уроках. Эти проблемы возникают в результате привлечения учащихся с особыми потребностями в обычные классы, где учителя, как ожидается, будут продолжать использовать существующую учебную программу для обучения учащихся, которые ранее не входили в основной поток. Внедрение инклюзивного образования пока не является оптимальным из-за многих проблем. Например, дети, родители и учителя, участвующие в этой программе, не готовы в полной мере



участвовать в ней. До сих пор те, кто ходит в обычные школы, - это те, чей интеллект средний и выше и кто готов участвовать в регулярной деятельности.

Большие классы могут рассматриваться как препятствие для успешной реализации инклюзивного образования. Вествуд (Westwood, 2004) говорит, что большие классы предъявляют дополнительные требования к обычному преподавателю, усиливая при этом озабоченность тем, что все учащиеся могут не получать должного времени или внимания от учителя. Van Reusen (2001) говорит, что число учащихся с ограниченными возможностями не может превышать двадцати (20), если в основном классе есть один ученик с ограниченными возможностями. В некоторых школах считалось, что в одном классе от шестидесяти до семидесяти учеников.

Недостаточная подготовка учителей не позволяет им контролировать преподавание и обучение в инклюзивных классах. Одним из упущенных аспектов инклюзии является то, что она успешна, когда учитель получает необходимую подготовку. Слишком часто инклюзивное образование в Узбекистане означало помещение ребенка-инвалида в обычный учебный класс при незначительной поддержке со стороны учителей, поскольку им не хватает подготовки и развития. Согласно Ландсбергу (Landsberg, 2011), педагоги, обучающие учащихся с препятствиями к обучению, требуют специальной подготовки. Базовая профессиональная подготовка, такая как начальный уровень, должна подготовить педагога к реагированию на широкий спектр потребностей учащихся. Все педагоги должны быть готовы учитывать разнообразие учащихся и признавать потребность некоторых учащихся в альтернативном обучении.

Выводы

Можно сделать вывод о том, что учителям, как правило, не хватало уверенности, когда они пытались включить в занятия учащихся с ограниченными возможностями. Это может быть результатом недостаточной подготовки. Важность проведенного исследования дает яркую картину того, как происходит процесс реализации инклюзивного образования. Нет никакого прогресса, если есть проблемы, с которыми сталкиваются педагоги.

Список использованной литературы

1. Ainscow, M. (2002) Using research to encourage the development of inclusive practices. In: P. Farrell and M. Ainscow (Eds.) Making Special Education Inclusive. London: Fulton.
2. Ainscow, M. (2009). Psychology for Inclusive Education. New Direction in theory and Practice. London: Routledge.
3. Ainscow, M. & Cesar', M. (2006). Inclusive Education, Ten years after Salamanca: Setting the Agenda. European Journal of Psychology of Education. 21 (3)231-238.
4. Booth, L. (2000). Inclusion and Exclusion: who controls the Agenda Inclusive education. London: David Felton.
5. Broaderick, A. (2005). Differentiating Instruction for Disabled Students in Inclusive Classrooms. Theory into practice Vol.44:194-202. Burden, A.(2000). Inclusive education: back to the future with commitment and common sense- case studies.
6. Kirk, S.A., Gallagher, J.J., Anastasiow, N.J and Coleman, M.R. (2006). Educating Exceptional Children (11th edition). Boston: Houghton. Mifflin.



“QUTLUG‘ QON” ROMANI TO‘G‘RISIDA

Jahongir Fayzullayev

Toshkent farmatsevtika instituti

Sanoat farmatsiyasi fakulteti II kurs 204-“A” guruh talabasi

+998(97)7701204

Annotatsiya. Oybek «Qutlug‘ qon» romanini 1937 yillarda yoza boshladi. 1940 – yilda chop etilgan «Qutlug‘ qon» romani – badiiy jihatdan yetuk asar. Unda mamlakat o‘tmishidagi hayot haqiqati mohirona ko‘rsatilgan. O‘zbek xalqining 1917 – yil to‘ntarish arafasidagi og‘ir hayoti, ozodlik yo‘lida olib borgan kurashlari keng va atrofficha tasvirlangan.

Kalit so‘zlar. Oybek, asar, roman, yozuvchi, akademik.

Oybek — yetuk prozaik edi. Uning qator romanlari, ko‘plab qissalari o‘zbek nasri rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Yozuvchining nasriy asarlari millat vakillari ruhiyatini aks ettirish jihatidan o‘ziga xos o‘rin tutadi. Oybekning prozaik asarlari orasida “Qutlug‘ qon” romani alohida badiiy qimmat bilan ajralib turadi. Adib bu asarni yozishga qatag‘on avj olgan mash‘um 1937-yillarda kirishgan edi. Zarifaxonim shunday xotirlaydi: “Biz har kuni ertalab hali u, hali bu tanishimizning qamaliganini eshitamiz. Kunlar nihoyatda betinch. Hamma ziyolilar “xalq dushmani” deb e‘lon qililib qamalmoqda. Na kunduz halovat bor, na tunda — uy-quda. Har daqiqa tashvish, har daqiqa yurak titroqda. Biz bolalarni qo‘rg‘onda qaynota-qaynonamga qoldirib, ikki temir karavotni bog‘ning chetiga ko‘chirdik. (Go‘yo bizni bog‘dan topisholmaydiganday)...

Oybek... butun yoz ichi bog‘dan chiqmay ijod qildi. Oybek buyuk iroda egasi edi. Shuning uchun ham u o‘ta tahlikali va fojiali kunlarda, g‘urbat yutib kechirilgan hayotda “Qutlug‘ qon”day go‘zal va o‘lmas bir asarni yaratdi”.

Tahlikali vaziyatda bo‘lishiga qaramay, roman ilhom og‘ushida shiddat bilan yozilgan. Bu haqda adibning sinfdoshi, adabiyotshunos olim Homil Yoqubov keyinchalik: “Oybek shu qadar qizg‘in ilhom bilan qalam tebratdiki, olti oy badalida milliy ozodlik harakatida mehnatkash xalq ongining munavvarlashishi-ni tasvirlagan, badiiy jihatdan yuksak asar “Qutlug‘ qon”ni yozib bitirdi”, — deb eslaydi. Ehtimol, adib hayotdagi adolatsizlikni, zulm-zo‘rlukni ko‘rmaslik, undan o‘zini chalg‘itish uchun butun e‘tiborini romanga qaratgandir. Yozuvchi bunga qadar nasrda boryo‘g‘i bir necha hikoyagina yaratgan edi xolos. Lekin hayotni sin-chiklab kuzatgan, dunyo adabiy tajribalaridan chuqur xabardor, atrofida ro‘y berayotgan hodisalardan kuchli ta‘sirlandigan qalb egasi Oybek yirik nasriy asar yozishga ruhan tayyor edi.

Yozuvchi qo‘lyozma ustida jiddiy ishlab, 1939-yilda asarni yozuvchilar uyushmasida muhokama qildirdi. Muhokama chog‘ida ayrim kishilar adibni asarga inqilobchi kuchlarni, rus proletariati vakillarini kiritmaganlikda aybladilar. So‘ng yozuvchi romanda shu jihatni kuchaytirishga, unga revolyutsioner Petrov timsolini kiritishga majbur bo‘ldi.

Roman asosida 1916- yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon yotadi. O‘sha vaqtda o‘n bir yoshli o‘smir bo‘lgan Oybek bu voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Bo‘ljak yozuvchi u paytda ko‘rganlarining asl mohiyatini anglamagan bo‘lsa-da, milliy ozodlik yo‘lidagi qo‘zg‘olon o‘smirning ta‘sirchan ko‘nglidan chuqur o‘rin olgandi.

Nazardan qochirmaslik kerakki, Oybek uchun qo‘zg‘olon va uning sabablarini ko‘rsatish asosiy maqsad emasdi. Qo‘zg‘olon to‘g‘risida birorta ilmiy-tarixiy yo‘nalishda maqola yozishi ham mumkin edi. Adib bu davr kishilari ruhiyatini, ularning ko‘nglidagi ezgulik va yomonlikka munosabatni, yangilanib borayotgan davr va unda yashashi lozim bo‘lgan odamlar tabiati o‘rtasidagi muvofiqlik va zidlikni aks ettirmoqchi edi. Shuning uchun ham asar markazida qo‘zg‘olon emas, balki Yo‘lchi, Gulnor, Shokir ota, Mirzakarimboy, Yormat, Tantiboyvachcha singari kishilar taqdiri turadi.

Romanning bosh qahramoni Yo‘lchi — mard, halol, oqko‘ngil, olijanob yigit. Ma‘lumki, inson o‘zi qanday bo‘lsa, o‘zgalari haqida ham shunday o‘ylaydi. Shuning uchun ham Yo‘lchi shahardagi qarindoshlardan mehr-u muruvvat kutadi. U o‘ziga qilinadigan yaxshiliklar evaziga halol mehnati bilan 33 badal to‘lay oladi. Buni siz romanda yigitning mehnatdan qo‘rqmasligi, ishning ko‘zini bilishi tasvirlangan o‘rinlardan payqab olasiz. Yo‘lchi kunda kav-lash, beda o‘rish singari kuch talab etiladigan og‘ir ishdan ham, mehmonlarga xizmat qilishday yumushlardan ham og‘rinmaydi.

Oybek asl inson qanday tabaqadan chiqqan bo‘lishiga qaramay, uni yengib bo‘lmasligini aks



ettiradi. Shuning uchun ham na Mirzakarimboy, na Tantiboyvachcha, na o'ris to'ralar Yo'lchini o'zi to'g'ri deb bilgan yo'ldan qaytara oladi. Chunki yigit puli, mavqeyi, mansab-u martabasi bo'lmasa ham o'zini ulardan past hisoblamaydi. Ular ko'rsatgan noto'g'ri yo'ldan yurishni esa, pastkashlik sanaydi.

Yo'lchining zulmga, zo'rlikka qarshi qo'zg'algan xalqqa qo'shilishi ham, bu to'daning yetakchisiga aylanib qolishi ham uning tabiatidagi kurashchanlik va adolatga tashnalik tuyg'usidan. Muhimi shundaki, adolatga intilgan odam kuchli bo'ladi. Hazrati Temurning: "Kuch — adolatda", — degan hikmati bejiz emas. Chunki adolat yo'lini tutgan odam Haq o'zi tomonda ekanini biladi, haq hamisha adolatning qaror topishiga yordam qilishiga ishonadi. To'g'ri, Yo'lchi maqsadiga erisholmadi, u bosh qo'shgan kurash g'alaba bilan tugamadi. Chunki zulmni, adolatsizlikni, yovuzlikni yengish hech qachon oson bo'lmagan. Lekin Yo'lchi haq yo'ldan qaytmagani, vijdoniga, imoniga xiyonat qilmagani, ezgulikka ishonib, uni qaror toptirishga intilib yashagani bilan tirikdir.

Adabiyotlar

1. Yoqubov H. Adibning mahorati. Toshkent, O'zadabiynashr, 1966.
2. Qo'shjonov M. Oybek mahorati. Toshkent, O'zadabiynashr, 1965.
3. Karimov N. Oulybek. Toshkent. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
4. Saidnosirova N. Oybegim mening. Toshkent: Sharq, 1994.



MOTIVACIYA-PEDAGOGIK FAOLIYAT MUVAFFAQIYATINING ASOSI

Jiemuratova Dilnoza Pirniyazovna
Nukus shahar 27 sonli maktab o'qituvchi
Telefon:+998913882939
d_jiemratova@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada psixologik-pedagogik tadqiqotlar doirasida shaxsning motivatsion kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun kasbiy mahoratini shakllantirish va takomillashtirish, uning yuqori cho'qqisiga-professionallikka erishish nazariyalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Muvaffaqiyat, motivatsiya, mutaxassis, psixologik-pedagogik tadqiqotlar, rivojlanish, o'qituvchi shaxsi, malakali mutaxassis, his-tuyg'ular, ko'nikmalar, rag'batlantirish,

Hozirgi vaqtda har qanday sohada mutaxassisni tayyorlash nafaqat mutaxassis sifatida uning kasbiy rivojlanishining yuqori darajasini, qobiliyatligini, harakatchanligini, balki uning shaxsiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Zamonaviy jamiyatni yangilash, qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish sharoitida ta'limning ijtimoiy va kasbiy ta'sirini izchil va to'liq amalga oshiradigan, erkin tanlashga, ijod qilishga va o'zini anglashga tayyor avlodni tarbiyalashga qodir o'qituvchiga ehtiyoj paydo bo'ldi.

Bo'lajak mutaxassisni, professionalni rivojlantirish va professionallikni shakllantirish uzoq, murakkab va ko'p bosqichli jarayondir. Bu ishchi shaxsni predmet, vakolatli va malakali mutaxassis, yetuk shaxs sifatida shakllantirishni o'z ichiga oladi. Turli psixologik-pedagogik tadqiqotlar doirasida shaxsning motivatsion sohasining ahamiyati nafaqat kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun, balki ushbu sohaning kasb tanlash, kasb tayyorlash, kasbiy mahoratini shakllantirish va takomillashtirish, uning yuqori cho'qqisiga - professionallikka erishish uchun ahamiyati isbotlangan.

Faoliyatning turli sohalarida (kasbiy, ilmiy, ta'limiy) o'zini namoyon qiladigan, masalaga ijodiy, faol munosabatni belgilaydigan va ishning tabiati va sifatiga ta'sir ko'rsatadigan bunday keng turtki shakllarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Bunday motivatsiyaning asosiy turlaridan biri bu o'z qobiliyatlari va qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyati mavjud bo'lgan joyda odamning biznesni yuqori darajada bajarishga bo'lgan xohishini belgilaydigan yutuq motivatsiyasi. Muvaffaqiyat motivatsiyasi tashabbuskorlik, mas'uliyat, mehnatga vijdonan munosabat, maqsadlarni belgilashda o'z imkoniyatlarini baholashda realizm va boshqalar kabi shaxsiy xususiyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lishi juda muhimdir [1].

Erishishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar har bir kishining muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun sabablari borligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, hamma odamlar muvaffaqiyatlarga qiziqish va muvaffaqiyatsizlik haqida tashvishlanish qobiliyatiga ega. Biroq, har bir shaxsda yutuq motivi yoki muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik motivi bo'yicha boshqariladigan asosiy tendensiya mavjud. Amalda, yutuq motivi biron bir faoliyatning mahsuldorligi bilan bog'liq va muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik sababi tashvish va himoya harakati bilan bog'liq.

Insonning taqdiri va uning jamiyatdagi mavqeyi, shuningdek, kasb yutuqlari ko'p jihatdan uning muvaffaqiyatga erishish motivi yoki muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik motivida ustunlik qilishiga bog'liq. Qayd etilishicha, muvaffaqiyatga erishish uchun ko'proq aniq istagi bo'lgan odamlar, hayotda u sust ifodalangan yoki yo'q bo'lganlarga qaraganda ko'proq narsaga erishadilar. Muvaffaqiyat motivi muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik va kerakli natijaga erishish uchun shaxsning barcha mavjud usullar bilan ehtiyojini aks ettiradi. Muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik motivi ko'pincha har qanday vosita va vositalar yordamida xatolar, muvaffaqiyatsizliklardan qochish uchun ruhiyatida ishlab chiqilgan mexanizm sifatida ko'rib chiqiladi. Muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun motivatsiyasi ustun bo'lgan odam uchun asosiy narsa xato qilmaslik, asl, asosiy maqsad, uning to'liq yoki qisman muvaffaqiyatsiz o'zgarishi evaziga ham xato qilmaslikdir. Shunga ko'ra, muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya ustunlik qiladigan o'qituvchi professional vazifalarga ijodiy yondoshadi, natijalarni aks ettiradi, o'z ishidagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik sabablarini tushunadi va mahalliyashtiradi (bu holda ichki nazorat markazining ustunligi), rivojlanish va o'zini o'zi rivojlantirish yo'llarini aniqlaydi va hokazo. .

O'qituvchi muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun shakllangan motivatsiya bilan



(yutuqqa intilishning past darajasi) o'z faoliyatida uni amalga oshirish usullarini o'quv jarayonida o'zlashtiradi, ko'pincha reproduktiv bo'lib, tashqi sharoitlardagi muvaffaqiyatsizliklar sabablarini (tashqi nazorat lokallari) ko'rib chiqadi va shuning uchun o'zini rivojlantirish zarurligini anglamaydi.

O'qituvchining o'zini o'zi namoyon qilishi, o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi rag'batlantirishga uning ijodiy va ma'naviy salohiyatini har tomonlama va uzluksiz rivojlantirish, uning barcha imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, boshqalarni, dunyoni va undagi o'rni munosib idrok etish, hissiy sohaning va ma'naviy hayotning boyligi, ruhiy salomatlik va axloqning yuqori darajasi kiradi.

Shaxsning motivatsion sohasi dinamik, u hissiyotlar bilan chambarchas bog'liq va ularga ta'sir qiladi. Aksincha, his-tuyg'ular motivatsiya kuchini, davomiyligini va barqarorligini aniqlashi mumkin. Motivatsion soha insonning xohish-irodasini belgilaydi va uning shaxsiyatining hissiy-ixtiyoriy sohasini o'zgartiradi.

Shaxsning motivatsion sohasini shakllantirish mexanizmi: ehtiyojni anglash, uni rag'batlantirish - ehtiyojni motivga aylantirish - motivni anglash. Motivning kuchi shaxsning qaytarib bo'lmaydigan intilishlarining ko'rsatkichidir. U ehtiyojlarni anglash chuqurligi va motivning intensivligi bilan baholanadi.

O'qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyati motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu guruh o'qituvchilarining hissiy barqarorligi va stressga chidamliligini tasdiqlovchi tajribali o'qituvchilar tomonidan kam tajribaga ega. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan salbiy omillar ko'p jihatdan o'rtacha kasbiy darajadagi o'qituvchilarga xalaqit beradi, bu esa mutaxassisning kasb mahoratini rivojlantirishga shaxsiy-individual xususiyatlarining ta'sirini tasdiqlaydi[2].

Xulosa qilishimiz kerak bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, "kuchli" va "zaif" o'quvchilar bir-birlaridan aql-idrok jihatidan unchalik farq qilmaydi, chunki o'quv faoliyati va kasbni tanlash uchun motivatsiya. Bundan tashqari, yuqori ijobiy motivatsiya zarur bilimlar, ko'nikmalar yoki yetarlicha rivojlanmagan maxsus qobiliyatlar mavjud bo'lganda kompensatsion omil rolini o'ynashi mumkin.

Shunday qilib, o'qituvchi shaxsining motivatsion sohasi uning akmeologik yo'nalishi bilan ajralib turadi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati uchun motivatsiya va motivlarning shakllanishi va rivojlanishi ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi kerak. Bu kasbiy va shaxsiy rivojlanish samaradorligi, yaqinlashib kelayotgan kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati va o'qituvchining professionalligini shakllantirish uchun zarur shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кулмышева Г.К., Орманова З.К., Джексенбаева К.О., Жунисбекова Ж.А. Мотивационная сфера педагога как фактор успеха педагогической деятельности // Международный журнал экспериментального образования. – 2015. – № 12-2. – С. 200-204;
2. Бажанова. С.В. Акмеологические факторы развития мотивации профессионально-педагогической деятельности преподавателей высшей школы. автореферата по ВАК РФ 19.00.13.2004



KIMYO FANINI MUAMMOLI O‘QITISH. MUAMMOLI YONDOSHUV

Jubanova Genjagul Aymuratovna

Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Nukus shahri Muhammad al -Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Nukus filiali akademik litseyi kimyo fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada kimyo fanini o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyasi tahlil etilgan bo‘lib, unda muammoli yondashuv asosida dars o‘tish tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: kimyo, muammoli o‘qitish, texnologiya, muammo.

Muammoli o‘qitish o‘zaro bog‘langan ikki: muammoli o‘qitish va muammoli o‘rganishdan tuzilgan. Muammoli ta’lim – bu o‘qituvchining talabalarni ketma-ket muammoli vaziyatlar tizimini oldindan o‘ylab qo‘yilgan yaratish yo‘li bilan muammoli o‘rgatish shartlarini ta’minlash va ularni talabalar tomonidan echish jarayonini boshqarish bo‘yicha faoliyatidir. Muammoli o‘rganish – o‘quvchilarning bilimlar va muammoli vaziyatni tahlil qilish, muamoni ifodalash va ularni echish faoliyat usullarini – taxminlarni o‘rtaga tashlash, asoslash va farazni isbotlash orqali o‘zlashtirishi bo‘yicha ijodiy o‘quv faoliyatini maxsus tuzilishidir. Muammoli o‘qitish deganda, o‘qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatlarni qo‘yish va ularni echish bo‘yicha o‘quvchilarni faol mustaqil faoliyatini ko‘zda tutadigan va natijada ijodiy ravishda kasbiy (yoki predmet) bilim, ko‘nikma va malaka (BKM) lari ijodiy egallangan hamda ijodiy qobiliyat-larini rivojlantiradigan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish tushuniladi. Kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlarni o‘qitishda foydalaniladigan muammoli texnologiyaning maqsadi: o‘quvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallatish, ular tomonidan mustaqil faoliyat usullarini o‘zlashtirish, ularning bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Muammoli o‘qitishning muammoli o‘qitish psixologik aspektlari;

- an’anaviy o‘qitish bilan muammoli o‘qitishni taqqoslash;
- muammoli o‘qitish xususiyatlari; • muammoli o‘qitish turlari;
- muammoli o‘qitishni yaratish usullari;
- muammoli o‘qitish qoidalari mavjud.

Muammoli o‘qitish: frontal, guruhiy va yakkama-yakka ko‘rinishlarda amalga oshirilishi va unda tashkil etiladigan mashg‘ulotlarning turli shakllari (ma’ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlari) da qo‘llanilishi mumkin. Kimyo fanini muammoli o‘qitishda o‘qituvchi o‘quv jarayonining rahbari bo‘lib qoladi, lekin an’anaviy guruhdagi kabi bilimlarni ma’lum qiladigan odam rolidan chiqishi va o‘quvchilarning aqliy amallarini rivojlantiruvchi, kuzatuvchi bo‘lishi zarur. Xatolarni to‘g‘rilaydi, vazifalarning gumonli joylarini tushuntiradi. Kimyo fanidan tashkil etiladigan muammoli o‘qitishni amalga oshirish jarayoni, o‘zi muammo bo‘lgan: «kimyo fanini muammoli o‘qitishni muvaffaqiyatli eplashlari uchun o‘qituvch qanday tayyorgarliklardan o‘tishlari kerak?» degan juda muhim masalani ko‘taradi. Kimyo fannidan dars olib boradigan o‘qituvchi o‘qitish mazmunini tushuntirishi, shu bilan birga tadqiqot metodlarini yaxshi egallagan bo‘lishi kerak. Muammoli vaziyat asosidagi o‘qitishda tashkilotchi rolida chiqa turib, o‘qituvchi o‘quvchilar uchun tayyor bilimlar manbasi, uni tashuvchisi va direktivi emas, balki ko‘proq rahbar va hamkor bo‘lishi mo‘ljallanadi. Kimyo fani bo‘yicha muammoli darslarga tayyorlanish mobaynida o‘qituvchi:

- o‘quvchilar duch keladigan vaziyatlarni muammoli ekanligini ziyorlik bilan sezishi va guruh oldiga o‘quvchilar tushunadigan holda maxsus fanga oid haqiqiy o‘quv masalalarini qo‘yishni bilishi;

- kimyo fani bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan bajarilayotgan barcha jarayon (vazifalarni hal etish, muammoni qo‘yish, yechish, natijani tekshirish va hokazolar)ni muvofiqashtiruvchisi va o‘quvchilarga hamkor vazifalarni bajarish;

- o‘quvchilarni muammo va uni chuqur tadqiq etish jarayoniga jalb etishga, ijodiy fikrlayotgan o‘quvchilarni ustalik bilan qo‘yilgan savollar yordamida rag‘batlantirishga harakat qilish;

- o‘qituvchi o‘quvchilarning shaxsiy yechimlarini topishda qilgan harakatlarida qo‘yib yuborgan xatolariga o‘zining yordamini taklif etgan holda chidam va toqatli bo‘lish yoki



o'quvchilar o'zlarining yechimini izlashlarida ishonchsizlik hosil qilayotgan paytlarda, ularni zarur axborot manbalariga yo'llab yuborish kabi tajribalarni egallashi lozim. Muammoli o'qitishning kimyo faniga oid o'quv jarayonidagi roli va o'zni. Muammoli o'qitish metodini maxsus fanning umumlashtirilgan bilimlarini tushuncha, qoida, qonun, sabab oqibatli va boshqa mantiqiy bog'lanishlarni o'zlashtirish uchun qo'llash mumkin. U kimyo fanidan bilim olayotgan va izlash masalalarini yechishda bevosita kerak bo'ladigan aqliy faoliyat usuli hamda yo'llariga o'quvchilarni maxsus o'qitish masalasi qo'yilganda zarur bo'ladi.

Muammoli o'qitish o'quvchilarni o'rab turgan borliqni bilish metodlari bilan qurollantiradi, maqsadga muvofiq kuzatish ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi, ularni asoslash orqali asosiy qonuniyatlarni umumlashtirish va xulosa qilish qobiliyatlarini tarbiyalaydi, ularda mumkin bo'lgan tadqiqot ishiga qiziqishni uyg'otadi. O'quvchilar maxsus fanlardan o'rganilgan holatlarning mohiyatini tezroq anglaydilar va asoslangan javoblar beradilar. Ularda maxsus fanga nisbatan bilish talablari va qiziqishlari rivojlanadi, maxsus fanlarga oid materiallarni egallashda ularning bilish faoliyati faollashadi, kasbiy faoliyatga zarur bo'lgan bilimlarni egallaydilar, bilimlarida ishonch va qat'iylik tarbiyalanadi, chunki farazlarni o'rta o'quvchilarning o'zlari tashlaydilar va o'zlari ularni isbotlaydilar. Muammoli o'qitishning afzalliklari, ijobiy va yaxshi tomonlari bilan bir qatorda, uning kamchiliklari ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaniyozova M. T. —Ilg'or pedagogik texnologiyalar va ularni amalda qo'llash fanidan ma'ruza matni. Toshkent-2010.
2. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metod.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.



TEKNOLOGIYA DARSLARINI YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA OLIB BORISHNING SAMARADORLIGI.

Kuranboyeva Tursunoy Matyokubovna

Xorazm viloyati Urganch tuman 7-maktab

Texnologiya fani o'qituvchisi. Tel:+998975176570

Annotatsiya: ushbu maqolada texnologiya darslarinida foydalaniladigan metodlar haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, integratsiya, bilim, ko'nikma, dars samaradorligi.

Respublikamizda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida fanlararo aloqadorlik asosida o'qitishni o'quv jarayoniga keng tadbiiq qilish masalasi hozirgi paytda umumta'lim maktablarida dolzarb muammo qilib qo'yilgan. Texnologiya darslarida integratsiyalab o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarini qo'llash, o'quv-uslubiy ta'minot muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta'limi tizimini takomillashtirish xamda ularning o'quv-tarbiya jarayoniga Axborot kommunikatsion va zamonaviy pedagogik hamda kompyuter texnologiyalarini tadbiiq etish respublikamizda ta'lim tizimining rivojlanishi va e'tiborga olinganligidan dalolatdir. Har bir mavzu mazmunini yoritishda uning mohiyatini o'quvchilar tomonidan chuqur, ilmiy asoslangan holda tasavvur etishlari, vaqtdan unumli foydalanish, nazariy bilimlarini amalda, hayotga va ishlab chiqarishga qo'llash imkoniyatlarini keng yoritish, ularning politexnik tushunchalarini kengaytirish maqsadida har bir texnologiya o'qituvchisi darslarini yangi pedagogik texnologiyalar va fanlararo integratsiyalashgan holda olib borishi maqsadga muvofiq.

Quyidagi pedagogik texnologiyalarni texnologiya darslarida qo'llash yaxshi natija beradi:

- izohli — illustratsiya materiallaridan foydalanib dars jarayoni tashkil etiladi;
- reproduktiv — tafakkur faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni;
- produktiv — bu metod unumli daraja deb ham ataladi. Bunda oldin egallagan bilimlar asosida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan evristik faoliyat vujudga keladi;
- ijodiy daraja — bu faoliyat baholashga tegishli bo'lib, o'quvchi egallangan bilimlari asosida yangi axborot izlab topadi va ijod qiladi.

Bu dars usullari o'quvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirib, kasbiy sifatlar hamda ma'naviy dunyoqarashni shakllantiradi. Darsda "Muloqot", "Nazorat darsi", "Suhbat", "Viktorina", "Ari uyasi", "Texnik hujum", "Oyda qolib ketmaylik", "Taqqdimot", "Ijodkor kim", "Bugungi ishni ertaga qo'yma", "O'zing o'yla, o'zing top, o'zing yasa", "Eng boy o'quvchi", "Arra", "Intellektual ring", "Bilimlar qasriga sayohat", "Mozaika", "Domino", "Zinama-zina", "50x50", "Zanjir" kabi metod, o'yin va mashqlardan foydalanish samara beradi.

Masalan, "Yog'och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlash" mavzusini o'rgatishda darsning mustahkamlash qismida "O'zing o'yla, o'zing top" o'yin mashqidan foydalanilsa, "Intellektual ring" o'yin mashqi va "Eng boy o'quvchi" metodi orqali integratsiyalashgan jarayonni vujudga keltirib, ingliz tilida so'zlashish muhitini paydo qilish mumkin. Yangi mavzu "Sapyor" o'yini va "Nilufar guli" graforganayzer sxemasi asosida tayyorlangan tarqatma materiallar bo'yicha mustahkamlanadi. Uyga vazifa qilib, mavzuga oid test savollari tuzib kelishni topshirish mumkin.

O'quvchilarni darslikdan unumli foydalanishga o'rgatish fan o'qituvchisining vazifasidir. Bunda o'qituvchi darslikdagi nazariy ma'lumotlar asosida amaliy mashg'ulotni bajarish bosqichlarini namunali tashkil etsa, o'quvchi darslikdan ko'rib, o'rganib, unga ijodiy yondashgan holda mustaqil ravishda darsda va darsdan tashqari vaqtlarda, uyda ham bajarishi mumkin. Bu jarayon o'quvchini o'z ustida ishlashga, izlanishga, mustaqillikka o'rgatadi. Faqat 1-sinf darsligida berilgan topshiriqni bajarishda albatta o'qituvchi, ota-ona, aka-opalarning yordami kerak bo'ladi.

Texnologiya amaliy fan bo'lgani sababli o'quvchilar bilan nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida ham shug'ullanish lozim. To'garakka o'quvchilarni jalb etish, mashg'ulotlarni ularning qiziqishi va qobiliyatiga mos tashkil etish ta'lim samaradorligini oshiradi. To'garak mashg'ulotlari yillik taqvim rejasini maktabning ichki sharoiti, hududiy moslik, urf-odatlariga ko'ra tuzish maqsadga muvofiqdir. Texnologiya darslarini ana shunday zamonaviy usul va metodlar yordamida olib borish o'quvchilarning ta'lim muassasida bilim olish bilan



cheklanib qolmay, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Biz texnologiya o'qituvchilari esa o'quvchilarning bu qiziqishlarini amalga oshirishda bor salohiyatimiz va mehnatimizni ayamaymiz.

Muxtasar aytganda, Texnologiya mashg'ulotlari samaradorligini oshirish uchun o'qituvchi darsga ijodiy izlanib tayyorgarlik ko'rishi lozim. Har bir o'qituvchi o'z ustida ishlashi, ta'lim portallaridan turli buyumlarni tayyorlash texnologiyalarini o'rganishi, dizayn loyihalaridan namunalar olgan holda ijodiy yondashib foydalanishi lozim. O'qituvchi kasbiy kompetentligini oshirishda mustaqil ta'limning o'rni katta. Kasbiga doir kerakli ma'lumotlarni egallashi va muntazam ravishda ta'lim sohasidagi modernizatsiyalash jarayonlari bilan tanishib borishi hamda yangiliklarni dars jarayoniga tatbiq etishi o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., SHaripov SH.S., Qo'ysinov O.A. O'rta maxsus, kasbhunar va oliy ta'lim integrasiyasi. Metodik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2006.



О'РТА ОСИЙОДА MAVJUD MILLIY MEHNAT AN'ANALARI NEGIZIDA HUNARMANDLAR TAYYORLASHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK TIZIMI

Kurbanova Shoira Djayliboyevna

Samarqand viloyati Bulung'ur tumani

19-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

E-mail: **kabrorxonovna@mail.ru**

Tel: +998997779980

Annotatsiya: maqolada ta'lim tizimida milliy mehnat an'analari namunalaridan foydalanish mexanizmi atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: milliylik, O'rta Osiyo, an'ana, hunarmand, pedagogika, pedagogic tizim, o'quvchi, komil inson.

“O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilishniig o‘ta muhim prinsiplaridan biri uning milliy yo‘naltirilganligi — ta’limning milliy tarixi, xalq an‘analari va urf - odatlari bilan uzviy uyg‘unligi, O‘zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va yanada boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotining o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash”dir.

Shu bois mamlakatimizning istiqloq yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim — tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida isloh etib, oldimizga qo‘yilgan buyuk maksadlarimiz, ezgu niyatlarimizga erishishimiz mumkinligiga amin bo‘lmoqdamiz.

O‘rta asrlarda Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida yashab, ijod qilgan xalqlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotidagi ilg‘or o‘zgarishlar shaharlarda ulkan tarixiy obidalarni, savdo-sotiqni, hunarmandchilikni, san’atni, ayniqsa ta’lim - tarbiya tizimini gullab yashnashiga imkoniyat yaratib bergan.

Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom va boshqalarning adolat, umumxalq baxti, fozil odamlar shahri, do‘stlik va tinchlik, fan va ma’rifat, ustoz va shogirdlar o‘rtasidagi munosabatlar, inson tarbiyasi haqidagi insonparvarlik ruhidagi qarashlarini ijtimoiy - pedagogik yo‘nalishlar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Keyinchalik bu g‘oyalar al-Hamadoniy, Abdurahmon Jomiy, Jalol-al Din Davoniy, al—Kashiy, Burxon-ad-Din Zarnujiy, al-Xanafiy, Mir Abu Tohir Sadriy Samarqandiy, Ahmad Ibn Nosr as-Sidiqiy, al-Buxoriy va boshqa buyuk olim-fuzalolarning pedagogik dunyoqarashlarining konseptual negizlariga aylandi. O‘rta asr mutafakkirlarining ilmiy, manaviy va intellektual merosi XIX asrlarning oxiri va XX asr boshlarida Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarini milliy ta’lim tizimiga tadbiq qilingan, qolaversa xalq hunarmandchiligi sohalari bo‘yicha ustalarini tayyorlash tizimiga ta’siri dunyoviy ta’lim doirasida inson shaxsini ijtimoiy - pedagogik ishlab chiqish bilan uzviy bog‘liqligini yaratish omili bo‘ldi. O‘rta asr olimlarining bizgacha yetib kelgan asarlari, sharhlari, badiiy va san’at asarlari, Markaziy Osiyoda VIII-XIII asrlar davomida ta’lim-tarbiyaniig bir butun falsafiy-pedagogik konsepsiyasi ishlab chiqilganligidan va kasb-hunar egallab mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishning konseptual negizlari yo‘lga qo‘yilganligidan dalolat beradi. Shuning bilan bir qatorda, mazkur davrda hunarmandlarning muayyan sohalar bo‘yicha tabaqalanishi, ular tashkiliy-tarkibiy jihatdan birlashib hunarmandchilik uyushmalari yuzaga kelgan. O‘rta asrlarda usta-hunarmandlar oilalari kasb-hunarga oid bilim va mahoratni avloddan avlodga o‘z shogirdlari va izdoshlariga meros qilib qoldirganlar. Demak, har bir hunarmand oilasi o‘sha zamonlarda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy maqomiga, ya’ni o‘zining «iqtisodiy o‘rniga» ega bo‘lgan.

Afsuski, O‘rta asrlar davridagi kasb-hunar sirlarini o‘rgatishga oid tajribalar, o‘zbek xalqi an‘analari bo‘lgan usta-hunarmandlar tayyorlash tizimi va ularning mohiyatini ilmiy anglash hozirgi zamon kasb-hunar pedagogikasining predmetiga aylanmagan. Shuningdek, O‘rta asrlarda islom jamiyatining ma’naviy, moddiy, ijtimoiy taraqqiyotini yuksaltiruvchi asosiy omillardai biri bo‘lgan va o‘rta asrlarda Sharq pedagogik tafakkuri taraqqiyotini ta’minlab bergan ta’lim-tarbiya konsepsiyasi, shu jumladan kasb-hunar ta’lim-tarbiya konsepsiyasi, yetarli darajada o‘rganilmagan.

“O‘rta asrlarda usta-hunarmandlar tayyorlash ijtimoiy-pedagogik tizimi” ni o‘rganib chiqish quyidagi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar bilan xarakterlanadi:



- 1) ta'lim, tarbiya jarayonini demokratlashtirish, insonparvar-lashtirish va ijtimoiylashtirish. Davlat va ijtimoiy siyosatda shaxs manfaatlari va ta'lim-tarbiyaning ustuvorligini e'tirof etish;
 - 2) milliy o'zlikni anglashning yuksalishi, vatanparvarlik, vatan g'ururi hissini, xalqning milliy madaniy-tarixiy an'analari va intellektual merosini hurmat qilish va e'zozlash;
 - 3) ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini hozirgi paytda, jamiyatimizda o'tkazilayotgan tub o'zgarishlar bilan uzviy bog'lash;
 - 4) kadrlar tayyorlash tizimining mazmun-mohiyati va tuzilmasi tarkibini, mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda, qayta tashkil qilish;
 - 5) yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda hamda ma'naviy-axloqiy va jismoniy rivojlantirishda oila, korxonalar, ijtimoiy tashkilotlar, mahalla, xayriya va xalqaro jamg'armalarning rolini kuchaytirish bo'yicha tegishli tadbirlarni amalga oshirish.
- Shuniig uchun ham milliy o'zlikni anglash, xalqning manaviy-axloqiy va aqliy qadriyatlarini tiklash borasida, o'rta asr Sharq buyuk mutafakkir-olimlarining tarixiy merosini va ular tomondan ishlab chiqilgan kasb —hunar ta'lim texnologiyasini qayta tiklash muhim ahamiyatga ega vazifa deb bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: «O'zbekiston», 2000 – 502 bet.
2. Jabborov I. O'zbeklar (an'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati) qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri. Toshkent: Sharq. – 2008. B. 56-72.



AJDODLARGA MUNOSIB AVLOD BO‘LAYLIK

Kuvanova Mohinur Husniddinovna

Navoiy viloyati Navbahor tumani

22-son maktab o‘qituvchisi

Telefon +998994151177

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o‘quvchilariga buyuk mutafakkir, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodini o‘rganish, qolaversa ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, shoir, buyuk mutafakkir, dahol, bayt, g‘azal

Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning ma‘naviy me‘rosi o‘zgacha latofati, cheksiz jozibasini, umuminsoniy g‘oyalarni ifoda etishi bilan butun jahon ahli kitobxonlarining qalbidan chuqur joy egallab kelayotir.

Betakkor yurtimizda har yili shoir tug‘ilgan qutlug‘ 9 fevral sanasini adabiyot va ma‘rifat bayrami sifatida nishonlash an‘anasi qaror topgan.

Bu yil ham hazrat Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga katta tadorik ko‘rilmoqda. 2021 yildan boshlab mamlakatimizning xorijdagi vakolatxonalarida ulug‘ allomaning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadbirlar tashkil etiladi, asarlarini chet tillariga tarjima qilish, nashr etish va xorijiy mamlakatlarda taqdimotlarini o‘tkazish bo‘yicha tizimli ishlar oshiriladi.

Butun respublikamiz bo‘ylab buyuk mutafakkir ijodiga bag‘ishlangan ilmiy, nazariy konfrensiyalar, san‘at asarlari ko‘rgazmasi, ta‘lim muassasalari, mahallalar, harbiy qism va tashkilotlarda Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan adabiy-badiiy tadbirlar, nazm va navo kechalari tashkil etiladi. Navoiyni anglash va o‘rganish, his qilish har bir o‘zbek farzandi uchun ham qarz, ham farz.

Hazrat Navoiy ijodidan bahra olgani uchun muqaddas va mo‘tabar adabiyot dargohidan munosib joy egallagan shoir va adiblarimizning fikrlaridan bahra olsak.

Abdulla Oripov: “Yoshlar Navoiy to‘g‘risida o‘zaro ko‘p gaplashadilar, uning haykali oldiga ehtirom bilan guldastalar qo‘ydilar, o‘zlarining uning shogirdi hisoblaydilar, o‘rni kelganda Navoiyni dunyodagi barcha daholardan baland qo‘yib gurunglanadilar. Albatta, shunday bo‘lishi ham kerak. Lekin shogird shogird bo‘lishi uchun ustozning san‘atini egallagan, unga yangilik qo‘shgan bo‘lishi lozim-ku. Agar shogird o‘z ustozini hammadan baland qo‘ymoqchi ekan, u ustozining takrorlanmas fazilatlaridan xabardor bo‘lishi, hech bo‘lmaganda o‘z ijodida ustozning sal-pal ta‘siri sezilishi lozim-ku?! Afsuski, bizlarning deyarli ko‘pchiligimiz Navoiy ijodining siru asroridan bexabarmiz. Navoiy g‘azallarida nogahoniy obrazlar, muqoyasalar, fikr o‘yinlari, lutflar, hatto harf o‘yinlari shunchalik ko‘pki, bitta misraning o‘zidan o‘zidanoq ularning hammasini toppish mumkin. Masalan Navoiyning mashhur bir baytini olib ko‘ring:

Qaro ko‘zum, kelu mardumlig‘ emdi fan qilg‘il,

Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Bu yerda birgina “ko‘z qarosi” iborasi orqali ikki xil “rang” chizilayotir, “qaro ko‘zum” – ko‘zum qarosi. Yoki mardum so‘zi ikki xil ma‘noda: “ko‘z qarosi” va “odam” ma‘nolarida.

Erkin Vohidov: “Alisher Navoiy ijodiy me‘rosini baland tog‘ deb tasavvur qiladigan bo‘lsak, bu tog‘ bizning ortimizda emas, hamisha qarshimizda, biz intiladigan cho‘qqilariga havas qiladigan tog‘. Har bir narsaga yoshlikdan ko‘nikma hosil qilish kerak bo‘lganidek, Navoiyni o‘rganish ham qancha erta bel bog‘lansa, shuncha ma‘qul. Yoshlikdagi soatlarning ishini keksalikning yillari ham bajarolmaydi. Ulug‘ shoirimizning ijod sirlarini yoshlikda o‘rganmagan, yoshi bir yerga borganda o‘kinib, kech bo‘lsa-da o‘qishga kirishgan, lekin ulug‘ yosh o‘z ishini qilib, bu ummuniy teranlik, bu ilohiy sehrni anglash va his etishdan o‘jiz bo‘lib qolgan juda ko‘p yaxshi odamlarni bilaman.

Agar biz - ustozlar ana shunday qo‘shimcha ma‘lumotlarni o‘quvchilarga yetkazsak, ular Alisher navoiy saboqlarini o‘rganib, hech qachon tubanlik botqog‘iga botmaydi, o‘g‘rilik, bosqinchilik, poraxo‘rlik, ta‘magirlik, g‘iybat qilmayd, ona Vatanini iymonini sotmaydi. Ma‘rifat nurlaridan oziqlangan kishi albatta, buyuk maqsadlar sari mardonavor qadam tashlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot gulshani
2. ”Til va adabiyot” jurnali
3. Ma‘naviyat ko‘zgusi
4. Adabiyot . Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik



USING INTERESTING GAMES IN THE CLASSROOM

Makhammatova Maftuna Zokirovna,

English teacher of the secondary school №12, Navoi

Annotation: A pleasant and lively atmosphere plays an important role in learning English. To create such an environment, you need to make a variety in the learning process, play interesting games in the classroom. Moreover, it does not matter for whom the lessons are conducted: for children or adults. After all, everyone will be interested in doing this activity.

Keywords: games, develop, memory, mental, activity, communication, also

Based on my experience at school, I can conclude that game moment is one of the most necessary and relevant forms in the methodology of teaching English. Play at any school-age not only does not lose its psychological significance as a desired activity but also continues to develop the child's mental functions, primarily imagination, communication skills in games with rules, in intellectual games. Also, play as a free activity has a relaxing effect on the child. In educational activities, game moments can be used, which helps the child not only take a break, remove the feeling of oppressive tension, but also learn to distinguish features, features of the game and educational activities. The use of games in the classroom is relevant in modern pedagogy- the game is one of the most important means of physical, mental and moral education of a child.

The use of games in the educational process helps to activate the child's activity, develops cognitive activity, observation, attention, memory, thinking, supports interest in the subject, develops creative imagination, imaginative thinking, relieves fatigue in children, as the game makes the learning process entertaining for the child. Thus, my goal is to demonstrate the use of game technologies in the school system in grades 5-7, to prove that their use is important for students, contributes to the development of memory, imagination, creative thinking of children, expands their vocabulary, instills an interest in the English language and culture of English-speaking countries. These are just some definitions of the game, but I want to note that they are all similar. Despite some differences, researchers of the problem are united by the fact that the game is a way of personal development. Currently, there are many types of games, but among them, you can find divide the following groups: 1) phonetic; 2) lexical; 3) games with phrases; 4) grammar games; 5) games for learning to read; 6) games for learning to listen; 7) games for learning to speak; 8) mixed games; 9) communication games. To help these guys, I use game techniques.

Phonetic games in English lessons: These games are used to develop children's auditory attention and memory, the ability to hear and differentiate sounds by longitude and brevity, to hear interidental sounds, training students in pronouncing foreign-language sounds, learning poems to reproduce them by roles.

Activity 1. "Little Kitty". The articulation of the sounds [?], [l], Children know and sing the song "Little Kitty".

Little Kitty laps her milk,

Lap, lap, lap.

Her tongue goes out,

Her tongue goes in,

Lap, lap, lap.

Little Kitty (lap) likes her milk, (repeating the last lines). Lexical games in English lessons:

Activity 2. "And you? ". Children sit in their seats. They play alternately. The teacher starts the game. He says: " I like to run, and you?" At the same time, he passes a "magic wand" to the student he is addressing. The latter, in turn, says his phrase and passes the wand to his companion. The game continues until it will be attended by all students.

Games with phrases:

Activity 3. Remember the word. Children sit in their seats. They all play at the same time. Everyone has a set of drawings or photos of their family members on the table. The teacher calls a word, such as " a mother", and students show a drawing or photo of their mother. If an error occurs, the student returns the drawing. The winner is the one who saves all the drawings or photos. The game can be complicated: after the teacher lists all the words, each student tells about their family: "I have got a mother, a father and a sister".



Grammar games: The main goals of grammar games: to teach children the use of speech patterns containing certain grammatical difficulties; to practically apply knowledge of grammar, to create a natural situation for the use of grammatical structures in natural communication situations.

Activity 4. "Act as you say". Goal: training the use of Present Continuous. The task consists of executing commands with comments. Play 3 students: 1-gives the command, 2-performs and says what he does, 3-describes the actions of the second.

Daily life

1 - Play volleyball. 2 - I am playing volleyball. 3 - He/ She is playing volleyball.

1 - Wash your face. 2 - I am washing my face. 3 - He/ She is washing his/ her face.

1 - Do exercises. 2 - I am doing exercises. 3 - He/ She is doing exercises.

Games for teaching reading in English lessons: When starting to read, students should already know all the letters of the alphabet, be able to name them, say what sound can be transmitted by this letter, and give examples of words in which this letter should occur. For example, the letter P, the sound [p], the words: pen, pencil, pupil.

They must be able to write all the letters of the alphabet using a printed font.

Activity 5. "Pairs". Students play in groups or pairs. Use a set of images and cards with words on a specific topic. The set with pictures is laid out with the backside up. Task "Read the word and find the image". The winner is the one who collects the most pairs.

If children do not read well, first you need to perform a training exercise on the Board "Connect a picture and a word".

Games for listening comprehension: Today, listening takes a significant place in the teaching of English, because without it, speech communication is impossible.

Activity 6. "Riddles about animals". The teacher reads riddles to the students, and the students have to guess them. For example:

1. It is a domestic animal. It likes fish. (a cat)

2. It is a wild animal. It likes bananas. (a monkey)...For each correct answer, the team gets 1 point.

Thus, an educational game is a type of activity of students in the classroom, during which educational tasks are solved in a game form. The game arouses the interest and activity of children and allows them to express themselves in exciting activities for them, promotes faster and more lasting memorization of foreign words and sentences.

References:

1. Avedon, M.E., & Brian, B. S.(1971). Learning Through Games. The Study of Games. John Wiley & Sons.
2. Carrier, M. (1980). Games and activities for the language learner. Nelson.
3. Lewis, G., & Bedson, G. (1999). Games for children. Oxford: OUP



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING YOSH XUSUSIYATLARI VA ONA TILINI O'RGANISH IMKONIYATLARI

Mamazokirova Zarifaxon Xabibillayevna

Paxtaobod tumani 35- umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Anotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini sezgi, idrok, xotira, tafakkur kabi individual psixik xususiyatlar rivojlantirish borasida olib boriladigan pedagogik texnologiyalar usullar uslublar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mantiqiy operatsiyalarni kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish, sezgi, idrok, xotira, tafakkur kabi individual psixik jarayonlar.

Boshlang'ich sinflar uchun ona tili o'quv fanini o'rganish, asosan, asosiy mashg'uloti o'qish ekanligini anglagan, fikri, tushunchasi bog'cha yoshidagi bolalik davriga nisbatan ancha rivojlangan, eng muhimi, psixologik jihatdan o'qishga tayyor davr sanaladi. "Ta'limga psixologik tayyorgarlik deganda, - deb qayd qiladi E.G'oziyev, - bolaning ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi? Bu yoshdagi bolalarda idrok ancha o'tkirlashadi, o'qishga qiziquvchanligi oshadi, xayoli yorqinlashib, xotirasi chiniqadi, tafakkur doirasi nisbatan kengayib, ijodiy fikrlashga moyillik ortadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yaqqol obrazli xotira ancha taraqqiy etgan bo'ladi. Bu yoshda o'quvchilar ko'rgan, kuzatgan narsalarini xotirada uzoq vaqt saqlay oladi. Shu sababli ona tili mashg'ulotlarida ko'rsatmali vositalardan: diafil'm, o'quv fil'mlari va audiovizual vositalardan unumli foydalanishga jiddiy e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. 7-11 yoshli bolalar o'qiganini yoki eshitganlarini etarli darajada tushunadi; o'z fikrlarini ona tilida izchillik bilan bayon qila oladi; mantiqiy operatsiyalarni kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish singarilarni bemalol bajara oladi; o'rganganlari asosida umumlashma hosil qilishi mumkin. O'qituvchi kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan qaysi yo'nalishda ish tutsa, ular tez shunga moslashadi. O'quvchini fanga qiziqtirish, undagi qobiliyatni yuzaga chiqarish kichik sinf o'qituvchisidan mohirlikni, o'ziga xos uslubiyatni, bolajonlikni talab etadi. Shu sababli ona tili mashg'ulotlarida o'qituvchi nafaqat qayta xotiralashga asoslangan o'quv topshiriqlardan, balki qisman ijodiy topshiriqlardan ham unumli foydalanishi lozim. Ijodiy topshiriqlar ustida ishlash bolalarning yoshi va bilim saviyasi oshgan sari asta-sekin murakkablashib boradi. Bola ilk bor maktabga qadam qo'ygan ekan, ma'lum so'z jamg'armasi bilan keladi. U oilada, bog'chada ko'p so'zlarni ishlatsada, hali ularning ma'nosini chuqur anglamaydi. 8-9 yoshli bolalar esa bir yildan ziyodroq tajribaga ega bo'lgan bolalar bo'lib, ularda dars jarayonida mustaqil xulosalar chiqarish ancha tarkib topgan bo'ladi. Mashhur psixolog V.A. Kruteskiyning ta'kidlashicha, bu davrda ular o'z oldilariga "Nima uchun bunday?" – "Nima uchun shu narsani o'rganish kerak?" degan savolni qo'ya oladigan bo'lishadi. Bu davrda ular "Nima uchun o'z ona tilimizni bilishimiz kerak?" degan savolga javob bera oladilar. Ona tilini o'rganish ularning nutqiy muloqot doirasini kengaytirishini, badiiy, ilmiy adabiyotlarni o'rganishlariga keng yo'l ochib berishini angelay boshlaydilar. Ma'lumki, boshlang'ich sinflardagi o'qish, avvalo, psixik jarayonlarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Ularda sezgi, idrok, xotira, tafakkur kabi individual psixik xususiyatlar ancha tarkib topadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z idroklarining aniqligi, softligi, o'tkirligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar idrokining yana bir xususiyati uning xilma-xilligi, yorqin bo'yoqlar, yaqqol tasvir va his – tuyg'uga boyligidir. Shuning ushbu bu yoshda o'quvchilar rangli tasvirlarni, his - tuyg'u uyg'otadigan rasmlarni yoqtiradilar. Ammo bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, me'yoridan ortiq rangli rasmlar bolani charchatib qo'yadi va rasmlarga tez-tez murojaat etish uni zeriktiradi. Shuning uchun 2,-3,4-sinflar uchun "Ona tili" darsliklarini haddan ziyod rasmlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq emas. O'quvchilarning o'qishi, bilim olish xususida gap ketar ekan, diqqatning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ham unutmaslik lozim. "Diqqat, -deb qayd qilinadi. "O'zbek tilining izohli lugat" da, – e'tiborini bir joyga to'plamoq, yig'moq, uni biror narsaga qaratmoq demakdir". Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqati xususida fikr yuritilganda uni yetarli darajada barqaror emasligini unutmaslik lozim. Bu yoshdagi bolalar diqqatlarini muayan narsaga qaratib turishda qiynaladilar. Bolalar diqqatining barqarorligi, psixologlar keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, miyada tormozlanish bilan qo'zg'alishning o'zaro nomuvofiq harakat qilishidir. Ona tili mashg'ulotlarida



o‘quvchilarning ko‘p hollarda tutulishi, to‘xtab qolishi, so‘zni burro, aniq talaffuz eta olmasligi, yozishda ba‘zan harf, bo‘g‘in, so‘zlarning tushib qolishi mana shu fiziologik holat tufayli sodir bo‘ladi. Psixologiya fanidan olib borilgan qator tadqiqotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darsda 30-35 daqiqadan ortiq o‘z diqqatlarini muayan ob‘ektga qarata olmasligini ko‘rsatadi. Bu ona tili mashg‘ulotlarida ta‘lim usullarini tez-tez o‘zgartirib turishni, o‘quv topshiriqlarining rang-barangligini ta‘minlashni taqozo etadi. Chunki ta‘lim usuli yoki o‘quv topshirig‘i o‘zgartirilishi bilan o‘quvchilarning unga munosabati ham o‘zgaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Barkamol-avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. (Prezident I. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi II sessiyasida so‘zlagan nutqi, 2009 y 29 avgust) T, 2009 y, 63-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy ta‘limini tashkil etish to‘g‘risida”gi 203-qarori, “Ma‘rifat” ro‘znomasi, 2012, 13 may. 26
3. Internet saytlari.



KOMPYUTER GRAFIKASI VA UNING AFZALLIKLARI

Matyaqubova Sayyora Amatjonovna

Xorazm viloyat Urganch tumani

43-son maktab Informatika fani o'qituvchisi

Tel: +998937411582

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompyuter grafikasi afzalliklari va u orqali ko'plab muammolarni xal qilish mumkinligi, ishlatilish sohalari, kompyuter grafikasi orqali o'quvchilarga mustahkam bilim berish mumkinligi takidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter grafikasi, internet, axborot, 2D, 3D, multimedia, video, audio, o'lcham.

Axborotning asosiy qismini inson ko'rish azolari orqali oladi. Ko'rgazmali axborotni o'zlashtirish oson bo'ladi. Inson tabiatining ana shu xususiyati grafik operatsion tizimlarda ishlatiladi. Kompyuter grafikasi hozirda jadallik bilan hayotimizga kirib keldi va yanada kuchayib bormoqda. Keyingi o'n yil misolida biz kompyuter grafikasi sohasida misli ko'rilmagan o'sishni ko'rishimiz mumkin. 2D va 3D texnologiyalari hayotimizni o'rgimchak to'ridek o'rab oldi. Hozirgi kunni ularsiz tasavvur qila olmaymiz. Chunki butun insoniyat unga bog'lanib qoldi va undan keng (samarali tarzda) foydalanib kelmoqda. Shuni aytib o'tish joizki, kompyuter grafikasi texnologiyalari sohasi iqtisodiyotning ajralmas bir qismiga aylanib ulgurdi. Kompyuter grafikasi hamma sohaga jadallik bilan kirib bormoqda. Xox u ishlab chiqarish, xox tibbiyot sohasida bo'lsin kompyuter grafikasi juda keng qo'llanilib kelinmoqda. Masalan UZI uskunalari, EKG uskunalari, turli xil rentgen moslamalari bunga yorqin misol bo'la oladi. Televideniya va multiplikatsiya sohasida ham kompyuter grafikasini biz naqadar rivojlanib ketganini ko'rishimiz mumkin. Bolajonlar uchun mo'ljallangan turli xil multfilmlar, kino filmlar, video roliklar, virtual o'yinlar shular jumlasidan. Kompyuter grafikasini arxitektura sohasida ham rivojlanib ketganini ko'rishimiz mumkin. Turli xil turar joy binolari, uylar, savdo komplekslarini dizayner arxitektorlar siz hohlagan usulda va aynan siz aytganingizdek qilib ko'nglingizdagidek qilib tayyorlab beradilar. Yana kompyuter grafikasini astronomiya va yadro fizikasi, biologiya, kimyo, qishloq xo'jaligi, yo'l qurilishi, geologiya, geodeziya ishlab chiqarishning yana boshqa sohalarida ham ko'rishimiz mumkin.

Kompyuter grafikasi sohasini yaqindan o'rganish uchun bizga umumiy o'rta ta'lim maktablari-da va o'rta maxsus ta'limda, oliy ta'limda keng o'rganilib borilayotgan informatika va axborot texnologiyalari fani yaqindan yordam beradi.

Kompyuter grafikasi o'tgan asrning 70 - 80-yillaridan boshlab ommaviylasha boshladi. Hozirgi kunda kompyuter grafikasi shu qadar rivojlanganki, uning ehtiyojlarini qondirish kompyuter texnikasining jadal rivojlanishining asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Kompyuter grafikasi ilm-fanga, tijoratga, san'at va sportga ham tegishli bo'lib, barcha sohalarda keng qo'llaniladi. Kompyuter grafikasi bo'yicha har yili ko'plab konferensiyalar o'tkaziladi, ilmiy jurnallar va o'quv qo'llanmalar chop etiladi, dissertatsiyalar himoya qilinadi. Har yili bir necha yuz milliard dollarlik kompyuter grafikasi mahsulotlari ishlab chiqariladi va sotiladi. San'at durdonalari yaratiladi. Kompyuter grafikasi asosida yaratilgan elektron o'yinlar bo'yicha jahon birinchiliklari o'tkaziladi va ularda millionlab qatnashchilar ishtirok etadilar.

Yaratish usuliga ko'ra kompyuter grafikasi ikki guruhga ajratiladi:

- 1) 2D- (inglizcha - ikki o'lchamli jumlasidan olingan);
- 2) 3D (inglizcha - uch o'lchamli jumlasidan olingan).

Ikki o'lchamli grafika yassi va tekis sirtlarda yaratilgan tasvirlar bo'lib ularga misol sifatida printerda qog'ozga chop etilgan fotosurat, rassom tomonidan (maxsus mato)da chizilgan rasmlarni keltirish mumkin. Uch olchamli grafika yordamida hajmga ega jismlar tasvirlanadi. Bunda jismning fazoda egallagan o'rni mayda kublar bilan to'ldiriladi.

Kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanishning yana bir qulayligi shundaki, bilim olishda 25 % gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 15-20 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish



60 % ortadi. Bunga biz kompyuter grafikasi vositalari asosida chet tillarini o'rganish jarayonini misol qilsak bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida media savodxonligini rivojlantirish o'quvchilar bilim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa o'rnida shuni takidlash lozimki, hozirgi kunda talim tizimida kompyuter grafikasini rivojlantirish, ularda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim tizimi oldida turgan juda ham ko'plab moddiy va ijtimoiy dolzarb masalalarni xal qilish mumkin. Talimda multimediali axborot resurslaridan foydalanishda ularning eng samarali vosita va talim mazmunini boyituvchi omil ekanligi yaqqol namoyon bolib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Boltayev, M.Mahkamov Informatika va axborot texnologiyalari
2. M. Aripov va boshq. Axborot texnologiyalari.
3. S.S.G'ulomov Informatika va Axborot texnologiyalari.
4. <http://uz.infocom.uz>



«AQLIY HUJUM» INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISH

Meliqo‘ziyeva Xayrixon Abduraimovna,
Furqat tumani 11-maktabning geografiya fani o‘qituvchisi
munismalikam@gmail.com
Telefon: +998914068700

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz darslarni olib borishdagi eng yaxshi usullardan biri “Aqliy hujum” metodi haqida batafsil bayon etilgan. Bu metodning muhim jihatlari shundaki o‘quvchini o‘z ustida ishlashiga ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: muammo, nostandart fikrlash, g‘oya, mulohaza, Breynstorming.

«Aqliy hujum» biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga keladigan samarali usullardan biridir. U to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijobiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

«Aqliy hujum» usulini qo‘llashda o‘qituvchi guruh ishtirokchilarini to‘playdi, ular oldiga biror muammoli vaziyatni yechish bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini bildirishni so‘raydi. Mazkur bosqichda ishtirokchilardan hech biri boshqa qatnashuvchilarning g‘oyasi, fikrini muhokama qilishi yoki baholashi mumkin emas. Bildirilgan har qanday g‘oya va fikrlar hisobga olinadi, qancha ko‘p fikr va g‘oyalar bildirilsa shuncha yaxshi. Bildirilgan g‘oya va fikrlarni to‘ldirish, kengaytirish, qayta o‘zgartirish mumkin. G‘oyalar yozilgan varaqlar devorga osib qo‘yiladi. Berilgan g‘oyalar asosida muammoni hal etishga yordam beradigan echimni tinglash uchun muhokama o‘tkaziladi.

Bu haqiqatdan ham o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g‘oyalari bayon etish chog‘ida boshqalarni ham qizg‘in ishga yo‘llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag‘barlantiruvchi mumkin emas, birgina g‘oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o‘ziga jalb qiladi.

O‘qituvchi mavzu yoki savolni ajratib, keyin esa o‘quv faoligi 5-10 daqiqa oralig‘ida vaqt chegarasida yengillashtiriladi. Aqliy hujum turli tarzda qo‘llanishi mumkin. Masalan, qandaydir mavzuni yoki muammoni muhokama qilish orqali hal qilish uchun savol qo‘yish.

«... bahslashuvchilarning bir-biriga nisbatdan fazoviy joylashuvlariga bog‘liq», ya’ni an’anaviy dars o‘tkazish shaklida tinglovchilarning bir-birlarining yuzlarni ko‘rish imkoniyati cheklangan bo‘ladi, bunday hol esa tinglovchilarning ruhiy tayyorgarligiga putur yetkazishi mumkin, aksincha doira shakldagi stol atrofida joylashib, o‘rtaga tashlangan mavzu yuzasidan erkin fikr bildira oladigan tinglovchilarda bahs-munozara o‘tkazish uchun psixologik tayyorgarlik kuzatiladi.

Shuni e’tirof etish joizki “brein storming” (inglizcha «aqliy hujum») uslubi amerikalik olim A.Osborn tomonidan 1930 yilda taklif etilgan bo‘lib, unda loyihalarni rejalashtirish va uning natijalarni oldindan bashorat qilish kuzda tutilgan edi.

«Breynstorming» uslubining psixologik mohiyati shundaki, munozaraga kirilganda bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr kelsa, uni tanqidsiz, erkin aytish imkoniyati beriladi. Oxirida esa bahslashuvchilar ma’lum rasional «mag‘z»ni ajratib olishadi.

Dars mobaynida o‘qituvchi mavzuning xarakteri va u shakllantirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va fazilatlarga mos tarzda munozara sharoitini tanlashi va shundan keyingina mashg‘ulotni boshlashi kerak. Masalan, keyingi paytlarda keng ko‘lamda qo‘llanilayotgan munozara yuritishning «breynstorming» shaklini olib qaraydigan bo‘lsak, bunda bahslashuvchilar ko‘proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent, 2000.



“KIMYOVIY BOG‘LANISHLAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Movlonova Sohiba Abdiqodirovna
Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi
Nishonova Saidaxon Baxromjon qizi
Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezis kimyoviy bog‘lanishlar mavzusini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalar qo‘llash to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: kimyoviy bog‘lanish, kovalent, qutbli, qutbsiz, ion, domino, esse, o‘qitish metodikasi.

“Yuqori sinflarda bolalar shaxs bo‘lib, jamoa bo‘lib shakllanadi. Ayni o‘sha paytda ularni o‘zlari o‘rgangan muhitdan ajratib qo‘ymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomadiga, oxir-oqibatda ta‘lim-tarbiyasiga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Shu bois ta‘lim jarayonini uzluksizligini taminlash o‘quv dasturlarini takomillashtirish zarur.”

Yurtboshimizning ushbu fikrlari maktab o‘quvchilarini fanlarga qiziqtirish va qiziqishlari bo‘yicha to‘g‘ri yo‘naltirish ularning kelajak hayotlarini belgilashda ta‘lim jarayonini naqadar yuqori o‘rinda ekanligini yorqin isbotidir. Buning uchun ayni ushbu jaryonlarda o‘qituvchilardan yuqori pedagogik maxoratga ega bo‘lishlari talab qilinadi.

Bizga ma‘lumki, kimyo fani ham murakkab fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fani o‘qitishda o‘qituvchilardan o‘quvchilarni fanga qiziqtirish va mavzularni oson o‘zlashtirish uchun turli xildagi metodlardan foydalanish, va fandagi murakkab mavzularni ham o‘quvchilarga oson va tushunarli qilib yetkazib berish o‘qituvchidan talab qilinadi.

O‘quvchilarida “Kimyoviy bog‘lanishlar” mavzusini tez va oson o‘zlashtirishlari uchun mavzuni quyidagicha tushuntirish ijobiy natija beradi.


Kimyoviy birikmalarning hosil qiluvchi atomlar orasidagi elektronlarning taqsimlanishiga qarab kimyoviy bog‘lanishlarni quyidagi 3 turga bo‘lish mumkin;

Kovalent bog‘lanish.

Ionli bog‘lanish.

Metall bog‘lanish.

Bundan tashqari atomlarning kimyoviy bog‘lanishda ishtirok etmagan xususiy elektron juftlari bilan bo‘sh orbitalga ega bo‘lgan atomlar orasida kimyoviy bog‘lanish vujudga keladi, bu bog‘lanish donor akseptor bog‘lanish deyiladi.



Elektromanfiyligi bir xil bo‘lgan atomlar orasida umumiy elektron juftlar hosil bo‘lish hisobiga vujudga keladigan kimyoviy bog‘lanish qutbsiz kovalent bog‘lanish deyiladi.

Elektromanfiyligi bir-biridan biroz farq qilqigan atomlar o‘rtasida hosil bo‘lgan kimyoviy bog‘lanish **qutbli kovalent bog‘lanish** deyiladi.

Bir atomning kimyoviy bog‘lanishda ishtirok etmagan, ya‘ni taqsimlanmagan elektron jufti va ikkinchi atomning bo‘sh orbitali o‘rtasida hosil bo‘lgan bog‘lanish *donor-akseptor bog‘lanish* yoki *koordinatsion bog‘lanish* deyiladi.

Elektromanfiyligi bir-biridan keskin farq qiluvchi atomlardan hosil bo‘lgan molekullarda kimyoviy bog‘lanishning boshqa turi ionli bog‘lanish uchraydi. Ionli bog‘lanish ionlar o‘rtasida sodir bo‘ladi. M: NaCl, KBr, CaI_2 , Li_2O , Na_2S .

Metall bog‘ kimyoviy bog‘ning bir turi, metalning kristal panjara tugunlarida joylashgan musbat zaryadli ionlar bilan elektron gazning o‘zaro tasiri natijasida vujudga keladi. Metal bog‘



metallar metal qotishmalari va intermetal birikmalar uchun tavsifli bo‘lib, nafaqat ularning qattiq kristallarida balki suyuq va amorf holatida ham saqlanib qoladi.

Ushbu mavzuni o‘qitishda o‘quvchilar oson o‘zlashtirishlari va esda saqlab qolishlari uchun turli xildagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1. “Besh minutlik esse” metodi:

Yozma topshiriqning ushbu turida talabalardan quydagi ikki topshiriqni bajarish talab etiladi.


- Mazkur mavzu bo‘yicha ular nimalarni o‘rganganliklarini mustaqil bayon etishadi;
- Ular ba’zi-bir javobini ololmagan savollarini berishlari so‘raladi.

Besh minut davomida yozgan esselari talabalar tomonidan o‘qib eshittiriladi va muxokama qilinadi. Muxokama jarayonida o‘qituvchi tomonidan talabalar savollariga umumlashtirilgan holda javob berib o‘tiladi.

2. “Ven diagrammasi” metodi:


Ushbu metod ikkita bir-biri bilan kesishgan aylana ko‘rinishidagi sxemadan iborat bo‘lib, ushbu metodda 2 yoki undan ortiq tushuncha va ob‘yektlarni taqqoslash va natijani chizmada tasvirlash uchun hizmat qiladi.

Bunda aylanalarning kesishgan sohasiga obyektlarning o‘xshash tomonlari, qolgan qismiga esa o‘ziga xos tomonlariga tarif beriladi. Ushbu metod “Kimyoviy bog‘lanishlar” mavzusida kovalent va ionli bog‘lanishli moddalarning xossalarni solishtirish maqsadida qo‘llash mumkin.



3. “Domino” metodi:

Ushbu metodni qo‘llash o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Ushbu o‘yinni aynan “kimyoviy bog‘lanishlar mavzusi bo‘yicha quyidagicha tashkil qilish mumkin. o‘quvchilar guruhlariga bo‘linadilar. Maxsus qog‘ozlarga elementlar yoziladi. Har bir guruhga alohida savol tuziladi; savollar aynan kimyoviy bog‘lanishlarga misollar keltirish haqida bo‘ladi. Misol uchun 1-guruhga ionli bog‘lanishli moddalar hosil qilish tushsa, elementlarni o‘zaro juftlashtirib molekullar hosil qiladi.





Bu metodlarning barchasi darsni qiziqarli tashkil etish va o‘quvchilarni esida saqlab qolishi uchun qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, darslarda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash darslar qiziqarli o‘tilishiga, o‘quvchilarning darsga qiziqishini ortishiga hamda o‘qitish samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yu.T.Toshpo‘latov, N.G.Raxmatullayev Anorganik kimyo (Metodik qo‘llanma) Toshkent-2005.
2. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.Turayev “Innovatsion ta’lim texnologiyalari” Toshkent-2015



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O'RNI VA AHAMIYATI

Musadova Feruza Norkulovna,
Navoiy shahar 8-umumta'lim maktab
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabdagi ta'lim jarayonida elektron taqdimot-darsda slaydlardan ko'rgazmali material sifatida foydalanish, darslarda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida dars o'tish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Boshlang'ich ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalari bilim olish motivini rivojlantirishi haqida qisqacha yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ta'lim jarayoni, axborot kommunikatsion texnologiyalari, multimedia, elektron darslik, elektron taqdimot.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida maktab fanlarini o'qitishda AKTdan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan axborot texnologiyalari ta'limning universal vositasi hisoblanib, na faqat o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, AKT o'quvchilarning nazariy, ijodiy va reflektiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad - aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim - ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab «ko'nikmalar maktabi» bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan.

Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi — ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatleri ta'lim jarayoniga AKTni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. O'z faoliyatimizda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etib, ulardan foydalanib va o'quv jarayonida AKTdan foydalanish bo'yicha ma'lum tajribalarni to'plab bormoqdamiz.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajribalar an'anaviy dars doirasida AKTni didaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan hollarda o'quv jarayonini individuallashtirish va differentsiyalash uchun cheklanmagan imkoniyatlar paydo bo'lishini ko'rsatdi. Ular o'quvchilarga axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko'nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun umuman yangi imkoniyatlar beradi, ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga imkon beradi. Har bir o'quvchida shaxsiy o'quv yo'nalishini rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quv jarayonida uni muvaffaqiyatli bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy jarayonlar sifatida fikrlashni, tasavvurni rivojlantirishga yo'naltirilgan katta o'zgarishlar sodir bo'ladi, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini samarali tashkil qilish ta'minlanadi. AKTdan foydalanilganda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili va rus tili darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinfl o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali mashq, nazorat mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin.



Unga fanga oid qoidalarni joriy o‘rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo‘yicha boy va turlituman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

1-sinf o‘qish darslarida elektron o‘quv qo‘llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so‘zni tovushli-harfli tahlil qilish, so‘zning bo‘g‘inlari tuzilishi, ba’zi orfogrammalar o‘rganilishi turli qiziqarli ko‘rgazmali va ovoqli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g‘aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o‘quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o‘yin shaklida o‘quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o‘zini nazorat qilish va o‘quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo‘llanma bo‘yicha ta’lim jarayonini differentsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Savodxonlikka o‘qitish bo‘yicha tematik rejalashtirishni ishlab chiqishda rejalashtirishga tegishli elektron mavzular va bo‘limlarni kiritish mumkin. Dars rejasini ishlab chiqishda frontal, individual va guruhli ishlash uchun kompyuterni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lgan dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim. Matematika darslarida «O‘yinli masalalar» dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Boshlang‘ich sinfda o‘rganiladigan ko‘plab mavzular bo‘yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o‘quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi. Ularning ustunlik tomonlari istagan paytda masalaning boshiga qaytish mumkin, uning alohida qismlarida to‘xtalish, o‘quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash mumkinligidan iborat.

Boshlang‘ich sinflarda harakatlanishga animatsiyali masalalar bilan slayd-filmlarni qo‘llash mumkin. Shunday slaydlarni yaratish uchun Internetdan olingan animatsion kartinkalardan foydalanish mumkin. Barcha o‘quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur. Testlardan dastlab faqat bosma ko‘rinishidagisidan foydalangan bo‘lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o‘quvchi bilan shug‘ullanish mumkin. AKTdan foydalanish yillari davomida 1-sinfdan 3-sinfgacha matematika, badiiy o‘qish, ona tili, deyarli barcha mavzulari va boshqa o‘quv fanlari bo‘yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Endi darslarda faqat bosma shakldagi emas, balki kompyuterli testlardan foydalanish zarur. Ular bajarib bo‘lishi bilan darhol bahosini olishga imkon beradi, bahoni kompyuterning o‘zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo‘yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: —Fanl, 2006.
2. Babayeva D. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. TDPU. 2018.
3. Internet ma‘lumotlar.



BOSHLANG'ICH MAKTABDA IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISH

Nurmamatova Madina Fazliddin qizi

Navoiy viloyati Navbahor tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli
11-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Yangi avlod o'quvchilari uchun zamon talabi "mustaqil ravishda o'rganishlari, maqsadlarini belgilashlari va ularga erishish yo'llarini belgilab olishlari, maktabda to'plagan tajribalarini o'quv jarayonidan tashqarida hayotda ishlatishlari kerak" degan g'oyani ta'kidlaydi. Ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy tendentsiyalari maktab oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda, chunki nafaqat chet tillarini bilish, kompyuterlashtirish, balki maxsus - erkin, intellektual va ijodiy fikrlash har kimning ijtimoiy muvaffaqiyati kaliti bo'ladi, shuning uchun ham bu kalit millat ravnaqiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, muammoli ta'lim, samaradorlik, o'qitish texnologiyalari, didaktik o'yinlar, iqtidorli bolalar, shaxsiy qobiliyatlar

Iqtidorli bolalar bilan ishlash muammosi zamonaviy jamiyati uchun o'ta dolzarbdir. Iqtidorli bolalar bilan ishlashni tashkil etish haqida gapirganda, men barcha bolalar bilan ishlash g'oyasini, ya'ni ko'nikmalar va bilim qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish haqida ta'kidlashni istardim. Hayot uchun maktab o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan, kommunikativ va raqobatdosh bo'lgan bitiruvchini tayyorlashni talab qiladi. Iqtidorli bolalar bilan ishlash - bu shaxsning individuallikka bo'lgan huquqini aniq amalga oshirish variantlaridan biridir. Ajoyib qobiliyatlarga ega bolalarni aniqlash va rivojlantirish murakkab va ko'p qirrali vazifadir.

Iqtidorlilik ko'pchilik bolalar, o'qituvchilar va ko'plab ota-onalar uchun hanuzgacha sir bo'lib qolmoqda. Keng jamoatchilik uchun eng muhim muammolar iqtidorning ilmiy asoslari emas, balki, avvalambor, ularning hayotiy namoyon bo'lishi, aniqlash, rivojlantirish va ijtimoiy hayotga tatbiq etish usullari. Bugungi kunda iqtidorli bolalarga g'amxo'rlik ertaga fan, madaniyat va ijtimoiy hayotning rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi. Bunday bolalarni aniqlash usullari allaqachon mavjud, ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradigan dasturlar ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga, yuqori iqtidorli va iste'dodli bolalarni diagnostikasi va rivojlanishining barcha bosqichlarida rivojlanish muammolari, bolalar tomonidan ularning iqtidorliligi va ijodiy o'zini o'zi anglash uchun shaxsiy javobgarligini tushunish muammosi mavjud.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ushbu toifadagi o'quvchilar bilan boshlang'ich maktabda qanday ish olib borilishiga bog'liq, shuning uchun boshlang'ich maktab bosqichida ushbu toifadagi bolalar bilan ishlash strategiyasi to'g'risida mustaqil savol sifatida qaraladi.

Psixologlar o'zlarining asarlarida yosh o'quvchilarda aqlning barcha turlari mavjudligini va u hayot tajribasi va tarbiyasining individual psixologik xususiyatlariga qarab o'ziga xos noyob profilga ega ekanligini isbotlaydilar.

Bolalar 7-8 yoshga etganda, ba'zilar qobiliyatlarning yorqin gullab-yashnashiga ega bo'lib, ularning rivojlanish darajasi ushbu bolalarning ma'lum darajadagi iqtidorliligini ko'rsatishi mumkin. Oldingi bosqichlarda ishlatilgan qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha ishlar tizimi bu bolalar uchun yetarli emas, chunki bu ularning individual xususiyatlarini, imkoniyatlarini va istiqbollarni kerakli darajada hisobga olmaydi. Ushbu toifadagi bolalar uchun ularning xususiyatlarini maksimal darajada hisobga oladigan va ularning samarali rivojlanishini ta'minlaydigan maxsus ish tizimini tashkil qilish kerak. Bu quyidagilarni nazarda tutadi: bolaning rivojlanish dinamikasini kuzatish uchun uning iqtidorliligi darajasini aniqlash va aniqlashga imkon beradigan monitoring kompleksining mavjudligi; individual bolalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Shaxsiy dasturlar iqtidorni rivojlantirish uchun keng qamrovli modellar bo'lishi kerak; boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy qobiliyatlarini diagnostika qilish va rivojlantirish hozirgiz zamon talabi.

Ushbu ishni tashkil qilishda bir qator shartlarni hisobga olish kerak:

- bolaning umumiy ta'lim yuki ruxsat etilgan valeologik me'yordan oshmasligi kerak; erta tor ixtisoslashuvga yo'l qo'yimaslik kerak;
- bolaga uning iqtidorining turi uchun ustuvor bo'lgan faoliyat bilan bir qatorda, boshqa



qiziqarli va zarur narsalar bilan shugʻullanish imkoniyatini berish kerak;

- bola uchun kunning sogʻligʻini muhofaza qilish rejimini rejalashtirish kerak, bu mashgʻulotlar, dam olish, sayr qilishning oqilona oʻzgarishini nazarda tutadi.

“Bolalarning iqtidorliligi” va “iqtidorli bolalar” tushunchalari pedagogik faoliyatni tashkil qilishda noaniq yondashuvlarni belgilaydi. Bir tomondan har bir bola “iqtidorli” boʻlib, oʻqituvchilarning vazifasi har bir bolaning intellektual va ijodiy salohiyatini ochib berishdir. Boshqa tomondan, tengdoshlaridan sifat jihatidan farq qiladigan va shunga mos ravishda maxsus oʻqitish, rivojlantirish va tarbiyalashni tashkil etishni talab qiladigan bolalar toifasi mavjud.

Qobiliyatli, iqtidorli oʻquvchi - bu har qanday odamning qobiliyatining yuqori darajasi. Ushbu bolalar, qoida tariqasida, oʻqishga majbur boʻlishlari shart emas, ular oʻzlari uchun harakat qiladilar, koʻpincha murakkab va ijodiy tomondan.

Iqtidor badiiy (musiqiy va badiiy), psixomotor (sport), akademik (oʻrganish qobiliyati), intellektual (tahlil qilish, fikrlash qobiliyati), ijodiy (formulali fikrlash emas) boʻlishi mumkin.

Bolalarning iqtidorini saqlash va rivojlantirish jamiyatimizning eng muhim muammoidir. Oʻqituvchining asosiy vazifasi - bu bola shaxsiyatini rivojlantirishga hissa qoʻshishdir.

Ayniqsa, iqtidorli bolalarni oʻrganayotganda oʻqituvchi oldida quyidagi vazifalar turadi: har bir shaxsning rivojlanishiga koʻmaklashish; individual yutuqlarni iloji boricha maksimal darajaga yetkazish; isteʼdodlar resurslarini unga xizmat qilish orqali ijtimoiy taraqqiyotga hissa qoʻshish. Yosh isteʼdodlarni izlashda asosiy yondashuv nafaqat bolalarga, balki ota-onalar va oʻqituvchilarga ham qaratilgan chora-tadbirlar (tibbiy, psixologik, pedagogik) majmui sifatida tan olinishi kerak. Bolalarni tanlash uchun turli xil usullarni qoʻllash va keyinchalik ularning rivojlanishini doimiy ravishda nazorat qilish muhimdir.

Iqtidorli bolalarni aniqlashning **birinchi bosqichida** ota-onalar va oʻqituvchilardan bolaning har qanday faoliyatida yuqori muvaffaqiyatlar haqida maʼlumot hisobga olinadi. Shuningdek, guruh testlari, sotsiologik anketalardan foydalanish mumkin. Bu sizga chuqurroq individual tadqiqotlar oʻtkazish uchun bolalar doirasini belgilashga imkon beradi.

Ikkinchi bosqich diagnostika sifatida belgilanishi mumkin. Ushbu bosqichda bolaning neyropsikik holatining ijodiy qobiliyatlari va xususiyatlarini individual baholash psixolog va psixoterapevt tomonidan amalga oshiriladi. Birinchi bosqich natijalariga qarab, bola potentsial imkoniyatlarning u yoki bu variantini afzal koʻrishiga qarab psixologik testlar toʻplami bilan tekshiriladi. Intellektual sohani rivojlantirishni afzal koʻrgan holda, bola fikrlashning oʻtkirliigi, qiziquvchanligi bilan ajralib turadi va oʻrganish oson, amaliy ixtirochilikni ochib beradi. Bunday hollarda, birinchi navbatda, iqtidorli bolalarda asosiy bilim va nutq parametrlarini aniqlashga qaratilgan usullardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Andreev V.I., “Ijodkor shaxsni tarbiyalash va oʻz-oʻzini tarbiyalashning dialektikasi. Ijodkorlik pedagogikasi asoslari “, Qozon, 2010.

2.Zak, A.Z. “8 yoshdagi bolalarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish usullari”. - M.: Interpaks, 1994 yil

3.Zak, A.Z. “Boshlangʻich maktab oʻquvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish”. - M.: Taʼlim: Vlados, 1994 y

4.Zyabyantseva, M.A. Bolalarda xotira va tasavvurni rivojlantirish. Oʻyinlar va mashqlar. - Rostov n / a.: Feniks, 2005 yil

5.Leyts N.S. Yoshga oid imtiyozlar va individual farqlar: tanlangan asarlar. - M.: Moskva psixologik-ijtimoiy institutining nashriyoti; Voronej: “MODEK” NPO nashriyoti, 2009 y

6.Savenkov, A.I. “Ommaviy maktabda iqtidorli bola.” - M.: Sentyabr, 2001 yil



МАТЕМАТИКА ФАНИДАН ТО‘ГАРАК MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA MANTIQUIY VA HAYOTIY MASALALARNING O‘RNI

Po‘latova Mohidil Ikromovna

Qiziltepa tumani 15-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchisi

Isoqova Dilafro‘z Ibodullayevna

Qiziltepa tumani 42-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika fanidan to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etishda mantiqiy va hayotiy masalalardan foydalanish borasida qikr yuritilgan. SHuningdek o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda matematik masalarning o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, o‘quvchi, matematika fani, to‘garak mashg‘uloti, sinfdan tashqari ishlar, mantiqiy, hayotiy masalalar, qiziqarli masalalar, ijodiy topshiriqlar.

*Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli,
keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi.
Shavkat Mirziyoyev*

Darhaqiqat, matematika fanini o‘rganish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Bu fanning barcha fanlarni o‘zlashtirishdagi ko‘magi ham uning kerakligini tez-tez yodga tushiradi.


Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilariga matematikadan bugungi kun talablariga mos har tomonlama mukammal bilim berishda o‘qituvchilar oldida bir qator vazifalar turadi. O‘qituvchi har bir soat darsga tayyorgarlik ko‘rishda darslikda berilgan ma‘lumotlar bilan chegaralanib qolmasdan qo‘shimcha adabiyotlarda keltirilgan muhim va qiziqarli ma‘lumotlar bilan uni boyitishi, to‘garak mashg‘ulotlari va turli kechalarni tashkil etishda bilimlarni mustahkamlashga e‘tibor qaratmog‘i lozim.

Matematika faniga oid qiziqarli ma‘lumotlar o‘quvchilarning fanga qiziqishlarini yanada orttirib boradi. Matematikadan sinfdan tashqari ishlarning asosiy turlaridan biri matematikadan to‘garak mashg‘ulotlari hisoblanadi. To‘garak o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, matematik fikrlash doirasini kengaytirish, ijodiy qobiliyatlarini orttirishga yordam beradi. Matematika to‘garagini ishnini tashkil etishni o‘quvchilarni o‘zi amalga oshirsalar maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ular o‘rganayotgan mavzu bo‘yicha masala topishi, ma‘lum mavzuga mashqlar tarixiy xarakterga ega ma‘lumotlar yig‘ishi, modellar va rasmlar tayyorlashi matematika to‘garagi mashg‘ulotida o‘qituvchi uchun erkin atmosferani tashkil etish, aktiv diskussiya va fikr almashish imkonini yaratadi. Matematika to‘garak mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi o‘quvchilar bilimini chuqurlashtirish va kengaytirish, ularning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish, matematik mashg‘ulotlariga qiziqish va mustaqillikni, tashabbuskorligini rivojlantirishdir. To‘garak mashg‘ulot qanday o‘tkazishdan qat’iy nazar, u o‘quvchiga qiziqarli bo‘lishi kerak.


To‘garak mashg‘ulot o‘tkazishning asosiy turlari seminarlar, diskussiyalar, masalalar yechishlar, o‘quvchilar referatlari, matematik bayonnomalar va ma‘ruzalardan iborat. To‘garak mashg‘ulotda o‘quvchilarning mustaqil ishlariga muhim o‘rin berish kerak. Matematikadan to‘garak mashg‘ulot o‘tkazishning mumkin bo‘lgan formasi har bir mashg‘ulotni 2 ga bo‘lishdan iborat. Birinchi qism materialni o‘zlashtirishga bag‘ishlanadi va nazariy hamda amaliy xarakterga ega bo‘lgan o‘quvchilarning mustaqil ishlariga bag‘ishlanadi. Ikkinchi qismi esa murakkab yoki qiziqarli mantiqiy masalalar yechishga qaratiladi.

Quyida ushbu qiziqarli mantiqiy masalalar va ularni yechimlari namunalar keltiramiz.

1-masala. Aylanalar ichida 1 dan 9 gacha bo‘lgan raqamlarni shunday joylashtiringki, M harfi chiziqlari bo‘yicha joylashgan raqamlar yig‘indisiga teng bo‘lib, imkoni boricha kichik bo‘lsin.



2-masala. Chizmadagi aylanalarni raqamlar bilan shunday to'ldiringki ikkita aylana katta aylananing to'rtta radiusi va markazda natural sonlar kvadratlarini o'qish mumkin bo'lsin. (raqamlar takrorlanishi mumkin)



Yechilishi: Mumkin bo'lgan yechimlardan biri chizmada ko'rsatilgan.

$$4624=68^2, 3481=59^2$$

Matematika fani to'garagida mantiqiy masalalarni yechish metodikasini kiritish bilan birga, hayotiy masalalarni ham kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda hayotiy masalalarning o'rni kattadir. Bolalar masala yechish bilan birga hayotiy ko'nikmalari ham bosqichma-bosqich shakllanib boradi. Hayotiy masalalar yechish jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi o'qituvchilarda qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki hayotdan olingan masalalarda o'quvchilarga tanish jumlar, sonlar ko'p bo'ladi. Ular bu kabi masalalarga uyda, ko'chada yoki o'rtoqlari bilan o'yin jarayonida ko'p duch kelishadi. Matematika darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda hayotiy masalalar samarali natija beradi. Bunda o'qituvchiga ota-onalar ham yordam bersa maqsadga muvofiq bo'ladi. Hayotimiz o'zi katta masalalardan iborat. Biz farzandlarimizga yoshligidanoq yoshiga mos ana shunday masalalarni kundalik hayotda uchragan masalalar orqali yechishga va bu bilan ularni mustaqil fikrlashga undashimiz, o'rgatishimiz mumkin. Masalan,

1-masala. Bir xaltadan 10 kg kartoshka bor edi. Undan 2 kg va 4 kg kartoshka ishlatildi. Necha kg kartoshka qoldi?

Yechish: 1-usul. $10-2=8$ kg $8-4=4$ kg

2-usul. $10-(2+4)=10-6=4$ kg Javob: 4 kg kartoshka qoldi.

2-masala. Uch qopda 90 kg bodring bor, 1-qopda 40 kg 2-qopda esa 30 kg, uchinchi qopda necha kg bodring bo'lgan?



40 kg



30 kg



?



Yechish: 1. $40+30=70$ kg $90-70=20$ kg.

2. $90-(40+30)=90-70=20$ kg

Javob: Uchinchi qopda 20 kg bodring bo‘lgan.

Shu bilan birga o‘quvchilarga ijodiy topshiriqlar ham berish tavsiya etiladi. Ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar yozadilar, chizadilar, shakllarni yasaydilar, bevosita ko‘rgazmali qurollar bilan ishlaydilar. O‘quvchilar o‘tilayotgan tushunchalar haqida nafaqat nazariy ma‘lumotlarga ega bo‘lib, balki “amaliyotda qayerda qo‘llaniladi?”, “nima uchun kerak?” degan savollarga o‘zlari javob beradilar. Va bu jarayonda ularda hayotiy ko‘nikmalar shakllanib, takomillashib boraveradi. O‘quvchilar o‘zlashtirayotgan har bir ma‘lumotning kashfiyotchilari bo‘lishsa, bundan faxrlanishsa, qalblarida g‘urur, o‘ziga, bilimiga ishonch paydo bo‘ladi.

Matematika fanidan to‘garak mashg‘ulotlarini qiziqarli qilib tashkil etish o‘qituvchidan ijodkorlikni talab etadi. Ijodkor o‘qituvchi esa o‘z navbatida zamonaviy metodlar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etadi. Bu esa o‘quvchilarni mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishini ortishiga sabab bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘z mahoratidan samarali foydalanib, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgata oladi. Zero, mustaqil fikrlay oladigan, o‘z qarashlariga ega bo‘lgan insongina jamiyatda o‘ziga xos va mos pozitsiyani egallaydi hamda davlatimiz taraqqiyotiga o‘z bilim, salohiyati bilan hissasini qo‘sha oladi. Bizning vazifamiz esa ana shunday komil insonni tarbiyalab voyaga etkazishdir, albatta!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo‘llanma. Toshkent. “Sharq” 2005.

2. Bikbaeva N.U, Sidelnikova R.I., Adambekova G.A. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O‘rta maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.) Toshkent. “O‘qituvchi”, 1996.



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALASH

Qo'chqorova Munisa Anvar qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi yonalishi talabasi
Tel: +998997522283
avazbekqochqorov442@gmail.com

Annotatsiya: Maqola yosh avlodni tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsning axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishini talab qiladigan murakkab jarayon ekanligi hamda axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina bolalarga atrofda kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradishi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: axloq, pedagogik, psixologik, esetik his.

Axloq so'zi lotincha moros, ya'ni moral so'zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat'iy yozib qo'yilmagan ijtimoiy qonundir. Inson kundalik hayotida undan me'yor sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Bunday kishida barqaror ma'naviy motivlar shakllangan bo'ladi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlariga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsning axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishini talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina bolalarga atrofda kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arasu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyani ilgari surgan edilar. Ular o'z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liq deb isbotlamoqchi bo'lganlar. Shunga ko'ra, bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oya ilgari surilgan. Ammo, sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-ona shug'ullanishi kerak degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor berganlar. Eramizdan avvalgi 528-529-yillar orasida Zardusht tomonidan yaratilgan Avesto kitobida ham ta'lim-tarbiyaga, axloq-odobga oid qator g'oya va qarashlarni ko'rish mumkin. Avesto da ta'kidlanishicha, tarbiya hayotning tayanchi, shu boisdan har bir yoshni yaxshi o'qish va yozishga o'rgatish lozim. Uni yosh paytidanoq mehnat qilib, mehnatning tagi rohat ekanligini anglatish uchun daraxt ko'chati o'tkazishga, uy-ro'zg'or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatilishi shart. Zotan, uning fikricha, yaxshi va ezgu ishlar yaratish uchun kishi mehnat qilishi zarur, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratmas ekan, u yashash lazzatini ham his qilmaydi, hayotning qadriga ham yetmaydi. U yuqoridagi fikrni davom ettirib: Inson nafaqat mehnat tufayli o'zini hamda oilasini boqadi, balki unda yerga va yurtga bo'lgan muhabbat paydo bo'ladi. Zotan, har bir inson o'zi o'sib-ulg'aygan zaminni, mamlakatni eng yaxshi va go'zal mamlakat deb tushunmog'i kerak, deb yozgan. Uning bu fikrlaridan har bir inson faqat o'zini emas, balki farzandlarini ham mehnatsevar qilib tarbiyalashi lozimligi kelib chiqadi. Chunki, inson mehnatsevar bo'lmasdan turib, o'z yerini, o'z Vatanini seva olmasligi tabiiy. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish, axloqiy tarbiya mazmunini amalga oshirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishning vazifalari quyidagilardan iborat: 1. Bolalarda axloqiy tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash. 2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash. 3. Bolalarda axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash. 4. Xulqdagi salbiy sifatlarini barham toptirish. Maktabgacha talim muassasalarida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi galda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda, ta'lim berish orqali kattalar mehnati bilan tanishtiriladi. Har xil bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar adabiyoti, musiqa, o'yin materiallari, ommaviy axborot vositalari televideniya, radio va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida bolalar o'z fikr-mulohazalarini aytishlariga



keng imkon beriladi. Shunda ular har bir xatti-harakatini ongli ravishda, axloq normalari va qoidalari doirasida bajarishga urinadilar. Badiiy adabiyotni o'qib berish, san'at asarlari va amaliy san'at buyumlarini tomosha qilish, musiqa va ashula eshitish bolalarda esetik hisni uyg'otardi, shu bilan bir qatorda axloq qoidalari va normalarini singdirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov —Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevoril T 1998y.
2. Sh. Nasriddinova, G. Nasriddinova —O'ynab, o'ynab o'qiymizl. Xalq ta'limi jurnali №4 2001y.
3. Maktabgacha pedagogika_ (Sh.A.Sodiqova, 2012).
4. Maktabgacha ta'lim jurnali (ISSN 2010-7919)
5. Qarshiboev H. va boshq. Muommali ta'limni tashkil etish yo'llari. – Guliston, 2004.
6. I.Karimov.Barkamol avlod orzusi. N.1997 y



IMPROVING B1 LEVEL LEARNER'S VOCABULARY COMPETENCE.

Rahmonova Sarvinoz Rustam kyzy,

English teacher of the secondary school №12, Navoi

Annotation: The article under discussion outlines the importance of vocabulary in teaching ESL learners in terms of communication and suggests effective ways and helpful strategies to improve the vocabulary competence of learners, exactly in learning the English language. It is obvious that vocabulary illustrates one of the most necessary skills important for teaching and learning the English language. It is the foundation for the development of all other skills: writing, speaking, reading comprehension, listening comprehension, spelling and pronunciation.

Keywords: intermediate-level (B1), text, vocabulary, picture, lists of words, pantomime style.

Introduction

Efficient vocabulary building in students poses a major challenge for a language trainer. It is difficult to choose the best teaching method, particularly during high-level classes such as B1 / B2 students and above, choosing topics which give students the chance to improve their vocabulary sensitively. While the first words and expressions are quickly learned at A1 / A2, when a higher level is reached it does not really suit the rate of vocabulary acquisition. In addition, groups of B1/B2 students tend to be heterogeneous in terms of their acquired vocabulary and requirements: The words that are totally new to one student are well known to the other and vice-versa. The goal of this paper is therefore to present a method for building efficient vocabulary at higher levels. According to CEFR, it is expected that B1-level candidates in ESL learning (i.e. intermediate independent target language users) will be able to understand the main point of clear, standard input on familiar issues that are regularly encountered in work, school, leisure etc. In addition, they are supposed to be able to cope with most circumstances likely to occur when they use the target language at home or abroad, in various social contexts.

They may produce a clear, cohesive text on topics of personal or social interest, explain experiences and events, desires, hopes and goals, and provide brief explanations and arguments for viewpoints and plans. Nunan [1] believes that certain standards exist to help students learn vocabulary.

1. Teachers can model how to use techniques and draw learner's attention explicitly to aspects of technique use. For example, teachers can show how to find clues to the meaning of a new word in a picture or in other words in the same sentence.

2. Teachers can teach the sub-skills needed to make use of techniques. For example: to use dictionary efficiently requires knowledge of alphabetical order and lots of practice with it.

3. Classroom tasks can include structured opportunities for using techniques. For example: when reading a story, teachers can explicitly encourage prediction of the meanings of new words.

4. Independent technique use can be rehearsed in classrooms. For example, learners can be helped to prepare lists of words that they want to learn from a lesson, can be shown ways of learning from lists and later can be put in pairs to test each other.

5. Intermediate (B1 level) learners can be helped to reflect on the learning process through evaluating their achievements. For example, at the end of the lesson they can be asked how many new words they have learnt, and which words they need to learn more about. Through regular self-evaluation, learners can come to understand more about what they are learning and how.

Moreover, your notes in the technique of charades are a technique for creating a mental picture of a word to assist in remembering the phrase. It means charades technique can help the students quickly recall the new vocabulary. On the basis of the above description, the writer concludes that charades technique will enable students to know the meaning of words as the practices of this technique use pantomime style signs, encourage students in physical activity, and increase students' interest to find out, as learners prefer to learn by engaging directly.

Conclusion, Based on the above methods, I can conclude that vocabulary teaching can be done in a number of ways. The teachers can use various techniques based on the learners' needs and level. In addition, the fact that the vocabulary of a given language can never be completely mastered has consequences for the organisation of successful vocabulary building: even at C1/C2 level, not all words are important for students to understand. So, how do you ensure successful vocabulary



building? One of the way is that, vocabulary instructor must have experience using simple stages by vocabulary teaching methods that can attract students' attention to understanding the content well. Before using the techniques in teaching vocabulary teachers must first test techniques to decide if they are suitable for use or not, since using a technique that is more relevant to the content increases the interest and excitement of learners. Additionally, learners must be taught in a way that helps them to learn the language they need to communicate with others. A lot of research and surveys are being performed to show what kind of strategies are the most effective and efficient in teaching vocabulary in ESL classes.

References:

1. Nunan David. Language Teaching Methodology. Hemel Hempstead: Phoenix, 1995.P. 34-45.
2. Harmer Jeremy. How to Teach English. Harlow: Longman, 2006. P. 67-89. 102
3. Ur Penny. Five-Minute Activities. Cambridge: Cambridge University Press, 1992.P. 4-8.



ТА'ЛИМ ТИЗИМИГА ПЕДАГОГИК INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI

Rangova Gulchiroy O'ralovna
Amonova Mohigul Ro'ziqulovna
Navoiy shahar 6-umumiy o'rta ta'lim
maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimiga pedagogik innovatsiyalarni joriy etish masalalari o'rganilgan. Ta'lim-tarbiya sohasida innovatsiyalarning o'rni to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek pedagogning innovatsion faoliyatini tashkil etishdagi kreativ yondashuvi hamda uning belgilari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, pedagogik innovatsiyalar, pedagogning innovatsion faoliyati, kreativlik, ta'lim-tarbiya, pedagogik yangilik, tashabbuskorlik, texnologiyalar.

Bugungi jadal texnologik rivojlanish davri sog'lom, zamonaviy bilimga ega, muammoli vaziyatlarga moslashuvchan hamda bu vaziyatdan oqilona fikr va qarashlari bilan chiqib keta oladigan yangi avlodni tarbiyalash vazifalarini ilgari surilmoqda. Mana shu davr inson kapitalini rivojlantirishda yuksak maqsadli vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutmoqda. Chunki inson kapitali uchun yaratilgan shart-sharoitlar istiqboldagi orzularimizni ro'yobga chiqaruvchi yosh avlodni voyaga yetkazadi. Bu 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida ham ilgari surilgan bo'lib, jumladan ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish-mamlakatimizni jadal rivojlantirish omili sifatida ko'rsatib berilgan.

Inson kapitali ham noyob boylik singari baholanadi. U odamning mehnatga yaroqlilik davrida ko'rsata oladigan xizmatlari, layoqat, qobiliyat va fazilatlarining bahosiga teng bo'ladi. Demak, inson bolalik, yoshlikda o'rgangan bilim, ko'nikmalarini ishlatib, o'ziga va mamlakatiga ko'rsatadigan xizmatlari turkumining bahosiga teng. AQSHning qanday qilib boy mamlakatga aylanganini o'rgangan olim J.Kendrik "...bunda asosiy omil inson kapitaliga qaratilgan e'tibor ekan"ligini ta'kidlaydi.

Shu nuqtai-nazardan davlatimiz ham uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni takomillashtirib bormoqda. Ta'lim tizimiga pedagogik innovatsiyalarni joriy etish bilan yosh avlodni barkamol bo'lib voyaga yetishini ko'zlammoqda.

Pedagogik innovatsiyalar-ta'lim va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o'zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Innovatsion jarayon innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish, ulardan foydalanish va tarqatish bo'yicha kompleks faoliyatni anglatadi. Yurtimizda quyidagi yo'nalishlarda innovatsion jarayonlar joriy etilmoqda: yangi ta'lim mazmunini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, ta'lim muassasalarining yangi turlarini yaratish.

Taraqqiyotni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yangiliklar inson bilimlarining barcha sohalarini qamrab oladi. Ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va boshqaruv, texnik va texnologik o'sish davrida yuzaga kelgan ehtiyojlarni qondirish usullaridan biri sifatida pedagogik yangiliklar yuzaga keldi.

Pedagogik yangilik - bu pedagogika sohasidagi yangilik, uning tarkibiy qismlarini va umuman ta'lim tizimining xususiyatlarini yaxshilaydigan barqaror elementlarni (innovatsiyalarni) o'quv muhitiga kiritadigan maqsadli progressiv o'zgarishdir. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan turib ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish - pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish "o'qituvchining innovatsion faoliyati" tushunchasi paydo bo'ldi.

Innovatsion faoliyat - pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondoshuvni nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta'limga yo'naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o'rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o'tiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa ta'limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o'rtasidagi uzilishdir.

O'qituvchi innovatsion faoliyatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash



hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak. Innovatsiya – amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy – madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondoshuvlardir. Ular tashabbus va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondoshuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Innovatsion o'zgarishlar asosida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish innovatsion amaliyot va pedagogikani sezilarli darajada boyitadi. Loyihalash tamoyillari asosida innovatsiyalarni shakllantirish va joriy etishning umumlashtirilgan modellari, ularni rivojlantirishning tizimli-mantiqiy mexanizmi, shuningdek innovatsion ta'lim faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar va chora-tadbirlar tizimidan aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, ta'limni boshqarish xodimlari foydalanishi mumkin.

Innovatsion faoliyat – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O'qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- Ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- Pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- Mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- Tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- O'zidan boshqa tadqiqotchi – pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- Hamkasblar bilan hamkorlik;
- Fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- Ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- Yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishni istagan har bir pedagog innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni. 2018 yil 21 sentabr.
2. Дьяченко В. К. Новая педагогическая технология и её звенья. Демократическая система обучения по способностям: Изд-во Краснояр. ун-та, 1994. — 182 с.
3. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000. – 52 b. 8. Goziev Yo.Yo. «Umumiy psixologiya» 1-2-tom.Toshkent-2002 y.
4. Quronov.M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz... .T. “Ma'naviyat”, 2014, 22-bet.




BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA “UNDOSHLAR” MAVZUSINI O‘RGANISHDA QO‘LLANILADIGAN DIDAKTIK O‘YINLAR

Rasulova Shaxnoza Raximovna,

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

18-umumta’lim maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari harflarni o‘rganish jarayonida harflarning bir-biridn farqi, yozilishi va o‘qilishini o‘rganadilar. Bunda o‘quvchilarga yana ham qiziqarli bo‘lishi uchun turli xil didaktik materiallar, didaktik o‘yinlardan keng foydalaniladi. “Undoshlar” mavzusini o‘rganishda quyidagi didaktik o‘yinlarni tavsiya etamiz.



“Tushib qolgan undosh harflarni top” didaktik o‘yini. Bunda o‘quvchilar rasmlarni diqqat bilan kuzatadilar, katakchalarga qo‘yilmagan undosh harflarni o‘z o‘rniga joylashtiradilar.

Didaktik o‘yinni o‘quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh tarzida o‘tkazish mumkin. **“Tez javob” didaktik o‘yini.** Undoshlar mavzusiga oid tezkor savollar. Qisqa, tez javob beriladigan savollar tuziladi. O‘quvchilardan tezkorlik bilan javob berishlari talab etiladi.

1. O‘zbek yozuvida nechta harf bor?
2. Qarmoq so‘zidagi a harfini o‘zgartirib u harfini qo‘ying.
3. Shaxrisabz so‘zi qanday harf bilan yoziladi?
4. Topishmoqning javobini ayting: O‘zi shirin, tukligina, Mazasi ham totligina.

5. Yoz faslining birinchi oyi.

6. Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan undosh harflar bilan boshlanadigan so‘zlardan ayting.

7. Qaldirg‘och so‘zi necha bo‘g‘indan iborat?

8. Qaysi tovushlar bo‘g‘in hosil qiladi?

9. Tok, tom, tosh, tol so‘zlaridagi birinchi undosh harfni ayting.

10. Qayiq, qovoq so‘zlaridagi takrorlangan unli harfni ayting.

11. Alifbodagi birinchi undosh harf.

12. D undoshi bilan boshlanadigan so‘zlardan ayting.

13. Maktab so‘zidagi ikkinchi bo‘g‘indagi a unlisining o‘rniga u unlisini qo‘yib yangi so‘z hosil qiling.

Undoshlar mavzusini o‘rganishda didaktik o‘yinlarni qo‘llash ijobiy natija beradi, darsning yana ham qiziqarli bo‘lishiga olib keladi.



PEDAGOGIK MULOQOTNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA FUNKSIYALARI

Raximova Umida Hamidovna,
Geografiya fani o'qituvchisi
17- maktab Qiziltepa tumani
munismalikam@gmail.com
Telefon: +998907311720

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagoglarning muloqot davomida ahamiyatli bo'lgan xususiyatlari hamda ularning funksiyalari haqida fikrlar berilgan bo'lib, o'qituvchining samarali faoliyat olib borishida katta foyda keltiradi.

Kalit so'zlar: Muomala kategoriyasi, muloqot, axloqiy me'yorlar, nutq dinamikasi, muloqot funksiyalari.

Muloqot - yunoncha so'z bo'lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o'zaro fikr almashuv ma'nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi. Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tairiba, ta'lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar g'oya va mafkura omillari ta'sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga yetadi. Kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot pedagogik-psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o'z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi.

Psixologiya fanida muomala kategoriyasi keng ma'noda tushuniladi hamda hamkorlik faoliyatining ichki aloqasini mujassamlashtirib, o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatni aks ettiradi va ijtimoiy protsessual faoliyatni ifodalaydi.

Pedagogikada muloqot o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lim va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega:

- muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi;
- muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega;
- O'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi;
- pedagogikada muloqot - o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazish asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashtirilgan funksiyasini bajarishidir;
- muloqot - hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiqadi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi;
- noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchilarda qo'rquv, o'z kuchiga ishonchsizlik paydo bo'ladi, ularning diqqat-e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi.

Pedagogik muloqot - bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o'zi uchun eng qulay bo'lgan psixologik muhitni vujudga keltirib. Ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir.

- O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad:
- salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;
 - o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;
 - o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish;
 - o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;
 - dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Педагогика. (Под ред. П.И. Пидкасицкого).- М.: Педагогическое общество России, 2003.
2. Педагогика nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X Toxtaxodjeyev va boshqalar)-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. -380b.



BIOLOGIYA DARSLARIDA HAMKORLIK TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Saidova Zulfira Abdurasulovna
Boboyorova Dilnoza G'ulomovna
Navoiy shahar 6-umumiy o'rta ta'lim
maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya darslarida hamkorlik texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari borasida fikr yuritilgan. Shuningdek biologiya fanini o'qitilishi ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarishda, biologiya sohalarining rivojlanishida, biologik tabiiy mahsulotlardan foydalanishda, aholini sog'ligini saqlashda va sifatli oziq ovqat bilan ta'minlashdagi o'rni haqida ham bayon qilingan.

Kalit so'zlar: biologiya fani, o'qituvchi, o'quvchi, hamkorlik texnologiyasi, hamkorlik pedagogikasi, kommunikativ kompetensiyasi, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, QR-kod, elektron resurslar.

Bugungi kundagi ta'limning asosiy maqsadi o'quvchi yoshlarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Mana shu ko'zlangan maqsadga erishishda hamkorlik texnologiyasining ahamiyati kattadir. Sababi, hamkorlik texnologiyasi asosida o'quvchilarda hamjihatlilik, hamfikrlilik, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Bu ko'nikmalar esa o'z navbatida o'quvchi yoshlarni hayotda o'z pozitsiyasiga ega bo'lishiga ko'maklashadi. Ular istiqbolda jamiyatda o'zaro munosabatlarda faol ishtirok eta oladi. O'z fikrlari va qat'iy qarashlari bilan jamoani birlashtirish, orqasida ergashtirish va hamkorlikda ishlashga chorlay oladi. Shuning uchun ham umumta'lim fanlarini o'qitishda hamkorlik texnologiyasidan foydalanishni tavsiya etamiz. Jumladan, biologiya fanini o'qitishda ham ushbu texnologiyadan foydalanishning o'ziga xosliklari mavjud.

Biologiya o'quv predmetlari o'quvchilarda jonli tabiatning ob'ekti va tizimini his etish, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi aloqalarni shakllantiradi. Jonli muhit muammolarini hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar, o'quvchilarning ijtimoiylashuvi yaxshilanadi. Bir vaqtning o'zida atrofimizni o'rab turgan jonli tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy rang-baranglikni saqlab qolish, shuningdek, javobgarlikni his qilgan holda mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi.

Shu bilan birga ular Davlat ta'lim standartlarida berilgan kompetensiyalarni ham shakllanishda hamkorlikda o'qitish yaxshi natija beradi. Jumladan, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda davlat tili, horijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda tabiiy va iqtisodiy fanlarga oid atamalarni to'g'ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o'rgatish zarur. Bu jarayonda o'quvchilarni hamkorlik texnologiyalari asosida interfaol usullar bilan o'qitish talab etiladi. Masalan, "Kichik guruhlarda ishlash" usulini o'qituvchi sinf o'quvchilarining psixologik va bilimlarni o'zlashtirish darajasiga qarab yangi yo'llar bilan amalga oshirsa bo'ladi. Chunki bugungi ta'lim innovatsiyalarga muhtoj. Biz o'qituvchilar kitobda yoki biron-bir o'quv-metodik qo'llanmada berilgan metod yoki usullar bilan cheklanib qolganmiz.

Biologiya fanini o'qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot havfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

Bugungi kunda asosan xorijiy tillarni o'rganishda, maktabgacha ta'lim va tarbiyada, boshlang'ich ta'limda tarbiya darslarida qo'llanilayotgan elektron kitoblarni mobil uskunalarga yuklab va ko'chirib olish maqsadida QR-koddan foydalanish yaxshi samara bermoqda. Shuning uchun biologiya fani bo'yicha ham elektron kitoblarni mobil uskunalarga yuklab va ko'chirib olish maqsadida QR-kod yordamida sinflar kesimida o'quv-metodik majmualar (darslik, laboratoriya daftari, tajriba namoyishlar, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasi) haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Umuman olganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanidan ta'lim berish, uning



ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarishda, biologiya sohalarining rivojlanishida, biologik tabiiy mahsulotlardan foydalanishda, aholini sog'ligini saqlashda va sifatli oziq ovqat bilan ta'minlashda, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Shu nuqtai-nazardan biologiya fanini o'qitish **birinchidan**, fanni o'qitishning yangi sifat bosqichiga ko'tarish, jumladan zamonaviy ta'lim va axborot kommunikativ texnologiyalardan, elektron darslik hamda zamonaviy laboratoriya jihozlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishning yangi ilmiy yo'nalishlari va tamoyillarini tadbiq etishni talab etadi. **Ikkinchidan**, umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini belgilash orqali biologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti talablarining ta'lim sifati va kadrlar malakasiga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash kerak. **Uchinchidan**, o'quvchilarni biologiya fani bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish, kundalik hayotiy jarayonlarda duch kelgan muammolarni hal qilishda foydalana olishga yo'naltirish darkor. Bunda bizga albatta hamkorlik pedagogikasi yordam beradi. **To'rtinchidan**, biologiya ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy yo'nalishlari va tamoyillarini tadbiq etish davr talabidir. **Beshinchidan**, biologiyani o'qitishda ta'lim-tarbiyaning uzviylikini ta'minlash, biologiya o'quv fani mazmuniga bog'liq holda o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik, ekologik, estetik, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, jinsiy, mehnat va baynalminal tarbiyalash tizimini ishlab chiqish lozim. **Oltinchidan**, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish kerak.

Biologiya fanini o'qitish jarayonini tabaqalashtirish asnosida iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning ehtiyoji va qiziqishiga yarasha bilim olishlariga imkon yaratish zarur. Chunki bu iqtidorlarning istiqboldagi natijasi davlatimiz taraqqiyotini ta'minlashi mumkin. Biologiya o'quv fani bo'yicha hamkorlik texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda ilmiy dunyoqarash va global tafakkurni shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

Shu bilan birga o'qituvchilarimiz hamda ota-onalardan Xalqaro baholash dasturi (PISA) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashda o'quvchilarga yordam berishi va ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashini shakllantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori
2. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 6108-sonli Farmoni.
3. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ – 4884-sonli Qarori.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA YOZUVGA O‘RGATISH YO‘LLARI

Sattorova Nasima Ubaydullayevna
Navoiy viloyati Karmana tumani 13-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish davrida yozuvga o‘rgatish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich, savod o‘rgatish, yozuv, o‘qish.

Barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo‘lib kelgan. Biroq dunyo xalqlarining barchasi ham bu haqida o‘ylayvermagan. Bunday orzudagi insonlar azaliy-azaliy ma‘rifatga, madaniyatga mansub bo‘lgan yurtlarning donishmandlari- eng mo‘tabar ziyolilari hisoblangan. Barkamol avlodi tarbiyalash orzusiga o‘z tariximizdan juda ko‘p dalillar keltirishimiz mumkin. Ma‘lumki boshlang‘ich ta‘lim barkamol avlodni tarbiyalashdagi muhim bosqich hisoblanadi. Shuning uchun, boshlang‘ich ta‘limga e‘tibor va yangicha yondashuv xalq ta‘limining diqqat markazidagi vazifalardan biridir.

Boshlang‘ich ta‘limning samaradorligini o‘quvchilarda o‘ziga xos tarzda tarkib topgan ta‘limiy faoliyatning shakllanish darajasiga bog‘liq. Bunday faoliyat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida, o‘qituvchi rahbarligida shakllanadi va muntazam ravishda shakllanib boradi.

Boshlang‘ich ta‘lim samaradorligini ta‘minlashda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik kasb mahorati ham muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi barcha pedagogik-psixologik vositalarni qo‘llagan holda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda yaxlit tarzda o‘quv faoliyatini shakllantira olishi erkinligi bugungi kunda barchaga ayon. Bu o‘quv faoliyati fonetik- grammatik, grammatik, orfografik, va orfoepik tushunchalar ustida ishlashda shakllansa, o‘quvchilarning og‘zaki va nutqidagi nuqsonlar yo‘qola boradi. O‘quvchilar ilk bor marotabga qabul qilinganidan boshlab ularning og‘zaki va yozma nutqiga e‘tibor kuchaytiriladi. Dastlabki sinflardan boshlab o‘quvchilarning husnixat malakalari ustida ishlash, ularga yozuv qoidalarini o‘rgatib borish, alifbodagi har bir harfni yozuvda to‘g‘ri va aniq ifodalab berishga o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘quvchisidan juda katta ma‘suliyatni talab qiladi..

Ma‘lumki, insoniyat tomonidan yaratilgan eng katta kashfiyotlardan biri bu- yozuvdir. Yozuv insoniyat tomonidan hayotiy ehtiyojlar va zaruriyatlar tufayli o‘ylab topildi va insoniyatning o‘ziga, jamiyatning misilsiz taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda. Yozuv fikrni tovush yetmaydigan joy va kelajakka yetkazish ehtiyojidan kelib chiqqan. Shunday qilib, yozuv insoniyat tarixini kelajak avlodga yetkazib berishdek juda katta vazifani bajarib kelayotgan buyuk ne‘matdir.

“Boshlang‘ich ta‘lim“ dasturida o‘qishga o‘rgatish yozuv darsi bilan chambarchas bog‘lashni maqsad qilib qo‘yadi. O‘quvchilar o‘qish darsida “Alifbe” kitobidagi tayyor bosma harflardan foydalansalar, yozuv darsida bu narsalar ko‘rinmaydi. Har bir harf va uning unsurini o‘quvchilarning o‘zi namuna asosida bajarishlari kerak. Harf va uning unsurlari orasidagi masofani to‘g‘ri saqlash hamda daftarga bir tekis yozish endigina yozishga o‘rganayotgan o‘quvchi uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shuning uchun ham bu sinfda yozuvga o‘rgatish bior qator tushunchalarni bilishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, yozish malakasi o‘qishga qaraganda ancha murakkabdir. O‘qishning birinchi haftalaridagi tayyorgarlik mashqlari, asosan, og‘zaki nutqni o‘stirishga qaratiladi. Ammo butun bir soatlik dars mobaynida og‘zaki nutq bilan shug‘ullanish bolalarni zeriktirib qo‘yishi mumkin. Bu davrda xusnixatga oid tayyorgarlik mashqlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili o‘qitish metodikasi .Qosimova K.Safo Matchonov
2. WWW.uzedu.uz.



ELEKTRON RESURLARNI RUXSATSIZ SKANERLASHNI ANIQLASH VA HIMOYALASH USULLARINI ISHLAB CHIQUISH.

Sayfiyev Nabi Ashur o'g'li

Muhammad al- Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.

Axborot xavfsizligi yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborotlar va elektron resurslar, ularga ruxsatsiz kirishni himoyalash haqida fikr-mulohazalar keltirildi.

Kalit so'zlar: axborot, himoya, skanerlash, xavfsizlik, tijorat, raqobat, ma'lumot

Axborotni muhofaza qilish - bu himoyalashni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui tanqidiy jihatlar axborot xavfsizligi (ma'lumotlarni kiritish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun foydalaniladigan ma'lumotlar va resurslarning yaxlitligi, mavjudligi va kerak bo'lganda maxfiyligi). Tizim, agar u tegishli apparat va dasturiy ta'minotdan foydalangan holda, faqat tegishli vakolatli shaxslar yoki ularning nomidan ish yuritadigan jarayonlarga ma'lumot o'qish, yozish, yaratish va o'chirishga ruxsat berilishi uchun ma'lumotlarga kirishni nazorat qilsa, xavfsiz deb aytiladi.

Tizim ishonchli deb hisoblanadi, agar u etarli miqdordagi apparat va dasturiy ta'minotdan foydalangan holda, foydalanuvchilar guruhi tomonidan turli xil maxfiylik darajasidagi ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida kirish huquqlarini buzmasdan qayta ishlashni ta'minlasa. Ishonchli tizim sodir bo'lgan barcha xavfsizlik hodisalarini qayd etishi kerak (qayd qilish uchun hisobdorlik mexanizmidan foydalanish kerak, saqlangan ma'lumotni tahlil qilish bilan to'ldirish kerak, ya'ni audit).

Axborotni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari davlat, tijorat, rasmiy, bank sirlari, shaxsiy ma'lumotlar va intellektual mulkni himoya qilishdir. Davlat siri - tarqatilishi xavfsizlikka zarar etkazishi mumkin bo'lgan harbiy, tashqi siyosiy, iqtisodiy, razvedka, qarshi razvedka va tezkor-qidiruv faoliyati sohasida davlat tomonidan himoya qilinadigan ma'lumotlar.

Dasturiy ta'minotni qoplash maxsus dasturlar, dasturiy ta'minot tizimlari va turli xil maqsadlar uchun axborot tizimlarida axborotni himoya qilish tizimlari va ma'lumotlarni qayta ishlash vositalari (yig'ish, to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatish). Kriptografik vositalar bu turli xil shifrlash usullari yordamida kompyuterda saqlanadigan va qayta ishlanadigan aloqa tizimlari va tarmoqlari orqali uzatiladigan ma'lumotlarni himoya qilishning maxsus matematik va algoritmik vositalari. Axborot xavfsizligi apparati quyidagi vazifalarni hal qilish uchun ishlatiladi: 1) ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun texnik vositalarni axborotni oqishi mumkin bo'lgan kanallari uchun maxsus tadqiqotlar o'tkazish;

2) turli xil ob'ektlar va binolarda axborot tarqalish kanallarini aniqlash; 3) axborotni tarqatish kanallarini lokalizatsiya qilish; 4) sanoat josuslik vositalarini qidirish va aniqlash; 5) maxfiy ma'lumot manbalariga ruxsatsiz kirishga qarshi kurashish va boshqa harakatlar. Axborotni muhofaza qilishning dasturiy usullari va vositalari Chet elliklarning kirib kelishidan kompyuterni himoya qilish tizimlari juda xilma-xildir va quyidagicha tasniflanadi: 1) umumiy dasturiy ta'minot bilan ta'minlangan o'zini himoya qilish vositalari; 2) hisoblash tizimining bir qismi sifatida himoya vositalari; 3) ma'lumot so'rash himoya vositasi; 4) faol himoya vositalari; 5) passiv himoya vositalari va boshqalar. Axborotni dasturiy muhofaza qilishdan foydalanishning asosiy yo'nalishlari Maxfiy axborot xavfsizligini ta'minlash uchun dasturlardan foydalanishning quyidagi yo'nalishlarini ajratish mumkin, xususan: 1) axborotni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish; 2) ma'lumotni nusxalashdan himoya qilish; 3) dasturlarni nusxalashdan himoya qilish; 4) dasturlarni viruslardan himoya qilish; 5) axborotni viruslardan himoya qilish; 6) aloqa kanallarini dasturiy himoyasi. Ushbu yo'nalishlarning har biri uchun professional tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan va bozorlarda tarqatiladigan yuqori sifatli dasturiy mahsulotlar yetarli darajada. Himoya dasturida quyidagi turdagi maxsus dasturlar mavjud: 1) texnik vositalarni, fayllarni identifikatsiyalash va foydalanuvchining autentifikatsiyasi; 2) texnik vositalar va foydalanuvchilarning ishlashini ro'yxatdan o'tkazish va nazorat qilish; 3) axborotni ishlashga cheklangan rejimlarini ta'minlash; 4) ishlaydigan kompyuter vositalari va foydalanuvchilarning amaliy dasturlarini himoya qilish; 5) foydalanishdan keyin himoya vositalaridagi ma'lumotlarni yo'q qilish; 6) resurslardan



foydalanishning buzilishi to'g'risida signal berish; 7) dasturlarni qo'llab-quvvatlash turli maqsadlar uchun himoya qilish. Axborotni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish Bosqinlardan himoyalaniş uchun ma'lum xavfsizlik choralari ta'minlanishi shart. Dasturiy ta'minot tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan asosiy funktsiyalar: 1) sub'ektlarni va ob'ektlarni aniqlash; 2) kirishni chegaralash (ba'zan to'liq izolyatsiya qilish) hisoblash resurslari va ma'lumotlar; 3) harakatlarni axborot va dasturlar bilan nazorat qilish va ro'yxatdan o'tkazish. Eng keng tarqalgan identifikatsiya qilish usuli parolni tasdiqlashdir. Ammo, amaliyot shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlarning parol bilan himoyalanişi zaif bo'g'in hisoblanadi, chunki parolni tinglash, ushlab qolish yoki shunchaki taxmin qilish mumkin. Nusxadan himoyalash. Nusxadan himoya qilish vositalari dasturiy ta'minotning o'g'irlangan nusxalaridan foydalanishni oldini oladi va hozirda yagona ishonchli vosita - dasturchilar-mualliflarning mualliflik huquqlarini himoya qiladi. Nusxalashdan himoya qilish degani, bu dastur faqat ba'zi bir noyob nusxa olinmaydigan element tan olinishi bilan o'z vazifalarini bajarishini ta'minlaydi. Bunday element (kalit deb ataladi) floppi, kompyuterning ma'lum qismi yoki shaxsiy kompyuterga ulangan maxsus qurilma bo'lishi mumkin. Nusxalashdan himoya qilish barcha himoya tizimlari uchun umumiy bo'lgan bir qator funktsiyalarni bajarish orqali amalga oshiriladi: 1. Dastur ishga tushiriladigan muhitni aniqlash (floppi yoki kompyuter); 2. Dastur ishga tushirilgan muhitni autentifikatsiya qilish; 3. Ruxsatsiz muhitdan ishga tushirish reaksiyasi; 4. Vakolatli nusxalashni ro'yxatdan o'tkazish; 5. Tizim algoritmlarini o'rganishga qarshi ta'sir. Zamonaviy axborot xavfsizligi uskunalarini o'rnatish xavfsiz ishlash, muzokaralar va muhim ish uchrashuvlari uchun sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S .K.G'aniyev, M.M.Karimov,K.A.Tashev - Axborot xavfsizligi.O'quv qo'llanma.Toshkent -2016.
2. A.Rizayev,B.Temirov - Axborot texnologiyalari xavfsizligi.Toshkent- 2008.



ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ТАБИИЙ БОЙЛИКЛАР ВА ТАБИАТНИ МУHOFAZA QILISH

Sobirova Gulnora Isroilovna

Qiziltepa tumani 6-umumiy
o'рта ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizdagi tabiiy boyliklar va ushbu boyliklardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, mamlakatimizda suvning taqsimlanishi, suvni va tabiiy boyliklarni tejab ishlatish, o'quvchilarga suvlarni muhofaza qilishni o'rganish kabi ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy boyliklar, ehtiyojlar, elektr quvvati, Qizil kitob, o'rmonlar, qo'riqxonalar, Biosfera rezervati, xarita.

Inson dunyoga kelibdiki, tabiat quchog'ida yashaydilar. O'z ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy boyliklardan foydalanadi. Inson tabiatdan oladigan barcha moddiy boyliklar- yer-ostiboyliklari, suv, havo, tuproq, o'simliklar, hayvonot olami va boshqalar tabiiy resurslar (boyliklar) hisoblanadi.

Tabiiy boyliklar- odamlarning yashashi hamda moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishi uchun zarur bo'lgan, uni o'rab turgan tabiiy muhitning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Tabiiy boyliklarga Quyosh energiyasi, Yerning ichki issiqligi, suv, havo, yerosti boyliklari, o'simliklar, tuproqlar, hayvonot dunyosi kiradi. O'zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarini muhofaza qilish inson uchun zarur bo'lgan qazilma boyliklari dan oqilona foydalanish, suv va havoni toza saqlash tuproqni eroziyadan saqlash, o'simlik va hayvonlarni asrab qayta tiklashni tabiiy holicha saqlash kabilarni o'zichiga oladi.

Tabiiy boyliklar uch turga bo'linadi: tugaydigan, tugamaydigan va tugab yana qayta tiklanadigan. Tugaydigan tabiiy boyliklarga, asosan, yerosti boyliklari kiradi.

Tugamaydigan tabiiy boyliklariga Quyosh nuri, Yerning ichki issiqligi, havo va boshqalar tegishli. O'lkamiz ayniqsa, Quyosh nurlariga boy. Chunki yil davomida bulutli kunlar kam bo'lib, Quyosh nur sohib turadi.

Qayta tiklanadigan tabiiy boyliklarga esa o'simliklar, hayvonlar, tuproqlar va suvlar kiradi. Ular inson tomonidan ko'p foydalanilishi oqibatida kamayib, nobut bo'lishi mumkin. Lekin ma'lum vaqt foydalanilmay turilsa yoki parvarish qilinsa yana o'z holiga qaytadi. Insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish usullari mukammallasha borgan sari jadallashadi, tabiatdan, uning boyliklarini, qurilish va ishlab chiqarish texnikasi aloqa vositalari yirik shaharlarni o'zgartirib, yirik vohalar, madaniy landshaftlar yaratishga, hosil dor ekin hamda mevalar, mahsuldor chorva mollari yetishtirishga imkon beradi. Lekin ba'zan chuqur o'rganmasdan inson qudratiga ortiqcha baho berib, tabiatga ta'sir ko'rsatish tabiatni foydalanib bo'lmaydigan holatga, uning buzilishi va ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Bunday manzara insoniyatning butun tarixi mobaynida kuzatiladi. Lekin 19-asrgacha insonning tabiatdan foydalanish ko'lamini uncha katta bo'lmagani uchun inson faoliyatining tabiatga ta'siri kamroq bo'lgan.

Tabiatni muhofaza qilish- tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlab ongli ravishda o'zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go'zalligi, musaffoligini saqlab qolishga va yanada boyitishda qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari majmuasiga davlatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoat, ilmiy- texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ma'muriy tashkilotlar, har biri dam tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi. Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirida bo'ladi, undan o'ziga kerakli narsalarni oladi, shu muhitda moslashadi, muhit tarkibiga, undagi modda va energiya ning aylanma harakatiga ma'lum darajada o'zgarish kiritadi. Yerning havo qobig'idagi hozirgi gazlar tarkibi, miqdori, ayrim foydali qazilmalar, tuproq qoplaminin tarkib topishi, rivojlanishi organizmlarning hayot faoliyati natijasidir. Yerdan odamning paydo bo'lishi organik dunyo bilan tabiiy muhitni o'rtasidagi o'zaro munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi.

Odamlar tabiat boyliklaridan o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanadi. Inson aql-zakovati bilan mehnat qurollari va texnikaning taraqqiyoti natijasida tabiatga ortib bormoqda. Insonning tabiatga ta'siri kuchaygani sari Ona zaminimizning havosi va suvlari ifloslanmoqda, tabiat boyliklari kamaymoqda. Shuning uchun tabiatni asrash odamlar uchun juda katta hayotiy



ahamiyatga ega. Inson tabiatga beparvo, e'tiborsiz bo'lsa, tabiatdagi o'zaro bog'liqlik buziladi. Bu esa u yoki bu tirik jonzotning halokatiga olib keladi. Masalan, agar o'rmondagi kesilgan daraxtlar o'rniga ko'chatlar ekib, o'rmon tiklanib borilmasa, inson uchun zarur bo'lgan havodagi kislorod miqdori kamayib ketadi. O'rmonlarning qisqarishi hayvonlarning qirilib ketishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi paytda tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish muammolari dunyo miqyosiga ko'tarilgan. Yuzdan ortiq mamlakatlarda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha maxsus tashkilotlar tuzilgan, ko'plab qonunlar qabul qilingan. O'zbekistonda ham tabiatni muhofaza qilishga hukumatimiz miqyosida alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tuzildi, Ekologik partiya tashkil etildi. Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya va "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonunga asosan amalga oshiriladi. Har birimiz ana shu qonunlarga rioya qilishimiz, jonajon tabiatimizni asrashimiz, u haqida qayg'urishimiz lozim. Mamlakatimizdagi yo'qolib borayotgan o'simliklar va hayvonlar "O'zbekiston Respublikasi Qizil kitob"ga kiritilib, muhofazaga olingan." Qizil kitob" o'simlik va hayvonot olamining kamyob, yo'qolib ketish xavfi bo'lgan turlari haqida ma'lumot beradigan, insonlarni tabiat muhofazasi masalasiga jalb etadigan kitobdir. "O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi" ga o'lkamiz hududidagi o'simliklarning 324 turi, hayvonot olamining 184 turi kiritilgan. Ularni muhofaza qilish uchun qo'riqxonalar va rezervatlardan tashqari 3 ta milliy tabiat bog'i, buyurtmaxona, parvarishxona tashkil etildi.

Sayyoramizdagi kabi Respublikamizda ham ekologik muammolar yo'q emas. Respublikamizdagi eng muhim ekologik muammolarni va ularni oldini olish chora-tadbirlarini Sayyoramiz kelajagi, insoniyatning taqdiri hozirgi davrda ko'p jihatdan ekologik muammolar yechimiga bog'liq bo'lib qoldi. Ekologik muammolar keying 10 yilliklar davomida yana keskinlashib ketdi. Havoning ifloslanishi, ichimlik suvining o'ta taqchilligi, ona zaminning zaharlanishi, ekish va hosil olish mumkin bo'lgan unumdor yerlarning, yerosti va yerusti boyliklarining, o'simliklarning va hayvonlar nodir turlarining kamayib borayotganligi, atmosfera haroratining sezilarli darajada oshib borishi sabab bo'lmoqda.

Ekologik muammolarga: -Atmosfera ifloslanishi va unda O₂ ning kamayishi.

-Havo haroratining ko'tarilishi.

-Ichimlik suv va suvning ifloslanishi.

-Tuproq eroziyasi va uning ifloslanishi.

-Sun'iy tog'lar hosil bo'lishi.

O'zbekiston Respublikasi dunyodagi barcha mamlakatlar, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlik va hamjihatlikda tabiat atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12-iyuldagi Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar va O'zbekiston ekologik harakatlari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida hokimiyat vakillari Ekologik harakatning o'tgan davri tanqidiy tahlil qilindi.

Atmosferaning ifloslanishini oldini olish maqsadida o'rmonlardagi daraxtlarni kesmasdan avval ko'plab manzarali daraxtlar qurib, turli xil gullar o'stirish lozim. Mamlakatimizda suv hamma joyda bir xil taqsimlanmagan. Zilol suvli, sersuv daryolar, asosan, tog'li hududlarda joylashgan. Tekislik qismida esa suv manbalari juda siyrak, aholining ehtiyojini qondirishga kamlik qiladi. Shuning uchun suvni nihoyatda tejab, undan oqilona foydalanishimiz zarur.

Tabiatni asrab unga qancha g'amxo'rlik qilsak tabiat ham o'z saxovatini ayamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. M.I.Nuriddinova. Cho'lpon nomidagi nashriyoti-matba ijodiy uyi. Toshkent-2005

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun Tabiatshunoslik. "Sharq" nashriyoti.



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Sultonova Sabohatxon Yusupovna,
Navoiy shahar 8-umumta‘lim maktab
boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

Yuqori sinflarda bolalar shaxs bo‘lib, jamoa bo‘lib shakllanadi. Ayni o‘sha paytda ularni o‘zlari o‘rgangan muhitdan ajratib qo‘ymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomatiga, oxir-oqibatda ta‘lim-tarbiyasiga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Shu bois ta‘lim jarayonining usluksizligini ta‘minlash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish zarur.

SH.M.Mirziyoyev

Ta‘lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo‘llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi. Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an‘anaviy o‘quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta‘sir ko‘rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo‘lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g‘amxo‘rlik, ta‘lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e‘zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug‘ullanishi va o‘zini o‘zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi.

Mazkur jarayonda talaba o‘z o‘quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta‘lim jarayonining subyekti - ta‘lim-tarbiya vazifalarini hal etadi. Pedagogik texnologiyalar ta‘lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.[2]

An‘anaviy o‘qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o‘g‘zaki so‘zlarga tayanib ish ko‘rishi tufayli “axborotli o‘qitish” sifatida tafsiflanadi, chunki o‘qituvchi faoliyati birgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta‘kidlagan holda baxolanmoqda. Birinchidan, pedagogik texnologiya ta‘lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalalanadi. Binobarin har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniqlab beradi va shunga mos holda ma‘lum pedagogik tizim mavjud bo‘ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o‘z ta‘sirini o‘tkazadi va ta‘lim-tarbiya mazmunini umumiy holda belgilab beradi.

«Maqsad» esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o‘z navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, ilmiy texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko‘payib, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayotganligi va o‘qitish imkoniyatlari katta bo‘lgan yangi texnologiyalarning ta‘lim sohasiga

kirib kelayotganligi, o‘qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta‘lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta‘lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga o‘zining ma‘lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizuall vositalar mavjudki ular yangi pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi. Uchinchidan, sanoat va boshqa texnologiyalarning auditoriyaga uzluksiz kirib kelishi va jonli o‘quv ob‘ektlariga aylanishi o‘qituvchining an‘anaviy metodika doirasidan chiqib ketishiga va tabiiy ravishda, texnologik yondashuvlarni qo‘llashga ehtiyojni tug‘dirmoqda.

Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. J.G‘. Yo‘ldoshev, S.A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: O‘qituvchi, 2004.
2. Ochilov M. Pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.
4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsiya texnologiyalari yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2004.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MULTIMEDIYA DASTURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA DIDAKTIKANING O‘RNI

Suyarova Dildora Sulaymonovna
Samarqand viloyati, Urgut tuman
149-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchi

Anotatsiya: Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda multemidiya vositalaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri bo‘lib bormoqda. Ushbu maqolada multemidiya vositalarini samarali tashkil etish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: multemidiya, didaktika, zamonaviy texnologiyalar.

Аннотация: Эффективное использование мультимедиа в начальной школе - одна из самых актуальных проблем на сегодняшний день. В этой статье рассматривается эффективная организация мультимедийных.

Ключевые слова: мультимедиа, дидактика, современные технологии.

Annotation: The effective use of multimedia tools in primary school is one of the most pressing issues today. This article discusses the effective organization of multimedia.

Keywords: multimedia, didactics, modern technologies.

Xalq ta’limi vazirligining 2011-yil 9-iyundagi “Umumta’lim maktablari uchun 2011-2012 o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risidagi” 123-sonli buyrug‘iga ko‘ra maktab ixtiyoridagi soatlar hisobidan 2-4 sinflarda informatika darslarini tashkil etish ko‘rsatilgan. Shunday ekan o‘quvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish kerakligini anglatadi. Hozirgi davr bilamizki rivojlanayotgan texnologiyalar asri, shuning uchun ham boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘quvchilarga kompyuter texnologiyalardan bilim berib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchilar esa kompyuter xotirasidagi didaktik o‘yinlar orqali o‘z bilimlarini boyitib boradilar. Shu jihatdan qaralganda ta’lim jarayonida qo‘llanadigan didaktik o‘yinlarning roli beqiyos deb o‘ylayman.

Bizlarga ma’lumki boshlang‘ich ta’limda yangi texnologiyalar, ya’ni, zamonaviy axborot texnologiyalari yosh bolalarni bilim olish rivojlantirishga katta yordam beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan har qanday darslar bola ruhiyatiga ijobiy ta’sir qilishiga ishonchim komildir. Har qanday texnologiya- bu axborot texnologiyalari bo‘lib, uning negizini ma’lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quv texnologiyasining bevosita yetkazuvchisi sifatida, yangiliklardan boxabar bo‘lgani holda, dars jarayonini qiziqarli olib borishi lozim. Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning kayfiyati, qiziqishlari, dunyoqarashi, tafakkuri, aqliy rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Internet texnologiyalarining kirib kelishi o‘quvchilarga axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradi, mustaqil ishlashlari samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko‘nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar beradi, ta’limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining asosiy talablaridan biri axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish haqida ham so‘z yuritilgan.

Bugungi kun o‘qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazishdek mas’uliyatli vazifa yuklatilgan. Ta’limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o‘quvchilarda o‘z faniga qiziqish uyg‘otishlari, hurmat-ehтиrom tuyg‘ularini shakllantirib borishlari talab etiladi.

Avvallari inson savodini chiqarishda ajdodlarimiz qaysi bir jamiyatda yashashidan qat’iy nazar vaqtlar o‘tishi bilan ta’lim jarayonini sifat jihatdan o‘zgartirishga va rivojlantirishga harakat qilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Shu o‘rinda yuqoridagi texnik vositalar o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini oshirish, berilayotgan bilimlarni tushunish darajasini, xotirada saqlash va uni qo‘llashni yuksaltirish imkoniyatlarini ham bermoqda.

Ta’lim jarayonida o‘quvchi passiv eshituvchi, o‘qituvchi axborotlarni bayon qiluvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘quv jarayonida o‘qituvchilarning ma’suliyatini, javobgarlik hissini susaytiradi. Demak, ular mustaqil fikr yuritish, mushohada qilish, amaliy xulosa chiqarishdan yiroqda bo‘ladi. Akademik V.P. Bepalko pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta’rif beradi. Pedagogik texnologiya - bu o‘qituvchi maqoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatlarni kafolatlay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. Kompyuter grafikasida



to'garak qatnashchilari axborotlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo'ladilar.

Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. Didaktik o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida didaktik o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Didaktik o'yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

Didaktik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:

Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga etgunga qadar o'ynaladigan o'yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to'g'risida umumiy tushuncha hosil bo'ladi. O'yinda o'ynaladigan har bir buyum yoki o'yinchoq o'zining tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o'yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Stol-bosma o'yinlari bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini o'stirish imkonini beruvchi o'yin usulidir. Bu o'yin turiga a) loto; b) juft rasmlar; d) domino; e) labirint kiradi.

Og'zaki so'zli o'yinlari katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladi. Ular bolaning eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, o'z fikrlarini tez va aniq ifoda eta olishga o'rgatadi. Tadqiqotchilarning fikricha, bunday o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Bilamizki o'z o'zidan o'yin jarayonida o'quvchilarda quvnoq kayfiyat, ijobiy his-tuyg'ular yuzaga kelar ekan.

Adabiyotlar

1. Adilova S. Multimedia vositalari va uni ta'lim jarayonida qo'llash
2. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. -T.: «O'qituvchi», 2013. – 198-210-b.
3. Yusupova P. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T.: «O'qituvchi», 2008. -173b
4. G'apbarova T, Nurillayeva Sh, Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona-tili va o'qitishdan didaktik materiallar. Toshkent. 2004.
5. Shohida Jo'rayeva. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ta'lim berishda multemediya vositalaridan foydalanish. toshkent-2013



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI CHIROYLI YOZUVGA O‘RGATISH

To‘xtapo‘latova Nafosat,
Navoiy viloyati Navbahor tumani
33- umumta’lim maktabi,
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
+998 94 2539309

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda chiroyli yozuvning ahamiyati, o‘quvchilarni chiroyli yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish haqidagi fikrlardan iborat.

Kalit so‘zlar: chiroyli yozuv, bo‘g‘in, matn, grafik malaka.

Ma’lumki, insonning psixologik xususiyatlari go‘dakligidanoq shakllanib boradi. Ilk maktabga borgan vaqtida o‘tirish qoidalarini, ruchka ushlab ko‘nikmalari asta-sekin rivojlanib boradi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan katta mas’uliyat talab qiladi. Chunki ona tili darslarini tashkil qilishda chiroyli yozuv, husnixatning o‘rni juda katta. Boshlang‘ich sinfda bolaning yozuvi yillar o‘tsada, ma’lum ma’noda saqlanib qoladi.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, yozuv zamon va masofa jihatidan og‘zaki nutqqa nisbatan ustunlikka ega. Texnikaning rivoji (telefon, telegraf, radio, televizor, internet) natijasida undagi ustunlik masofa jihatidan zaiflashdi, lekin zamon e’tibori bilan yozuv hali ham og‘zaki nutqdan ustun XIX-XX asr boshlarida topilgan va deshifrovka qilingan juda ko‘p yodgorliklar yozuvning paydo bo‘lishi va tarixiy taraqqiyotini yoritish imkonini berdi. Fanning bu yutug yozuv tarixini tilshunoslik fanining mustaqil bir bo‘limi sifatida ajratishga olib keldi.

Chiroyli yozuv imlo bilan chambarchas bogliq. O‘quvchining imloviy savodxonligi haqida g‘amxo‘rlik qilish tilning aniqligi, fikmi to‘g‘ri ifodalash, kishilar bilan o‘zaro xatosiz muomala uchun g‘amxo‘rlik demakdir. Shu sababli ham savod o‘rgatish davrida bolalarda grafik malakalarni shakllantirish bilan birga imloga oid malakalarning shakllanishiga zamin yaratiladi. Malumki, savod o‘rgatish davrida o‘quvchi gapni bosh harf bilan yozish, so‘zning satrga sig‘may qolgan qismini keyingi qatorga ko‘chirish, kishilar ismi, sharifi, hayvonlarga qo‘yilgan nomlarda bosh harf ishlatilishini amaliy tarzda o‘rganadi. Chiroyli yozuv darslarida so‘zlar, gaplar, matnlar yozish, ularning imlosini tekshirishi orfografik ziyalikni asta-sekin shakllantira boradi, imlo qoidalarini puxta egallashlariga zamin yaratadi.

O‘quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun diqqat, sezgi, idrok etish, xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etishini ko‘ramiz. Bu bog‘lanishlar miyada mustahkamlanadi va saqlanib qoladi. Bu hol o‘quvchiga idrok etgan va sezgan narsalarini xotiraga muhrlash imkonini beradi. Masalan, o‘quvchilarning o‘qituvchi bayon qilayotgan harflar shaklini qanday yozayotganliklarini tahlil qilib ko‘raylik. Bu jarayonni uning asosiy xarakteriga ko‘ra, idrok etish jarayoni deb atash mumkin. Biroq bu idrokning aniq va ravshan bo‘lishi uchun o‘quvchi o‘z irodasini ishga soladi, diqqatini harflarning shaklini to‘g‘ri ifodalashga jalb qiladi. Yozayotgan so‘z yoki gapning mazmunini tushunmasdan, harflarning shaklini bilmasdan ularni idrok etib bo‘lmaydi. Yozish jarayoni ko‘rish va eshitish sezgilari orqali idrok qilinadi. Idrok etilishi lozim bo‘lgan materialni tartibga solish, o‘rganiladigan manba yoki uning tasvirini yaqqol ko‘rsatish, bayonning ravshan va izchil bo‘lishi, sinf doskasiga hamma o‘quvchi ko‘ra oladigan qilib chiroyli yozish idrok etishning muvaffaqiyatli chiqishini ta’minlaydigan omillardandir.

Birinchi sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo‘lib, u bir necha davrlarga bo‘linadi va bir necha xil vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bolalar o‘qituvchining ko‘rsatmasiga asosan, doskaga yozgan harf va so‘zlarni ko‘rib boradilar, so‘z va bo‘g‘inlarni tahlil qiladilar, nuqtachalar bilan ifodalangan harflarning ustidan bo‘yadilar. O‘quvchilarni yozdirishga o‘rgatishdan avval to‘g‘ri o‘tirish qoidalarini tushuntirib berish shart. Shu bilan birga o‘qituvchi butun dars davomida o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘tirish qoidalarini eslatib turishi lozim.

O‘quvchilarda chiroyli, aniq va toza yozishga qiziqish uyg‘otish birinchi navbatda o‘qituvchiga bog‘liq.

Shunday ekan, har bir o‘quvchini chiroyli yozuvga o‘rgatish, yozuv malakalarini shakllantirish biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining zimmasidagi yuksak vazifadir. Chunki, husnixat ham bir san’at aslida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov M. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini husnixatga o‘rgatish” Toshkent “O‘qituvchi” 1970 14. G‘ulomov M.
2. “Husnixat metodikasi” Toshkent “O‘qituvchi” 1976
3. Safarova R va b. Savod o‘rgatish darslari. Toshkent. “Ma’naviyat”, 2003, 6-bet



KIMYO DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Turabova Kamola Umirovna
Raxmatova Nodira Hasanovna
Navoiy shahar 6-umumiy o'rta ta'lim
maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limning zamonaviy o'qitish texnologiyalarini joriy etilishida axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida interfaol usullardan foydalanish haqida fikr yuritilgan. Hamda axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida interfaol usullardan foydalanish orqali o'quvchilarning kimyo fanini o'zlashtirishi samaradorligini oshirish yo'llarini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, axborot kommunikatsion texnologiyalari, interfaol usullar, kimyo fani, o'qituvchi, o'quvchi, o'zlashtirish, samaradorlik.

2020 yil mamlakatimizda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinib, bu boradagi ustuvor maqsadlar belgilangan edi. Jumladan, yurtimizda avvaldan shakllangan ilmiy maktablar salohiyatini hisobga olib, hozirgi bosqichdagi milliy manfaatlarimiz va taraqqiyotimiz yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, matematika, kimyo, biologiya, geologiya fan va sohalarini rivojlantirish tanlab olindi va mana shu fanlarni o'qitish jarayoniga katta e'tibor qaratildi.

Bugungi ta'limning asosiy maqsadi fanlarni o'qitish bilan birga o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Bu ko'nikmalar esa o'z-o'zidan hayotiy ko'nikmalarni egallashdan boshlanadi. Bu jarayon uzluksiz ta'lim tizimida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi hamda ajdodlar merosidan unumli foydalaniladi. Bu borada birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'lim tushunchasiga milliy-didaktik nuqtai nazardan yondashib, quyidagicha ta'rif bergan edi: «Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kor, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi».

Bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchi dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Hozirgi kunda o'quvchilar uchun informatsion savodxonlik ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

O'qituvchilar yanada samarali o'qitish uchun axborot kommunikatsion va ta'lim texnologiyalaridan foydalanishlari darkor. Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish kundalik hayotimizning dolzarb talabi hisoblanib, jamiyatdagi axborotlarni o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. O'quv jarayonida esa axborot kommunikatsion va ta'lim texnologiyalarning zamonaviy usullaridan samarali foydalanish o'qituvchining o'quv jarayonini yangicha tashkil qilishi, mashg'ulotlarni qiziqarli o'tishi uchun xizmat qiladi. Jumladan, bu faoliyat natijasida o'qituvchi fanlararo bog'lanishni amalga oshiradi, o'quvchilarni muammoli vaziyatlarni hal qilishga o'rgatadi, o'quvchilarni o'zini-o'zi boshqarish hamda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Kimyo fanini to'liq tushunib olishda o'quvchilardan birinchi navbatda masalalar echib, o'rganish eng muhim sanaladi. Shuning uchun ham ko'proq dars jarayonida masalalarni echib, amaliy laboratoriya ishlarini va axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanib kimyo faniga tegishli elektron filmlarni o'rgatish har bir o'qituvchining ma'suliyatli vazifalaridan biri sanaladi. O'qituvchilar tayyor elektron resurslar yordamida dars o'tish bilan chegaralanmasdan balki, ta'limiy resurslarni yaratish hamda uni amalda qo'llovchi o'qitishning zamonaviy usullaridan samarali foydalanish fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini o'quvchilarga etkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi lozim.

Hozirgi davr o'quvchilarga zamonaviy texnologiya asosida, interfaol tarzda mashg'ulotlar o'tkazish taqozo etmoqda. Buning uchun avvalo o'qituvchi o'zi bularni o'zlashtirishi va ularga o'rgatishning eng qulay va oson yo'llarini izlab topishi lozim. O'qituvchi zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida o'quvchilarni fanga qiziqтира olishi, ularning mustaqil ishlashga o'rgatishi, faolligini oshirishi, axborotlar oqimidan foydalanishga o'rgatishi lozim. Ta'lim jarayoniga interfaol usullarni qo'llash ta'limning yanada samarador bo'lishi bilan



birga o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyalarini ham oshiradi. Biz quyida o'qituvchilarga kimyo darslarida foydalanishlari mumkin bo'lgan axborot kommunikatsion texnologiya asosidagi interfaol usullardan tavsiya qilamiz.

“Kim bilimdon va chaqqon” interfaol usulida kompyuterda jadval to'ldirish asnosida o'quvchilarning olgan bilimlari mustahkamlanadi. Masalan,

OKSIDLARNI TOIFALSH				
<i>Oksidlar</i>	<i>Asosli</i>	<i>Kislotali</i>	<i>Amfoter</i>	<i>Befarq</i>
CaO	+			
Al_2O_3				
SO_3				
SO				
P_2O_5				

“Hatosini toping!” didaktik o'yinini kompyuter Power point dasturida tayyorlangan taqdimotdagi formulalardan faqat oksidini qoldirib xato formulalarni o'chirishadi.

OKSIDLAR

Al_2O_3	$CaSO_4$	KOH
SO_3	H_2O BaO	N_2O_5
$Fe(OH)_3$	CuO	H_2SO_4
CO_2	Na_2O	$Zn(NO_3)_2$

Elementlarni massalarini o'quvchilar yod olishi uchun ularning tartib raqamini bir biriga qo'shib yoki kattasidan kichigini ayirish mumkin. Bu interfaol usul quyidagicha o'tkaziladi;

Kompyuterda birinchi ustun namoyish etiladi. Javobini topgan o'quvchilar element nomini aytadilar.

$$Mg+Ca=? (12+20=32) Mg+Ca=Ge$$

$$H + Li = ? (1+ 3=4) H +Li =Be$$

$$Ca -O = ? (20-8=12) Ca - O = Mg$$

$$Na -Li =? (11-3=8) Na -Li = O$$

Mantiqiy savollar

Hamma savollarning javoblari 50 chiqishi kerak, javoblarning to'g'riligini isbotlang.

- $CaCO_3$ ekvivalent qiymatini toping?
- SO_2 dagi oltingugurtning massa ulushini (%) toping?
- 100 gr $CuSO_4$ olish uchun necha gr CuO zarur?
- 35 l kislorod molekulasining massasini toping?

Bu kabi darslarni tashkil etish kimyo ta'limini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Buning natijasida o'quvchilarda *birinchidan*, ayrim ma'lumot dalillarga nisbatan tug'ilgan shaxsiy fikr mulohazalarini bildirishga, ayrim ma'lumotlar yuzasidan o'z fikrini o'rtaga tashlashga tabiiy ravishda intilishi, ularni asoslash va dalillar keltirish malakalari shakllanadi. *Ikkinchidan*, qo'shimcha

adabiyotlar o'qitish, mustaqil kuzatish, tajribalar o'tkazish yo'li bilan har xil tasnifiy va taqqoslama jadvallar, sxemalar chizmalar, ko'rgazmali qurollar tayyorlash malakalariga ega bo'ladilar, hosil qilingan bilim va malakalardan bundan keyin o'quv fanini va boshqa fanlarni o'rganishda, shuningdek, hayotga bemaol, qiynalmasdan, mustaqil ravishda foydalanish malakalari shakllanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch.:T, “Ma’naviyat”, 2008.
- Yo'ldoshev J.G'., Usmanov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T.: 2008.
- Ishmammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.: 2013.
- Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Toshkent 2013.



ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

Umarova Fariza Huvaydullayevna,

Navoiy viloyati, Xatirchi tuman 28-umumta'lim maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'quv tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Hozirgi kunda o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, uning mazmun mohiyatini bilish, uni ta'lim jarayoniga tadbiiq qilish va metodikasini yaratish juda muhimdir. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik faoliyatni amalgada oshirish metodikasini yaratish muhim hisoblanadi. Pedagogik kadrlarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning metodik tayyorgarligini shakll antirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish mazkur jarayonning samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Shu sababli innovatsion texnologiyalar sharoitida boshlang'ich ta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish o'qituvchining metodik tayyorgarligini tarkibiy qismlariga muayyan o'zgartirishlar kiritish, uning mazmunini yangilash va dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish lozim.

Innovatsiya inglizcha so'zdan olingan bo'lib yangilik kiritish, yangilik degan ma'nolarni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullaridan foydalanadi.

Interfaol - bu o'zaro, harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi¹.

O'qitishning interfaol usulubiyotlari bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsunis shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi. Bu usublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bundan pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi, o'quvchilarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini domiyiligini ta'minlanishi, o'quvchilarning fanga bo'lgan

qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiyo yondashgan holda kuchaytirilishi, pedagogik va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Ana'naviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolliigi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini

ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

¹ R.Ishmuhammedov, M.Yo'ldoshev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (Ta'lim tizimi hodimlari metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma) – T: 2013.



PEDAGOGIK TEXNIKA VA UN DAN FOYDALANISH

Urazova Maftuna Xudoyberdi qizi

Qiziltepa tuman 41-maktabning
geografiya fani o'qituvchisi munismalikam@gmail.com
Telefon: +998919200116

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik texnika va undan foydalanib dars o'tish uchun, bir yoki bir nechta usullarini berib o'tilgan. O'quvchilarni darsga jalb qilishdagi muhim jihatlari aytilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnika, ta'lim-tarbiya, ko'nikma, malaka, nutq texnikasi.

Pedagogik texnika - o'qituvchining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari bu avvalo, o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalar hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasmi va bilimni tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir. O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o'qituvchi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo'lib o'rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqi, fazilatlarini va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida o'z-o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyolini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish. nutq tempi) bilishi va o'z o'mida qo'llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

Pedagogik texnikaning sirlarini egallash yo'llari o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlar va mustaqil pedagogik faoliyat jarayonida shakllanib boradi. Pedagogik texnika sirlarini mukammal egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'qituvchi o'z - o'zini doimiy shakllantirib borishi, ya'ni o'z oldiga qo'yilgan talablar nuqtai-nazaridan mohir o'quvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyati muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X Toxtaxodjayevava boshqalar)-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. -380b.



JISMONIY TARBIYA TA'LIMIGA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI

Xadjibayeva Laylo Xolmatovna

Navoiy shahar 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Yo'ldosheva Muxtaram Zayniddinovna

Navoiy shahar 17- umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya ta'limiga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda didaktik o'yinlarda foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, didaktik o'yinlar, intellektual o'yinlar, jismonan sog'lom, aqliy yetuklik, harakatli o'yinlar, milliy xalq o'yinlari, ma'naviyat, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalari, QR-kod.

Jismoniy tarbiya o'quv predmeti o'quvchilarni jismonan sog'lom, yetuk, vatanga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalash orqali jismoniy sifat, kuch, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik hamda egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish, o'quvchilarning salomatligini mustahkamlash, ularni jismonan baquvvat bo'lib yetishishi uchun shart-sharoitlar yaratish va kundalik hayotida to'g'ri ovqatlanish, shaxsiy gigiyena qoidalariga, mashg'ulotlarda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mana shu ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda o'quvchilarning yosh va jins xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya darslariga zamonaviy ta'lim va axborot kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish davr talabi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etishda quyidagilarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

- zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

- ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish;

- Jismoniy tarbiya fani bo'yicha elektron kitoblarni mobil uskunalariga yuklab va ko'chirib olish maqsadida QR-kod yordamida sinflar kesimida o'quv-metodik majmualar (innovatsion darslik, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovalari, QR-kod orqali adabiyotlardagi rasmlarning 5D modellarni kurish imkoni) haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

- tarbiyalanuvchilar, o'quvchi va talabalarni qo'shimcha qiziqarli yangiliklardan matn, audio, video shakllarida xabardor qilib turish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

- nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi platformalardan (Edu Market interfaol-virtual ta'lim dasturi) hamda ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish;

- masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimiga jismoniy tarbiya fani bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy majmualarni, elektron ta'lim rursurklarini joylashtirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- jismoniy tarbiya fanidan o'qituvchilar uchun amaliy topshiriqlarni bajarishga mo'ljallangan uslubiy qo'llanmalar, elektron darslik va elektron videonamoyishlar to'plamini yangi dastur asosida takomillashtirish;

- sport musobaqalarning bosqichma-bosqich o'tkazib, iqtidorli sportchi tarbiyalanuvchilar, o'quvchi va talabalarni tanlash (seleksiya) va rag'batlantirib borish ishlarini amalga oshirish;

- "Ustoz-shogird" tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislariga birlashtirish.

Hamkorlik pedagogikasi asosida jismoniy tarbiya darslari "Ustoz-shogird" an'anasida, maktab, mahalla va oila hamkorligida tashkil etilishi ham yaxshi natija beradi. Masalan, 21-mart "Navro'z umumxalq bayrami" munosabati bilan oila, maktab va mahalla hamkorligida jismoniy tarbiya



mashgʻulotlarini sinfdan va maktabdan tashqarida tashkil etsa boʻladi.

Bunda aralash didaktik oʻyinidan foydalaniladi. Aralash didaktik oʻyinida intellektual savollar hamda harakatli topshiriqlar beriladi. Bunda bolalar ham aqlan ham jismonan shu bilan birga maʼnaviy jihatdan rivojlanishi taʼminlanadi. Sinf oʻquvchilari beriladigan topshiriqlarga qarab ikki yoki toʻrt guruhga boʻlinadi. Bu oʻyin 21-mart “Navroʻz umumxalq bayrami” munosabati bilan tashkil etilganligi uchun milliy xalq oʻyinlarida samarali foydalaniladi. Oʻyin musobaqa tarzida tashkil etilib, avval oʻquvchilarga harakatli topshiriqlar bajarilishi aytiladi. Va keyin jismoniy tarbiya faniga tegishli boʻlgan savollarga ogʻzaki javob berishi talab etiladi. Beriladigan savollar “Blits” shaklida tayyorlangan boʻlishi kerak. Oʻquvchilarni savollarni javoblarini tezda aytishi talab etiladi. Shunday oʻyinlarning tashkil etilishi oʻquvchilarni har tomonlama shakllanishi va rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Bu jarayonda oʻquvchilar birinchidan, jismoniy tarbiya taʼlimi boʻyicha bilimlari yanada takomillashadi. Ikkinchidan, ularning harakatli oʻyinlardagi ishtiroki jismoniy chiniqishiga sabab boʻladi. Uchinchidan, mana shunday oʻyinlarda milliy xalq oʻyinlaridan keng foydalanish ularda milliy gʻurur va iftixor tuygʻularining rivojlanishiga, dunyoqarashining kengayishiga va maʼnaviyatining yuksalishiga xizmat qiladi. Toʻrtinchidan, bu oʻyinlar sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarda amalga oshirilishi oʻquvchilarni jamiyatda oʻzini tutish qoidalariga ham oʻrgatadi. Beshinchidan, bu kabi oʻyinlarning muayyan bayram munosabati bilan oʻtkazilishi hamda oila va mahallaning jalb etilishi maktab bilan ular oʻrtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlaydi. Bu esa oʻz navbatida taʼlim va tarbiya masalalarida ularga katta yordam beradi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. <https://lex.uz>. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus kasb hunar taʼlimining davlat taʼlim standartlarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 187-sonli Qarori
2. <https://lex.uz>. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi 6108-sonli Farmoni.
3. Jismoniy tarbiya fanidan umumiy oʻrta taʼlimning milliy oʻquv dasturi. (loyiha)2021 yil.
4. Abdullayev A. Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti. 1-jild. Fargʻona -2017.



BUNYODKORLIK VA YUKSALISH SHIORIMIZ.BUZG'UNCHILIK VA VAYRONKORLIK BARCHAMIZNING DUSHMANIMIZDIR

Xayrulloev Mexridin Sayfullayevich

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
41- maktab milliy istiqloq g'oyasi va
ma'naviyat asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada vatanimiz porloq kelajagida biz yoshlarning tutgan o'rnimiz va bu yo'lda turli buzg'unchi g'oyalarga og'ishmay harakat qilishimiz uchun o'ziga xos ma'naviyat va aql bilan ish tutishimiz kerakligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: G'oya, milliy g'oya, buzg'unchi g'oya, bunyodkor g'oya, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, ma'naviyat, yoshlar, tarbiya, ta'lim.

Bugungi globallashgan davrda har bir yosh avlod doimiy ravishda atrofda bo'layotgan voqea-hodisalardan ogoh bo'lib ularni, o'z navbatida to'g'ri tahlil qilib o'z munosabatini bildirishi kerak. Shundagina, u zamon bilan hamnafas va u bilan uzviy aloqada bo'lishi mumkin. Bugungi kunda biz yoshlarga keng imkoniyatlar yaratilishi bilan birgalikda, bizning hayotimizni izdan chiqaruvchi, vatanga, onaga, oilaga bo'lgan yuksak insoniy tuyg'ularimizning o'rnini turli xil yot g'oyalar bilan to'ldirmoqchi bo'lgan oqim va guruhlar ham borki, ularning domiga tushib qolmasligimiz uchun biz yosh avlod vakillari ota-bobolarimizdan o'rnak olgan holda boy ma'naviyat, teran mushohada bilan javob qaytarishimiz lozim. Birinchi prizidentimiz Islom Karimov "O'zlikni anglash tarixni o'rganishdan boshlanadi", deya bu borada o'z qarashlarini ifodalagani ham bejizga emas. O'tmishini chuqur anglagan, buguni va ertasi uchun aniq maqsadlar qo'ya oladigan va ana shu maqsadlar sari dadil qadam tashlay oladigan har tomonlama sog'lom avlodgina o'zligini anglashi va jamiyatda sodir bo'layotgan turli xildagi progreslarga o'zining antireaksiyasini qaytara oladi. Bugungi kunda hech bir soha globallashuv jarayonidan ortda qolayotgani yo'q, shujumlardan u xoh bunyodkor g'oyaga qaratilgan bo'lsin, xoh buzg'unchi g'oyaga ularning har birining tag zamirida ma'lum bir maqsad (u ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin) yotadi. E'tiborli tomoni shundaki, hozirgi vaqtda nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun yer yuzida, hattoki, eng rivojlangan mamlakatlarda ham ezgu g'oyalarning oyog'idan chaluvi juda ham ko'plab vayronkor g'oyalar mavjud. Bunday g'oyani ilgari suruvchi oqim va guruhlar qatoriga ekstremizm, terrorizm, din niqobidagi turli tashkilotlar, "ommaviy madaniyat" deb ataladigan qarashni ilgari suruvchi, aslida esa bosh maqsadi yoshlarning ongini buzishga qaratilgan harakatlarni aytishimiz mumkin. Biz ularga qarshi faqatgina ma'naviyatimiz hamda mafkuraviy immunitetimiz bilan harakatlanishimiz mumkin.

Terrorizm (lot. terror - qo'rquv, dahshat) - ma'lum yovuz maqsad yo'lida kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga asoslangan zo'ravonlik usuli. Qo'rqitish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish terrorchilikka xosdir. U iqtisodiy, siyosiy, diniy, g'oyaviy, irqiy, milliy, guruhiy, individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jamiyatga doimiy qo'rquv, fitna, g'alamislik muhitini vujudga keltirish zo'ravonlik yo'li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunohsiz kishilar, jumladan, bolalarning halok bo'lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o'ldirish va portlatishlar bu mudhish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi. Terrorizm turli mamlakatlarda xilma-xil shakllarda va har xil maqsadlar asosida dunyoga keladi. Ma'lum bir mamlakat xalqlarining dunyoqarashi, ma'naviy ruhiy qiyofasi, aniqrog'i, ehtiyojlari, turmush tarzi bevosita ana shunday jarayonlarning shaklini, qiyofasini, mohiyatini va rivojlanish jarayonlarini, boshqacha qilib aytganda, evolyusiyasini belgilaydi.

O'zlarining yovuz niyatlariga erishish uchun hokimiyatni qo'lga kiritishni ko'zlovchi kuchlarning zo'ravonligi va qo'poruvchili siyosiy terrorga misol bo'ladi. Siyosiy terrorizm nafaqat jinoyatchi guruhlar, hatto ba'zi reaksiya, agressiv ruhdagi rasmiy kuchlar tomonidan uyushtirilishi va qo'llanishi ham mumkin.

1999 yilgi fevral voqealari, Amerika Qo'shma Shtatlarida 2001- yil 11-sentyabrda sodir bo'lgan voqealar, dunyoning turli mamlakatlarida amalga oshirilayotgan xunrezliklar terrorchilar o'z maqsadlari yo'lida hech narsadan tap tortmasliklarini ko'rsatib turibdi. Yovuz g'oyalardan yana biri buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilikdir. Buyuk davlatchilik shovinizmi - bir davlatning boshqa davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va harbiy



hukmronligini o'rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyot. Birinchi prezidentimiz

I.A. Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik xavfsizligimizga tahdid solayotgan muammolardan biri ekanligini alohida ta'kidlagan: "O'tgan mustaqil rivojlanish yillari davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdid saqlanib qolmoqda, deb aytilish uchun asos bo'la oladi. Bu tahdid buyuk davlatchilik ruhida shiorlarga, bildirilayotgan fikrlarda, sharhlarda va muayyan hatti-harakatlarda namoyon bo'lmoqda". Diniy aqidaparastlik - siyosiy maqsadlar yo'lida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya'ni mazkur din paydo bo'lgan paytdagi arkonlar asosida hal etmoq niyatidagi harakat va qarashlardan iborat. Aqidaparastlar diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan, o'sha zamondagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga mos bo'lgan barcha yo'l-yo'riqlarning qat'iy hamda og'ishmay bajarilishini talab qiladilar va shu tariqa oqimlarni ifodalashda qo'llanadigan islohot shaklini shart qilib qo'yadilar. Islom arkonlarini niqob qilib olgan aqidaparastlarning asosiy g'oyasi - "sof islom" qat'iyatlarga (prinsiplariga qaytish, maqsadi esa islomiy davlat joriy etishdan iborat. Aqidaparast guruhlar haqiqatni tushuntirish, ishonitirish kabi usullar orqali targ'ib etishni tan olmaydi. Ular o'z g'oyalari bid'atli, g'ayriinsoniy bo'lishiga qaramasdan, o'ta johil va boshqalarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladilar. O'zini shak-shubhasiz haq deb bilish, haqiqatni faqat men bilaman, degan qarashga asoslangan manmanlik esa, zo'raonlikni yuzaga keltiradi. Ya'ni, aqidaparastlik ekstremizmning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I., Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat", 2009, 174b. etamiz". Toshkent.: "O'zbekiston", 2016, 56 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. - M., 1981, B 442
3. Falsafa: Qomusiy lug'at. - T., 2004. - B. 398.
- 4 O'zbek milliy ensiklopediyasi. T.8. - T., 2004. - b 404 3. Mirziyoyev.Sh., "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo



BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIFFERENSIAL TA'LIMNI TASHKIL ETISH TEKNOLOGIYASI

Xolboyeva Gavhar Norbekovna,

Navoiy viloyati Zarafshon shahar 2- maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Differensial ta'lim texnologiyasi ta'limni insonparvarlashtirish va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Differensial ta'lim (lot. differentia-farq) - o'quvchilarning layoqati qiziqishlari, qobiliyatini inobatga olgan holda tashkil etiladigan o'quv faoliyati shakli. Ushbu ta'lim shaklining tub mohiyati o'quvchilar guruhini muhim belgilari (xususiyatlari)ga ko'ra kichik guruhlarga ajratish va har bir guruhga bir xil o'quv materialini o'ziga xos mazmun va darajadagi topshiriqlar orqali yetkazish bilan ifodalanadi.

Differensiallashtirilgan ta'lim texnologiyasi – bu o'quvchilar uchun qulay sharoit yaratish asosida o'qituvchi va o'quvchi hamkorlik faoliyatiga tayanib o'quv jarayonini tashkil etishdir.

Differensiallashtirib o'qitishning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

- O'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishga erishiladi;
- Ularning bilim va malakalarida, ijodiy ishlarida o'sish kuzatiladi, fanga qiziqishlari ortib boradi;
- O'quvchilarning faolligi oshadi;
- O'quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab bilim berilayotganligi sababli ularda o'zlashtirishdagi zo'riqish hollari bo'lmaydi;
- Iqtidorli o'quvchilarning chuqur bilimlar olishga bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi.

Differensial ta'limning ushbu jihatlari o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Ularni mustaqil fikrlashga, o'z ustida muntazam ishlashga undaydi. Bu usulda o'qitishni tashkil etishda o'quvchilarning individualligi qiziqishlari va iqtidori kabilarga tayanish lozim.

Ta'limni differensiallashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarurlari:

- O'quvchilarning individual xususiyatlari va o'quv imkoniyatlarini o'rganish;
- O'quvchilarni guruhlarga ajratish mezonlarini aniqlash;
- Ularning ishlarini tahlil qila olish;
- Samaradorligi past bo'lgan usullarni samarador usullar bilan almashtirish.

Keling, endi, yuqoridagi fikrlarimizni boshlang'ich ta'lim – ona tili, matematika va o'qish fanlarida asoslab ko'raylik. Differensiallashtirishda dastlab o'quvchilar ma'lum bir belgilariga ko'ra guruhlarga ajratiladi. Masalan, ularning qiziqishlari, tanlagan kasblari, bilimlarni o'zlashtirish darajalari, imkoniyatlari va hokazo. Shu bilan birga o'quvchilar bir o'quv maqsadi atrofida birlashadilar.

O'qish darslarida biror she'r yoki matn ustida ishlanayotganda, o'quvchilarning qobiliyatlariga qarab, og'zaki nutqi yaxshi rivojlangan - she'r va matnni ravon yodlab yoki so'zlab bera oladigan, iste'dodlilar – mavzuga mos rasm chiza olish, she'r va hikoya yoza olish qobiliyati bor o'quvchilar kabi guruhlarga imkoniyatlariga qarab topshiriqlar berilishi mumkin.

Matematika darslarida esa, mantiqiy fikrlay oladiganlar uchun mantiqiy masalalar va qiziqarli savollar, tez hisoblay oladiganlarga misol va tenglamalar, ba'zi turdagi o'quvchilar uchun didaktik o'yinlardan ko'proq foydalanish yaxshi samara berishi tajribada isbotlangan.

Ona tili darslarida ham ijodiy fikrlashi, matnni, gap yoki so'zni to'g'ri tahlil qila olishi, og'zaki-savol javoblarda faol ishtiroki kabilar inobatga olinib, topshiriqlar tanlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilarni intellektual rivojlantirish bilan birga qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilar imkoniyatlarini ham hisobga olib o'qitishda differensial ta'limning ahamiyati katta. Bu jarayonda o'quvchilarni intellektual rivojlantirish uchun o'qituvchi boshqaruvchi sifatida darsni insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etishi lozim. Bu kabi ishlarni amalga oshirish o'qituvchilardan katta mas'uliyat va ijodkorlikni talab etadi. Buning uchun o'qituvchilar shaxsiy ish rejalari, dasturlar, ko'rgazmali va tarqatmali materiallarni o'zlarini



tayyorlashlari talab etiladi.

Differensial ta'limda o'quvchilar qobiliyatlarini o'stirishning muhim sharti ta'lim jarayonida erkin ijodiy muhit yaratishdir. Bunday muhitda bilim oladigan o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash va imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S. Abdalova, A. Mavlyanov "Mustaqil ta'limni tashkil etish texnologiyasi". O'quv qo'llanma. - Toshkent "Fan va texnologiya" nashriyoti- 2009, 104-b.
2. B. R. Adizov "Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari" avtoreferat- T. 2003, 44-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish to'g'risida" gi PQ-4199 qarori.



BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN “BOSHQOTIRMA” DIDAKTIK O‘YINI


Yavqochtiyeva Feruza,
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Didaktik o‘yinlar ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o‘yinlar qoidali o‘yinlar jumlasiga kiradi. Bunday o‘yinlar asosini bilishning u yoki bu mazmunini, o‘yinning borishi belgilaydigan harakatlarni bajarishga qaratadigan aqliy va irodaviy urinishni tashkil etadi. Didaktik o‘yinlarda asosiy fikrlash jarayonlarni –tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish takomillashadi.

O‘yin jarayonida o‘quvchilarning ish faoliyati kuchayadi, ixtiyoriy diqqati, xotirasi takomillashadi. O‘yinda bolalar o‘zlari sezmaganda juda ko‘p harakatlarni bajaradilar, masalalarni yechadilar, birgalikda jamoa bo‘lib ishlaydilar. O‘z fikrlarini mustaqil bayon etadilar, do‘stlik, o‘rtoqlik, bir-birini hurmat qilish hissi uyg‘onadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida didaktik o‘yinlarning bir nechta turlaridan keng foydalanish mumkin. Shu jumladan “Boshqotirma” didaktik o‘yini mavzularda keng foydalanish mumkin.

Boshqotirma o‘yini o‘tkazish uchun o‘quvchilar yoshiga mos holda juda sodda ko‘rinishda boshqotirmalar tuzib olinadi. O‘quvchilar mustaqil ravishda javoblarni topib yozadilar. Dastlab boshqotirmalar o‘qituvchi boshchiligida hal etiladi. O‘quvchilarda boshqotirmalarni hal etish ko‘nikmalari paydo bo‘lgandan keyin o‘qituvchi nazorati ostida mustaqil hal qiladilar.



1	2	3	4	5	6	7
---	---	---	---	---	---	---

«Boshqotirma» o‘yini o‘quvchilar dumyoqarashini o‘stirish bilan birgalikda ularga so‘zlar imlosini yodda saqlab qolishlariga ham imkon beradi. Boshlang‘ich sinflarda krossvordlar suratlar asosida ham berilishi mumkin. Suratlar asosida berilgan boshqotirma quyidagicha hal etiladi:

Berilgan rasmlarning bosh harflarini qo‘yib, so‘zni o‘qing.



2. Boshqotirma javoblaridan so‘z turkumi nomi kelib chiqadi.

Bu didaktik o‘yin orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlari kengayadi, berilgan rasmlar orqali tabiatdagi voqea va hodisalar bilan tanishadilar. Ularni asrab-avaylash, ehtiyotlash kerakligini o‘rganib boradilar.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TUSHUNCHALAR USTIDA ISHLASH

Yo‘ldosheva Sohiba

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 25-maktab
boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida grammatik tahlillar ustida ishlashda so‘z turkumlari bo‘yicha qilinadigan ishlar haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: So‘z turkumlari, tahlil, so‘z, gap, tushuncha, til, Grammatik tahlil.

Boshlang‘ich sinflarda morfologiyadan “ot”, “sifat”, “son”, “fe‘l”, “olmosh” tushunchalarini; sintaksisdan “gap”, “ega”, “kesim”, “ikkinchi darajali bo‘lak”, “uyshiq bo‘lak, undalma” tushunchalarini; so‘z yasashdan “o‘zak”, “qo‘shimcha”, “o‘zakdosh so‘zlar” kabi tushunchalarni shakllantirish ustida ish olib boriladi.

O‘qituvchi tushunchalarni shakllantirish jarayonini boshqarish, o‘quvchilar aqliy faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish uchun u tushuncha nimaligini, tushunchani bilib olish jarayonining xususiyatlarini, tushunchani o‘zlashtirish qanday sharoitda natijalariroq bo‘lishini ko‘z oldiga aniq keltirishi lozim. Grammatik tushunchalar so‘z, so‘z birikmasi, gap, morfema, leksima, fonema va boshqalarning o‘ziga hos muhim belgilarini aniqlash va umumlashtirish natijasi hisoblanadi. Agar o‘quvchilar faoliyatining xarakterli, ya‘ni mashq jarayonida o‘quvchilar bajaradigan aqliy omillar xarakteri asos qilib olinsa, mashqlar analitik, sintetik, taqqoslashga, umumlashtirishga oid mashqlarga bo‘linadi.



Grammatik tahlil analitik mashqqa kiradi. Grammatik tahlil so‘z turkumiga ko‘ra (morfologik) tahlilni, gap bo‘laklariga ko‘ra (sintaktik) tahlilni o‘z ichiga oladi. Amaldagi dasturga ko‘ra, 1-sinif o‘quvchilari “ega” va “kesim” terminlaridan foydalanmaydilar, ammo ular gapning bosh bo‘laklarini amaliy ravishda topish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. 2-sinfda,

1-sindagidek muhokama qilinadi. Misol uchun: “Oppoq” paxtalar qiyg‘os ochildi gapini quyidagicha tahlil qiladi. Paxtalar ochildi-gapning asosi. Oppoq paxtalar va qiyg‘os ochildi- so‘z birikmasi. 3-4-sinflarda sintaktik tahlil sifat jihatidan o‘zgarmaydi, ammo so‘z birikmasini ajratishga ahamiyat beriladi. Morfologik tahlilning vazifasi hozirgi o‘zbek tilida so‘z qanday ma‘noli qismlardan tuzilganini aniqlashdir. Boshlang‘ich sinflarda grammatik va morfemik tahlil bilan birga, so‘zni tovush-harf tomonidan tahlil qilishdan ham foydalaniladi. Bu tahlilning vazifasi so‘zda tovushlarning tartibini, ularning xarakterli xususiyatlarini, tovushlar va harflar o‘rtasidagi munosabatni aniqlash hisoblandi. 4-sinfda o‘rganilgan mavzularni hisobga olib, morfologik tahlil biroz to‘ldiriladi va quyidagi tartibda o‘tkaziladi: Ot, sifat, son, olmosh, fe‘l so‘z turkumlari bo‘yicha tahlil qilinadi. O‘quvchilar tahlil tartibini bilib olishlari uchun o‘qituvchi bu tartibga rioya qilib so‘zga xarakteristika berishning qulayligini tushuntiradi.

Xulosa qilib shuni aytishim kerakki, hozirgi kunda boshlang‘ich ta‘lim ona tili darslarida so‘z turkumlarini Grammatik tahlil qilish juda ham sayoz qilib ko‘rsatilgan. Agar biz 1-4-sinflardayoq Grammatik tahlillarni morfologik, sintaktik tahlil deb o‘rgatadigan bo‘lsak, 5-sinfga o‘tgan o‘quvchilar qiynalmasdan tahlil qila oladilar. Demak, ona tili darsliklariga biroz o‘zgartirishlar kiritishimiz kerak deb o‘ylayman.



VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATCHILIK VA HUQUQBUZARLIKKA MOYIL O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYA VA SPORT VOSITASIDA TARBIYALASH

Yuldosheva O'Imasoy Xayrullayevna
Turopova Shahnozabonu Xolnizozovna

Navoiy shahar 17- umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni jismoniy tarbiya va sport vositasida tarbiyalash borasida fikrlar keltirilgan. Hamda yoshlar, shuningdek voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni aniqlash, ularni mahalla bilan hamkorlikda jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish haqidagi aniq takliflar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilar, jismoniy tarbiya va sport, yoshlar, uyushmagan yoshlar, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat, mahalla, 5 ta muhim tashabbus.

Ma'lumki, mamlakatimiz yoshlarini har bir sohada qo'llab-quvvatlovchi hamda ularning suyanchiga aylanuvchi O'zbekiston yoshlar ittifoqi 2017 yil 30 iyun sanasida tashkil etildi hamda O'zbekistonda 30 iyun "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi. Shuningdek, 2020 yil 19 martda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surishlari yurtimizda yoshlarga, ayniqsa ularning uyushmagan qatlamiga e'tibor davlat siyosati darajasida qaratilayotganligini yaqqol isbotidir.

Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan bu g'oyaning ikkinchi tashabbusga doir masalalar muhokama qilinar ekan, diyorimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi etarli emasligi qayd etildi. Umumta'lim maktablarining sport anjomlari bilan jihozlanish ko'rsatkichi mamlakat bo'yicha 56 foizni, jumladan, Surxondaryo viloyatida 12 foizni, Xorazmda 14 foizni, Qoraqalpog'istonda 15 foizni tashkil etadi, xolos. Yig'ilishda bu masalaning muhokamiasi yakunida yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasidagi chora-tadbirlar belgilab berildi. Jumladan, tuman va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlariga mutaxassislar bilan birgalikda yoshlarning sport turlariga qiziqishi hamda sport inshootlarining jihozlanish darajasini o'rganib, shu asosda takliflar berish, Vazirlar Mahkamasiga esa ularni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar manbasini aniqlash vazifasi yuklatildi.

SHuningdek, olis va chekka qishloqlarda engil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari tashkil etish uchun er ajratish zarurligi ta'kidlandi. Bunday tadbirkorlarga O'zmilliybank tomonidan "YOshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratildi. Joylardagi sport maktablariga xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lgan taniqli sportchilarni rahbar etib tayinlash, shuningdek, sportchilarni oliy o'quv yurtlarining maxsus sirtqi bo'limlarida maqsadli o'qitish yaxshi natija berishi qayd etildi. Bolalar va o'smirlar sport maktablari sonini ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Berilgan topshiriqlardan kelib chiqib yoshlarni, ularning uyushmagan qatlamini jismoniy tarbiya va sportga jalb etish, ular orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi:

- Yoshlar, xususan uyushmagan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi, ekologik madaniyatni shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga keng jalb qilish;
- Yoshlarni, xususan uyushmagan yoshlarni diniy-ekstremistik va boshqa buzg'unchi tashkilotlar ta'siridan, chetdan ommaviy madaniyat niqobi ostida kirib kelayotgan salbiy ta'sir va iahdidlardan asrash, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni profilaktika qilish va oldini olishga ko'maklashish.

Ushbu ustuvor vazifalarni bajarishda jismoniy tarbiya va sport alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, jismoniy tarbiya va sport inson tanasini chiniqtiribgina qolmay, tanada ruh tetikligini ta'minlaydi hamda imkoniyatlarni kengaytirishga yordam beradi, inson vijdonini uyg'otishda iymon-e'tiqodini butun qilishda, g'ururli bo'lishga, adolatsizlikka qarshi turishda va irodali



bo‘lishga katta yordam beradi. Uning baquvvatligi o‘ziga ishonchni shakllantirish bilan birga, adolatsizlikka qarshi kurashishga undaydi.

Jismoniy tarbiya va sportning yuqoridagi xususiyatlarini inobatga olib, voyaga yetmagan yoshlar bilan bog‘liq jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan muammolarni ijobiy hal etish bo‘yicha quyidagi takliflarni berishni ma‘qul deb bildik:

- Mahalla fuqarolar yig‘inlari a‘zolari shtat tarkibida oliy ma‘lumotga ega jismoniy tarbiya va sport sohasi vakili ishlashini ta‘minlash hamda o‘sha soha vakili boshchiligida tashabbuskor yoshlardan hamda faxriy sportchilardan iborat guruh tuzish;

- Guruh zimmasiga mahallalarda yoshlar va ularning uyushmagan qatlami orasida sport musobaqalarini tizimli o‘tkazishni hamda iste‘dodli yoshlarni kashf qilishni, to‘y marosimlarimizda milliy sport o‘yinlari bo‘yicha musobaqalar tashkil etishni va mana shu ishlarni ommalashtirish vazifalarini yuklash;

- Voyaga yetmagan yoshlar o‘rtasida mahallar, sektorlar, tumunlararo, viloyat va respublika bosqichidagi o‘yinlarni davomiyligini ta‘minlash va muntazam o‘tkazib borish;

- Mahalla binolari oldida “Mahallamiz iftixorlari”, “Mahallamiz yoshlari” nomli tasviriy oyna tashkil etib, u erda mahalladagi iqtidorli va faol yoshlarni fotosuratlarini o‘rnak sifatida ilib qo‘yish lozim.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda mutasaddi tashkilotlar, boshqarmalar, ta‘lim muassasalari, ayniqsa sektor rahbarlari mas‘uliyat bilan o‘z nazoratiga olib bajarishlari voyaga yetmagan yoshlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish imkoniyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Zero, voyaga yetmagan yoshlar muammolarini umummilliy masala sifatida e‘tiborga olinishi globallashtirish davrining eng muhim talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 30 iyunda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining 4 qurultoyida so‘zlagan nutqi.-Toshkent, 2017 yil, 30 iyun.

2. https://kun.uz/news/2019/03/20/Prezident_beshta_muhim_tashabbusni_ilgari_surdi. Ular nima?

3. Shopo‘latov A.N. Jismoniy tarbiya va sport orqali uyushmagan yoshlarning faolligini oshirish yo‘llari. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti. Uyushmagan yoshlar bilan ishlash bo‘yicha ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2017, 23-bet.

4. Taylokov I.N va boshqalar. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik vositalari va texnologiyalari. Monografiya. T.: “Ta‘lim”, 2019.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH

Yusupova Nargiza Shavkatovna
Urganch shahri 18-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998 91 2778979

Annotatsiya: "Boshlang'ich ta'limda kreativ fikrlashga o'rgatish" mavzusidagi maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodkorlikka, mustaqil fikrlarini bayon qila olishga, ifodali o'qishga o'rgatishning afzalliklari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kitob o'qish, samarali o'qish texnologiyasi, tanqidiy fikrlash

Bizga ma'lumki, ko'pincha o'quvchilar o'qiganlarida tinish belgilariga yaxshi e'tibor bermaydilar. Ular har bir o'qigan narsasiga ijodkorlik va yaratuvchanlik bilan yondoshmoqliklari kerak. Shuning uchun har bir so'zga, gapga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qishni o'rgatishimiz lozim. Asarni o'qiganda tushunib, ongli idrok qilib o'qish lozim. Har bir fikrni ijodkorlik bilan tushunib bayon qila olsa o'quvchi intiluvchanligidan darak beradi. Umuman, inson faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash har muammoni, vazifani, loyihani yechishda sermahsul jarayon hisoblanadi. Hozirgi zamon ta'limining bosh va asosiy vazifasi — o'quvchining intellektual darajasini, yaratuvchanligini, ijodkorligini, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali ularni yangi bilimlarni olish, yaratishga ruhlantirishga qaratilmog'i kerak. Ma'lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko'ra) olti yoshgacha bo'lgan bolalar 40% iste'dod potensialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo'lar ekanlar. Agar shu davrda ular bilan olib borilayotgan ta'lim jarayoniga faqat an'anaviy asosda yondashilsa, ulardagi ijodkorlikka moyillik so'nib boradi. O'quv-biluv ijodkorlikka yo'naltirilsa, bolaning faolligi, yaratuvchanlik qobiliyati oshib boradi. Ijodkorlik asosida ish yuritishda faqatgina obyektning o'zi bilangina cheklanmay, ya'ni subyekt (bola)ning ijodkorligi, moyilligi, ehtiyojiga qarab ish tutilsa, ijobiy natijalar beradi, ya'ni ijodkorlikka bolalikdan o'rgatish mumkin va zarur.

Umuman, ulug' kashfiyot namoyandalari fikrlash algoritmini yaxshi o'zlashtirganlar, chuqur, atroflicha bilimga ega bo'lganlar. Ular, asosan, evristik metod va usullarni yaratganlar, shular asosida ijodkorlik namunalarini namoyon qilganlar.

„Kreato“ lotincha so'z bo'lib, *yaratuvchanlik, ijodkorlik* degan ma'noni beradi. Yaratuvchanlik va ijodkorlik metodlarini yaratishni, o'rgatishni kreativ pedagogika o'rgatadi.

Agar ta'lim jarayoni o'quvchi faolligiga asoslangan muammoli, dasturlangan, loyihalar, masofaviy ta'lim jadallashtirilgan holda kechsa, u holda kreativ yo'nalishga ega bo'lib, o'quvchining faolligi tufayli u yangilik, ijodkorlik sari yetaklaydi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga kichik paytidan o'rgatish lozim. Uning o'zlashtirib, asarlarni ravon va mazmunli o'qishida bu ham juda muhim hisoblanadi. Mutaxassislar ta'kidlaydiki, bolani fikrlashga, harakatga o'rgata olsakkina, u jamiyatdan munosib o'rin egallaydi va bilimlarni puxta egallaydi. Fikrlashga o'rgatish uchun eshitish, erkin qo'yish kerak. Savol-javoblarda aktivlikka erishish kerak. O'quvchi qachon mustaqil fikrlay oladi. Qachonki u mustaqil ko'p kitob o'qisa. O'qigan asarini o'zi tushunib, idrok qilib gapirib bera olsa, demak bu o'quvchi asarni to'la tushungan bo'ladi. Ko'pgina o'quvchilar juda qobiliyatli bo'ladi. Ular har qanday topshiriqni tez bajara oladilar. Lekin ba'zi o'quvchilar ravon va mazmunli o'qishga qiynaladilar. Bunday paytlarda bu o'quvchilar bilan darsdan keyin individual shug'ullanishni tavsiya qilaman. Ta'lim bilan bog'liq har qanday faoliyat loyihalashtirish asosida kechsa yaxshi natijalarga olib keladi. Hozir texnik jihatdan katta o'sish, o'zgarishlar davri. O'quv jarayonini algoritmlash, loyihalash, modullashtirish o'quvchining o'quv jarayoniga bo'lgan shaxsiy mas'uliyatini oshiradi. Ularda motivatsiyaning kuchayishi orqali qo'shimcha ma'lumotlar olish asosida o'z bilimini boyitib borish ehtiyojini tug'diradi.

O'quv jarayonini kreativ yo'naltirish uchun:

1. O'quv jarayoni o'quv materialini berib borish, boshqa qiziqarli qo'shimcha materiallarni taklif etish va o'quvchini izlanishga, ijodkorlikka yo'naltiruvchi material asosida uni o'z ehtiyoji, xohishi bilan yangilik sari yetaklash.

2. O'quv jarayonini ham shunday o'zgartirish kerakki, o'quvchi o'quv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan o'quv materiali o'sha yaratuvchilikka xizmat qilsin.

3. O'quv materiallariga yangi qo'shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va



usullar taklif etish orqali o'quvchining ijodiy fikrlashga bo'lgan qiziqishini oshirish kerak.

O'quv jarayonida o'quvchi mustaqil ravishda masalaning yechimiga intilsa, o'qituvchi muammoli vaziyatni o'z vaqtida tashkil etsa, o'quvchi uchun sekin-asta ko'nikma va malakaga aylana boradi.

Umuman, inson faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash har muammoni, vazifani, loyihani yechishda sermahsul jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. G'G'Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2015.



TARIX DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI.

Zaripova Maloxat Makaanbayevna
Xorazm viloyat Urganch tuman
7-maktab tarix fani o'qituvchisi. Tel:99 9426963

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix darslarining o'quvchilar tafakkurini shakllanishidagi roli, darslarni olib borishda foydalaniladigan interfaol metodlar haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, zamonaviy texnologiya, metod, pedagog, ko'nikma

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lida borayotgan Respublikamizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axbarot texnologiyalarini joriy etishda hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Uzluksiz ta'lim tizimida davom etayotgan islohotlarning eng muhim bosqichi tarix fani o'qituvchisi oldiga shunday ma'suliyat qo'yidiki, bu o'qituvchi faoliyatining o'quv-biluv tuzilmasini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishdan iborat.

Tarix fani murabbiylik, yaratuvchanlik, yo'naltiruvchilik va insoni istiqbolga da'vat eadigan kuchdir. Mazkur fan inson taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazadi, milliy istiqbol mafkurasini shakllantiradi. Ayniqsa, uning xalq tarixi, uning rivojlanish bosqichlarini nechog'lik o'rganish, undan saboq chiqarish, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi o'rni nihoyatda beqiyosdir.

Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu“ desak bo'ladi va bu ko'zguna qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir.

Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fiklashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim. Tarixning fan sifatida yoritish va o'quvchi diqqatini uzoq o'tmishga qaratish bilan birga o'quvchilarning dunyoqarashlarini, ilmiy nazariy tafakkurlarini takomillashtirish, o'tmish va hozirgi zamondagi voqea va hodisalarga ilmiy xolislik va tarixiy ob'ektivlik tamoyillariga amal qilgan holda tarixiy voqealikka munosabat bildiradigan hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida yondashadigan erkin fikrli komil insonni tarbiyalash, o'quvchilarda xalqimizning madaniy, ma'naviy merosiga, ilg'or an'analari, milliy qadriyatlari, axloqiy fazilatlariga hurmat, vatanparvarlik tuyg'ularini, ajdodlarimizning jahon madaniyatiga qo'shgan hissalaridan faxrlanish va ularning munosib davomchilari bo'lishni tushuntirish lozim.

Tarix darslari samaradorligini oshiruvchi usullardan biri ko'zgazmali vositalar yordamida darsda muaammoli vaziyatni vujudga keltirish bo'lib hisoblanadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri – ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Buning uchun pedagogdan yuksak mahorat va ta'lim jarayonida yangicha yondashuvni talab etadi. Bugungi kundagi ta'lim jarayoni ta'limni interfaol metodlar asosida olib borishni talab etmoqda.

“B.B.B” texnologiyasi. (bilaman, bilmoqchiman, bilib oldim)

Masalan, o'quvchilar bilan Amur Temur mavzusini o'rganishda bu texnologiyadan quyidagicha foydalanamiz: O'quvchilar guruhlarga bo'linadi. O'qituvchi o'quvchilardan Amir Temur haqida nima bilasizlar deb so'raydi o'quvchilar javoblarini bilaman ustuniga yozib chiqadi. Ikkinchi ustunga A. Temur haqida nimalarni bilishni hohlashini yozib chiqadi. Uchinchi ustunga o'quvchilar nimalarni bilib olganliklarini yozib chiqadilar.

“Tarixiy quvlashmachoq”. Doskaga 10ta kvadrat katakchalar chizilib 10ta sana tartibsiz ravishda joylashtiriladi. Berilgan vaqt davomida tarixiy sanalar ketma- ketligini to'g'ri hal qilgan o'quvchi g'olib hisoblanadi. Bu vazifa guruhlarga berilsa yanada samaraliroq bo'ladi. Chunki, guruhlar o'rtasida raqobat hissi yanada kuchayadi. Vaziyatni to'g'ri va to'liq topgan guruh g'olib sanaladi.



“T.A.R.I.X.” usuli

Maqsad: “T.A.R.I.X.”-bu usul quyidagi jadval asosida to‘ldiriladigan jamoa o‘yinli usulidir. Ya’ni “T.A.R.I.X.” usuli quyidagi so‘zlarning bosh harflaridan olingan bo‘lib, T-test savollar, A-anagrammalar, R-raqamlardagi voqealar, I-ikki tarixiy jarayonni solishtirish, X-xulosa kabi qismlardan iborat bo‘lib, bu jadvalni guruh bilan birgalikda to‘ldirish orqali o‘quvchilar mavzuning asosiy mazmuni keltirib chiqarishadi. Bulardan tashqari har bir mavzuda uchraydigan yangi atamalarni o‘quvchilar yodda saqlab qolishi uchun quyidagi o‘yin – usullardan foydalansa natija samarali bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol usullardan foydalanib o‘tilgan darsda o‘quvchilar o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo‘ladilar, o‘z g‘alalar fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta’lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirqosimov M. Maktabni bosqarishning nazariy va pedagogik asoslari. “O‘quv qo‘llanma. T. “O‘qituvchi”. 1995.
2. Narzulla Jo‘rayev. Tarix falsafasining nazariy asoslari. T.; “Ma’naviyat”. 2008.



МАТЕМАТИКА ТА’ЛИМИДА О’QUVCHILARNING KASBIY TUSHUNCHALARINI OSHIRISH

Abdulahobov Doston Abdumannop o’g’li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti o’qituvchisi
abdulahobovdoston@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’quvchilarni kasbga yo’llashga doir ilmiy-nazariy asoslar va matematika ta’limi jarayonida ularni kasbga doir tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan kasbiy mazmunli masalalar foydalanish bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: matematika, kasb, yo’nalganlik, masala, bilim, ko’nikma, malaka, funksiya, amaliy.

Yosh avlodga ta’lim berish bilan birga ularga kelajakda to’g’ri kasb tanlashga yo’llash ham ta’lim oldida turgan vazifalardan biridir. Jamiyatda mehnat bozori mavjud ekan ishchi xodimlarga bo’lgan talab ham mavjud bo’ladi. Xodimlar esa yuqori malakali, bilimli, yuksak salohiyatli, ijodkor, keng fikr yurutuvchan, raqobatbardosh bo’lishi kabi talablarga javob berishi kerak. Buning uchun esa avvalo bo’lajak kadr kasb sohasini to’g’ri tanlashi lozim bo’ladi.

Kasb tanlashga doir ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borgan rossiyalik olim I.M.Kondakov 1997 yilda o’smirlarga xos bo’lgan eng muhim kasbiy omillar ro’yxatini tuzdi va olingan tadqiqiy natijalarni matematik — statistik usulda qayta ishlab faktorli tahlillar asosida besh yo’nalishdagi omillarni ajratib ko’rsatgan [1]

Birinchi yo’nalish kasb tanlashda *qat’iyatsizlik omili*

Ikkinchi yo’nalish kasb tanlashda *ratsionallik, teranlik omili*

Uchinchi yo’nalish — bo’lajak kasbning istiqboliga nisbatan *optimistik munosabat*

To’rtinchi yo’nalish — kasb tanlashda *o’z imkoniyatlarini yuqori baholash*

Beshinchi yo’nalish — kasb tanlashda *boshqalarga bog’liqlik*.

Kasb tanlashdagi ilk xatolardan biri bu kasb va mutaxassislikning o’zaro farqlarini bilmaslikdir. O’zbek tilining izohli lug’atida esa kasb tushunchasi shunday keltiriladi:

“Kasb – ish faoliyatining ma’lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi.”

Kasb tushunchasiga ta’rifni E.N.Prohitskaya shunday beradi:

Kasb – jamiyat uchun zarur bo’lgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma’naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud bo’lish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasi. **Masalan** shifokor, o’qituvchi va h.k.

Mutaxassislik – bu bitta kasb ichida tor doiradagi faoliyat turi. [2]

Masalan matematika o’qituvchisi, fizika o’qituvchisi, stomatolog, terapevt va kardiolog.

O’quvchilarning o’zaro farqini bilib olishi uning kelajakdagi kasbi uchun aniq maqsadlar qo’yishi uchun zamin yaratishi mumkin. O’qituvchi esa uning kasb sohasini egallashida kerak bo’lgan bilim, ko’nikma, malaka, kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni amalga oshirishi belgilangan kasbiy faoliyatining muhim qismi hisoblanadi.

Matematikani o’qitish jarayonida kasbga yo’naltirish ishlari **matematikadan sinf dars** sistemasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- *Matematik tushuncha va qonuniyatlarni kasb sohalari bilan o’zaro bog’lab tushuntirish;*
- *Matematik kasbiy mazmunli masalalardan foydalanish;*
- *Matematika darslarida kasbiy sohalarga aloqadorlikda aks ettirilgan matematik o’quv-ko’rgazmali qurollardan foydalanish.*

Matematik kasbiy mazmunli masalalardan foydalanish deganda avvalo kasbiy mazmunli masala tushunchasini keltirib o’tishimiz lozim.

Kasbga yo’naltirishga xizmat qiluvchi amaliy masalalar bu **kasbiy mazmundagi masalalar** bo’lib, *“bir tomondan matematik mazmunga ega bo’lgan, ikkinchi tomondan kasbiy faoliyat uchun foydali masalalar tushuniladi.”* [3]

Matematika o’qituvchisi tomonidan o’quvchilarni kasbga yo’llash imkoniyati keng bo’lib kasbiy mazmunli matematik masalalar orqali ularning kasbiy tushunchalarini shakllantirish mumkin. O’quvchi matematik bilimlarini qo’llagan holda kasbiy mazmunli masalalarni yechishi lozim bo’ladi. Bunda bir tomondan **matematik bilimlar mustahkamlansa**, ikkinchi tomondan



kasbiy tushunchalarni o‘zlashtirish amalga oshiriladi. Kasbiy tushuncha deganda o‘quvchi uchun tushunarli va kasb sohalarida mavjud atamalar qo‘llanilishi yoki o‘qituvchi tomonidan izohlanishi orqali tushunib yetishiga erishish lozim. Belgilangan tartibda kasbiy mazmunli masalada o‘quvchining matematik bilimlariga mos ravishda berilgan bo‘lishi lozim. Bunda mavzuning kelib chiqishiga ko‘ra o‘qituvchi tomonidan kasbiy mazmunli masala keltiriladi. Bu orqali kasbiy tushunchalarni va matematik bilimlarni o‘zlashtirilishi va mustahkamlanishiga erishish mumkin. Quyida kasbiy mazmunli masalalardan namunalar keltiramiz:

Tengsizliklar mavzusidan kelib chiqqan holdagi masala

1-masala. Futbolchi yuqoriga tepgan to‘p $h(t) = 1 + 7t - t^2$ qonun bilan yuqoriga ko‘tarildi. Bunda h -balandlik (m), t – vaqt (sek). To‘p necha sekund 11 m dan kam bo‘lmagan balandlikda bo‘ladi?

Yechish: $1 + 7t - t^2 \geq 11 \Rightarrow t^2 - 7t + 10 \leq 0 \Rightarrow t \in [2; 5]$

$$5 - 2 = 3$$

Javob: 3 sekund

Aylana uzunligi mavzusiga doir masala

2-masala. Aylana uzunligi 70 cm bo‘lgan futbol to‘pining to‘la sirtini toping.

Berilgan: Shar

$$C=70 \text{ cm}$$

$$S = ?$$

Yechish:

Aylana uzunligi formulasiga ko‘ra

$$C = 2\pi r \Rightarrow r = \frac{C}{2\pi} = \frac{70}{2\pi} = \frac{35}{\pi} \text{ cm}$$

Shar to‘la sirtining formulasiga ko‘ra

$$S = 4\pi r^2$$

$$S = 4\pi \cdot \left(\frac{35}{\pi}\right)^2 = 4\pi \cdot \frac{1225}{\pi^2} = \frac{4900}{\pi} \cong 1560,5 \text{ cm}^2$$

Javob: 1560,5 cm^2 ga teng.

Logarifmik funksiya mavzusiga oid

3-Masala. Yangi shaharchada istiqomat qiluvchi aholining soni yiliga 8% ortadi. Necha yildan keyin aholi soni ikki marta ortadi?

Yechish: Aholi sonini a – deb belgilaymiz, u holda 8% ortgani $a \cdot 1,08$ Ixtiyoriy n yildan yil uchun ortib borishini $a \cdot (1,08)^n$ bo‘ladi.

$$2a = a \cdot (1,08)^n$$

$$2 = (1,08)^n \Rightarrow n = \log_{1,08} 2 = 9,006$$

Javob: 9 yildan so‘ng.

Xulosa o‘rnida matematika ta‘limida faqat matematik bilimlar bilan o‘quvchilarni qurollantirish emas, balki ularning kasbiy tushunchalarini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Zero matematik bilimlarini amaliy va kasbiy jarayonda qo‘llay olmasa u holda matematika ta‘limidagi asosiy vazifa bajarilmagan hisoblanadi. Shuning uchun matematika ta‘limida kasbiy mazmunli masalalardan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кондаков И.М. Диагностика профессиональных установок подростков. Вопросы психологии №1997 стр.122-130
2. Psixologik xizmat. Darslik/ Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. – T-2014. -424 b.
3. Alimatova G.R. –“Kollej o‘quvchilarining matematik tayyorgarligini kasbga yo‘naltirish metodikasi”. //Diss...ped.fan.nomzod.// Toshkent-2004. 130 bet
4. Algebra va analiz asoslari: O‘rta maktabning 10-11-sinflari uchun darslik/ Sh.O. Alimov, Y.M.Kolyagin, Y.V.Sidirov va boshq.-T.:O‘qituvchi, 1996. -256 b.



СОВРЕМЕННЫЙ УРОК РУССКОГО ЯЗЫКА. ОСНОВНЫЕ СТРУКТУРНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ УРОКА

Ауезова Сайра Полатовна

Преподаватель русского языка и литературы
академического лицея при КГУ имени Бердаха
+998886577675

Аннотация: в статье обсуждается концепция современного урока и каким он должен быть. Кроме того, выделены элементы урока.

Ключевые слова: урок, современное образование, элемент, учащийся, процесс обучения

Обучение – процесс, который развивается во времени и имеет свою логику перехода от незнания к знанию. Урок представляет собой лишь одно звено этого процесса. Содержание урока несвободно, оно вытекает из предшествующего и связано с последующим.

С позиций целостности образовательного процесса одной из основных организационных форм обучения является урок. Классно-урочная система при массовости охвата учащихся обеспечивает организационную четкость и непрерывность учебной работы. Итак, урок – это такая организационная форма обучения, при которой учитель в течение точно установленного времени руководит коллективной познавательной и иной деятельностью постоянной группы учащихся (класса) с учетом особенностей каждого из них, используя средства и методы работы, создающие благоприятные условия для того, чтобы все ученики овладевали основами изучаемого предмета непосредственно в ходе занятия, а также для воспитания и развития познавательных способностей и духовных сил школьников.

Основной классификацией уроков является классификация по целям обучения. Вслед за О. Н. Киселевой считаем целесообразным в соответствии с целями обучения выделить следующие типы уроков:

- 1) урок усвоения новых знаний и умений;
- 2) урок закрепления новых знаний, умений и приобретения навыков;
- 3) урок повторения, обобщения и систематизации изученного;
- 4) урок проверки знаний, умений, навыков;
- 5) комбинированный урок.

Цель урока каждого из типов обуславливает набор структурных элементов урока в его составе. Долгое время этот состав оставался обязательным и постоянным, оптимальные временные границы, которые занимал тот или иной элемент урока, были выверены практикой и тоже жестко регламентированы, место каждого элемента в структуре урока четко определено. В настоящее время продолжает развиваться движение по преодолению однообразия в построении уроков. Так, внутри типов уроков появляются виды уроков. Основанием для их появления служат следующие факторы:

- разнообразие методов, применяемых на уроке одного типа;
- разнообразие организационных форм обучения;
- характер учебного материала, подлежащего усвоению; характер связи между элементами урока;
- свертывание или расширение элементов урока.

